

Birinchi bob. Dunyoning bir qavati

Jaziradan qizigan asfalChbt yo'l bo'ylab yelib kelgan taksi Adirko'cha boshida to'xtadi. Undan tushgan ko'zi ojiz er va xotin, taksi haydovchisi bilan iliqlik xayrlashdilar. Mashina ortga burilib jo'nab ketgach, ular ohista odimlab Adirko'chaga tomon yurdilar. Qo'ltiqdashgan eru xotin, bamisoli bir vujud kabi harakatlanadilar. Chust do'ppi va oq ko'ylak kiygan, bug'doyrang yuzli, peshonasi keng, o'rta bo'yli kishi yig'ma hassasini yerga urib, yo'lni aniqlab bormoqda. Uzun yengli havorang ko'ylak kiyib, oq ro'mol o'ragan, oq-qizil yuzli homilador ayoli esa eriga suyanib, bexavotir odimlaydi.

Sho'rqishloqqa xush kelibsiz, pirim, dedi ayol mulozamat ila.

Xushvaqt bo'ling, azizim, jilmaydi eri, peshonasidagi ter tomchilarini ro'molchasi bilan artib.

Ko'r juvon ismi Obida edi. U Olimga turmushga chiqib, shaharda qolib ketganiga ko'p yillar bo'ldi. O'shandan beri ikkisi ko'rlar jamiyatidagi sholcha to'qish sexida ishlashadi. Yoshi o'ttizdan o'tganda Obida farzandli bo'lishni xohlab qoldi. Ko'zyorish muddati yaqinlashganda onalik mashaqqati nechog'li og'irligini his qila boshladi.

Ular Rahmon amakining temir darvozasi yaqinida to'xtadilar.

Pirim? dedi Obida, erining bilagini mahkam qisib.

Qulog'im sizda, deb unga tomon bir oz enkaydi Olim.

Bolamiz ko'zi ochiq tug'ilar ekanmi?

Ha, do'xtirni aytishiga qaraganda, ko'zi ochiq tuo'ilishi mumkin ekan.

Agar ko'r bo'lsa, tug'ilmasayam mayli edi, og'ir xo'rsindi Obida.

Tavba qildim deng, Obidaxon, unga dakki berdi er.

Astag'firulloh... pichirlab tavba qildi ayol.

Yigit yana dalda berdi:

Biz bu dunyoning bir qavatida yashash uchungina kelganmiz. Bandaning ishi Alloh bergan qismatga rozi bo'lish, azizim. Allohga shak keltirmang.

Meni kechiring, pirim, uzr so'radi juvon. O'ylamay gapirdim.

Alloh sizni o'z panohida asrasin.

Rahmon amakining Adirko'chadagi qo'hna hovlisi oqposhsho askarlari Ko'qon xonligi hududlarini bosib olgan 1860-70 yillarda qurilgan. Bobosi Zunnur eshon bundan bir yuz o'ttiz yillar avval, mana shu qo'riq yerga suv keltirib, so'lim bog' barpo qilgan. Eng avval bog' o'rtasiga aravada tosh tashib, balandligi tizza bo'yi, kengligi besh kvadrat metrli supa qurgan. Zunnur eshon avvallari bu supada, mana shu bog'da pishib yetilgan mevalarni qoq qilib quritgan. Boqqa tom solib butunlay ko'chib kelgach, o'z muridlari bilan shu supada davra qurib, xatmi xojagan va irfoniy suhbatlar o'tkazgan. Bu supada yurtga dong'i ketgan asilzoda boylar Horunboy, Nurmuhammadboy, Otaxonboy va boshqa kazo-kazolar to'planib o'tirib, Zunnur eshonning nazari va nafasidan bahramand bo'lganlar. Keyingi avlodlar shuni inobatga olib, supani hozirgacha asl holida saqlab kelishdi. Xarili[1] va xarisiz katta-kichik xonalar zaxlab sho'rlagani sababli, o'tgan yillar davomida besh marta qayta qurilgan. Adir bag'ridagi bu bahavo bog'da hozir ham uzum, o'rik, olma, anor, yong'oq, anjir, xurmo, nok, gilos, olu, bodom, tut daraxtlari bor. Rahmon amakining ikkinchi o'g'li Shokir qadimgi uchta xona yoniga bundan uch yil avval sement poydevorli bir xona uy qurdi. Kun chiqish tomonda oshxona va bostirmalar tiklab, ustiga shifer yopdi.

Bu ko'hna hovlida ne sho'ri savdolar bo'lib o'tmagan deysiz. Rahmon amakining otasi Eshondada sho'rolar davrida iymon-e'tiqodi uchun jazolandi. Uni tergovchi Nig'monov, вЂњхудо yo'qвЂќ de'yishga majburladi. Lekin qaysar eshon: вЂњAlhamdulillah, xudo bor,вЂќ deb turib oldi. Sho'rovii hakamlar qahr u g'azabga minib, uni qamab qo'ydilar. Qamoqda o'tirib kelgandan keyin ham eshonning вЂњaqli kirmadivЂќ. O'z вЂњjinoiy faoliyativЂќni davom ettirib, sho'rolarning g'ashiga tegib, besh vaqt namoz, janoza o'qib, tiriklarga dam solib, yoshlar вЂњongini zaharlabвЂќ, oila qurmoqchi bo'lganlarni Alloh va Payo'ambar farzu sunnatiga binoan nikolashda davom etdi. Bu вЂњjinoiyativЂќ uchun boshi bir umr g'avg'odan chiqmadi. вЂњZamon senga boqmasa, sen zamonga boqvЂќ, deydi sho'rqishloqliklar. Eshonning yagona farzandi Rahmon, otasining qismatidan saboq olib, zamonga boqib, yangicha uslubda yashab, ota-bobolari tutgan eski yo'lni tark etdi. Otasiga вЂњqanday yashashni o'rgatibвЂќ, unga bir-ikki bor dakki berdi. Zamonaviy do'stlariga qo'shilib gazeta o'qib, Rossiyaga o'rik olib borib sotib, soch o'sdirib, shapka kiyib, o'rischa so'kinib, nos va papiros chekib, hatto vino ichishni ham o'rganib oldi. Shu tariqa umr o'tkazib, kuch-quvvatidan ayrilib nafaqaga chiqdi.

Qaysi bir kuni televizor ko'rib o'tirgan Rahmon amaki hangu mang bo'lib qoldi. вЂњVoy tavba! deya o'yladi. Dadamni aytgan bashoratlari rost ekan-da! Sho'ro hukumati ag'darilib ketdimi?! Voh qudratingdan keta-a-ay!вЂќ Rahmon amaki o'z tengdoshlari qatorida, yangi ochilgan masjidga qatnab, bilib-bilmay joynamozga yumalay boshladi. Ammasining o'g'li mulla Hakimdan, hijjalab Qur'on o'qishni o'rgandi. U hamma yomon odatlarini tashladi-yu, lekin nos qurg'urdan qutulolmadi. Naslu nasabini inobatga olgan masjid jamoati uning nuqson va kamchiliklarini kechirdi. U goho masjidda azon aytib, o'ngi kelib qolganda imomlikka ham o'tib turardi. Ittifoqo, masjidga imom kelolmay qolib, Rahmon eshon imomlikka o'tdi. Niyat qilib, quloq qoqib, namozni binoyiday boshlab, qiyomda qo'l boo'ladi. Surai fotiha va zamsurani o'qib bo'lgach, вЂњAllohu akbar!вЂќ deb ruku'ga egildi. Jamoat ham shunday qildi. Shu payt imomning qo'ynidagi olmaday nosqovoq вЂњtopvЂќ etib joynomozga tushdi. Mulzam bo'lgan eshonzoda bir amallab namozni yakunladi. Shu kundan e'tiboran masjid ahli uni imomlikka o'tkazmay qo'yishdi. Chetanboyning choyxonasidagi choyxo'rlar esa bu ahvolni sharhlab, malomat qilib, ustidan kuldilar.

Men o'zim imomlikni otkaz qildim deya o'zini oqlashga urindi Rahmon amaki qizarib-bo'zarib. Ataylab qilganman bu ishni! Tuzukmi?!

Bundan qirq yil muqaddam, Sho'rqishloqqa kelin bo'lib tushgan Karima xola, вЂњsho'rim bo'lmasa Sho'rqishloqqa kelin bo'larmidivЂќ, deb yig'lagan edi. Xola hozir anchagina qarib qolgan, ammo uning shu gapi hamon navqiron. Mehnatkash eru xotin qirq yil kolxozda ishlab, olti farzandni o'stirib voyaga yetkazishdi. Yoqub, Shokir, Obida, Nasiba va Naziralar uy-joyli bo'lishdi. Kenjatoy Sulton hali uylanganicha yo'q. Rahmon amaki soch-soqoli to'la oqarib, yuzidan nur yog'iladigan bo'lib qoldi. Unga oq yaktak va to'rt gulli chust do'ppi juda yarashadi. Ba'zi bir ulfatlariga o'xshab, vino va nosdan yuzining rangi qochmadi. Qazisan, qartasan, o'z zotingga tortasan deydi. Aytishlaricha, odamning zoti toza bo'lsa, unga uncha-buncha dardu illat yuqmas

ekan.

Rahmon amaki hovli o'rtasidagi supaga o'tirib, bir ilgagi siniq ko'zoynagini taqib, mutolaaga tutindi. U o'z uyidagi mojarolarni unutish maqsadida duch kelgan gazetani o'qiyveradi. Bu odam o'z tengdoshlari orasida shu jihati bilan ajralib turadi. Ba'zida gazetani tushunolmay, g'azablanib, g'ijimlab uloqtiradi.

Oshxonadan Karima xola chiqib eriga yaqinlashdi. Xola bug'doyrang, kulcha yuzli, qalinqoshli, o'rta bo'yli, sochlari oqargan, lekin tishlari hali ham sadafdek, gapga usta shaddod kampir. Agar gap boshlashdan oldin chordana qurib o'tirib olsa, demak, hangoma zo'r bo'ladi. Doim bir xilda ko'k durra o'raydi. Ko'cha-ko'yga chiqqanida durrasi ustidan oq doka ro'mol tashlab yuradi.

Choy ichasizmi? deb so'radi xola eriga razm solib. A? Ichasizmi?

Yo'q, deya g'ulduradi chol gazeta varaqlab.

Nega ichmaysiz? o'chakishdi kampir unga xalal berib. Choy opkelaymi?

Nega ichmaysiz deganing nimasi?! gazetani yig'ishtirdi chol. Men iymonli odamman! Gapim bitta. Ichgim kelsa, ichaman deyman. Ichgim kelmasa, ichmayman deyman!

Tavba! asabi buzilgan kampirning yana jag'i ochildi. Sizga biror narsa dedimmi?! Choy ichasizmi, deb so'rasayam jahl qilaverasizmi?

Hoy, xotin! chol chinakamiga tutaqdi. Qachon men jahl qildim?! Ishtaham bo'g'ilib tursa men nima qilay axir?!

E-e-e! qo'l siltadi kampir. Yomon qaridingiz chol!

Jonimga tegma, xotin, tuzukmi?!

Da-a-a-ard! xola uf tortib supaga o'tirdi. Sho'rim bo'lmasa Sho'rqishloqqa kelin bo'larmidim!

Ichkari xonadan uxlayverib qovog'i shishgan Shokir chiqdi. Bu zamonaviy tadbirkor avvaliga omadi chopib kattagina pul topdi.

Ammo aqlidan adashib, savdo ishlarida xatoga yo'l qo'yib, barcha topganini boy berdi. Qo'lga kiradigan bor narsasini sotib, qarzlariga to'ladi. Ruhi tushgan Shokir, bugun yarim tunda, oyog'ida turolmaydigan darajada mast bo'lib, gandiraklab uyga qaytdi.

Xotini Oyxon uni bir amallab o'z xonasiga olib kirdi. Barzangi erini to'shakkacha sudrab borishga kuchi yetmadi. Poygakka yiqilib qolgan Shokir tuni bilan uxladi. Yuziga sholcha botib, katak-katak izlari tushib qolibdi. U naqshinkor yuzini ishqalab, hojatxonaga kirib chiqqach, yuvina kelib supaga yaqinlashdi.

Ha, paxan? dedi u mudroq ovozda xirillab.

Barzangi Shokir qirg'ga yetsa-da, yoshiga mos kelmagan kiyimlarga o'ranib, bosh yalang yuradi. Yoz kunlari kalta ishton kiyib yuradi. Rossiyaga qatnayverib, otasi aytmoqchi, rang-ro'yigacha o'rislashib ketgan. U og'zini karrakdek ochib, esnagancha supaga o'tirdi. Devkelbatli o'g'ilning og'zidan anqigan aroq hidiga chidolmay, otaning ko'ngli ag'darildi. Rahmon amaki o'qchib yo'taldda, uh tortdi.

Shokir, mol qani?

Molingiz xafa bo'lib birovnikiga ketib qoldi, ming'irladi Shokir horo'in ovozda.

He, ahmoq! yana gazetani qo'lga oldi chol.

Maxan, dedi Karima xolaga yuzlangan Shokir. Ovqat bormi?

Ovqatni xotining bersin! Molni o'rniga qo'yib qo'y! javradi kampir.

Oy! Oyxon! chaqirdi Shokir.

Huv! oshxona darchasidan bosh chiqardi Oyxon. Ha, turdingizmi, dadasi?

Ovqat-povqating bormi?

Kechagi ovqatni yeyaverasizmi?

Achimagan bo'lsa opkelaver, dedi Shokir supaga yonboshlab.

Sen yaramas qachon o'nglanasan?! Bunaqada xarob bo'lasan bola, tuzukmi?!

Bo'ldi-da, paxan.

Kun tikkaga kelguncha yotaverasanmi?! Hozir soat nechchi bo'ldi?!

Soatlarini sotib yuborganlar, dada, ovoz berdi kelini Oyxon oshxonadan turib.

Bu hali o'ziniyam sotib yeydi, javradi kampir.

Shokir suyaklarini qisirlatib kerishib, qashindi. U bir yil burun dono'i chiqqan boyvachcha edi. Viloyat markazidagi uyida tuzukkina davr surdi. Endi esa patak soqolini qiray desa, ustara olishga puli yo'q.

Oyxon kechagi jirsiz xamiroshni isitib dasturxonga qo'ydi. Shokir ovqatdan bir qoshiq yeb, non kavshab xo'mraydi.

Tuzukroq ovqat qilsang bo'lmaydimi? Na maza, na matra bor...

Har doimgi ovqat, kiftini qisdi Oyxon. Uyni ovqatigayam ko'nasiz endi, xo'jayin.

Ha, sen kam eding kesatmagan, dedi Shokir chaynalib.

Men kesatmadim...

Oyxon ortga burilib, yerga boqqancha oshxonaga kirib ketdi.

Rahmon amaki va Karima xola fe'llari aynib, Shokirga teshib yuborgudek tikilib unsiz o'tirdilar.

Bismillo dedingmi? so'radi Rahmon amaki nihoyat tinchlikni buzib.

Ichimda aytdim, beparvo chaynaldi Shokir.

Ha, fosiq! g'azablani kuni kecha dinga qaytgan sho'rlik ota. Men eshonlar zurriyodiman. Bolamni ahvoli esa mana bu!

E, konchayte, paxan! o'ijindi Shokir. Undan ko'ra buvamdan qolgan duolardan o'qivoring. Axir men bankrot bo'lib qoldim.

Kurortma-kurort sang'ib yuraversang, bangikurort bo'lasan-da, to'o'ri gapirdim deb o'yladi so'z ma'nosini tushunmay Karima xola. Molni o'rniga qo'yib qo'y!

Dunyo bevafo deb to'o'ri aytisharkan! dedi u qoshiqni tashlab. O'z ota-onang vafo qilmasa, boshqalardan nimaniyam kutish mumkin? Jaraq-jaraq pul topib kelganimda yelkamga qoqib, alqab-alqab pulimni olgansizlar. Ishim orqaga ketganda, sizlar ham meni yomon ko'rib qoldinglar!

Qancha pulingni olaqolibmiz? achchiqlandi Karima xola.

Kunbotish tomondagi paxsa devor ortidan Salim kaptarbozning xotini Zohidaning boshi ko'rinadi.

Karima xola-a?! Huvv, Karima xola-a-a! deb baland ovozda qichqirdi.

Bekaning shano'i ovozidan hurkigan kaptarlar potirlashib uchib dorchodaga qo'nishdi.

Nima deysiz, qo'shni? ensasi qotib javob qildi xola.

Ozgina tuzingizdan bevoring, hovliga bir sidra nazar soldi u.

Da-a-ard! ensasi qotib oshxona tomonga ovoz berdi kampir. Qo'shniga tuzdan berib qo'ying, qizim. Bu qo'shnilar o'z o'aminini o'zi yeb yursa o'larmikin-a...

Oyxon oshxonadan bir kaft tuz olib chiqib, devorga yaqinlashdi.

Eshikdan kelsangiz bo'lmaydimi, qo'shni? Ha, tuzlab qo'yaymi? jerkidi u va qog'ozga o'rog'liq tuzni uzatdi.

Rahmat, Zohida tuzni olib, devor ortida g'oyib bo'ldi.

Shu payt darvoza ochilib, Olim bilan Obida kirib kelishdi.

Ana, choy xo'pladi Shokir. вЂњKo'rlar jamiyati вЂќ yetib keldi. Shunisi kam edi.

Hoy, kim bor, azizlar? Assalomu alaykum, ochiq eshikni taqillatib ovoz berdi Olim.

Karima xola, Rahmon amaki va Oyxon mehmonlarga peshvoz chiqdilar. Salom-alikdan so'ng mehmonlar supadagi o'rinlarga o'rinishdilar. Shokir esa, parvoyi palak, choy ichishda davom etdi. Rahmon amaki Shokirning qo'lidan piyolani tortib olib, tagida qolgan choyni sochib yubordi, piyolani ikki qur chayqab, yangitdan choy quyib Olimga uzatdi.

Iya?! Hoy-hoy! Mening choyim bor edi-ku?! achchiqlandi Shokir.

Kuyovni payg'ambarimiz siylaganlar! dedi u o'g'liga olayib. Tuzukmi?!

Oh-oh-oh! tebrandi quvonib Olim. Yashang, dadajon! Yashang!

Shu yerdamidigiz, aka? boshini egdi Obida.

Obida bu hovlidagi hamma narsani besh qo'lday biladi. Har bir qarindoshini nafas olishi, qadam bosishi, hatto hidi orqali ham ajarata oladi. Obida Shokirdan anqiyotgan aroq hidi va xo'rillatib choy ichishidan uni tanib o'tirar, lekin so'z qotishga botinmayotgan edi. So'qir singil Sho'rqishloqqa bemavrid kelganini anglab, pushaymon bo'ldi.

Assalomu alaykum, Shokir aka, qo'lini havoga cho'zdi kuyov.

Va alaykum assalom, so'qir kuyovning qo'lini olib salomlashdi Shokir.

Aka? so'radi Obida. Kelganimizga xafamisiz?

Nega unday deysan? og'ir xo'rsindi Shokir. Kelsang o'z uyingga kelgansan. Bugun kayfiyatim yaxshimas. Ko'nglimga hech narsa sig'mayapti.

Tashvishlanmang, aka, hammasi yaxshi bo'lib ketadi, deb uni yupatdi Obida o'kinib.

Albatta, dedi Olim ko'tarinki ruhda. Hali yana boy-badavlat bo'lib ketasiz.

Shokir apil-tapil fotiha o'qidi.

Xo'p, men boray. Shaharda ishim bor.

Shokir hovlidan chiqib ketgach, Oyxon supani saranjomlab, qaytadan dasturxon yozdi. Keksalar esa har doimgiday Shokirning ortidan g'iybat boshlashdi.

Bangikurort yana Mahliyo o'lgurni yoniga ketdi. U bo'lsa buni go'l qilib, hamma pulini tortib oldi. Hozir qarzi boshidan oshib yotibdi. Molimizni sotib, bizni sut-qatio'dan benasib qildi.

Men unga ming bor aytganman, uf tortdi Rahmon amaki. Hozirgi zamonda ko'p xotin olish noto'g'ri. Qadimda Saidazimboyni qo'sh-qo'sh xotinlari bo'larkan. Hammasi iymonli, halol-pok, ahil-inoq ekan. Erini duo qilib, yegan-ichganiga shukur qilib, to'rt devor ichida o'tirarkan. Hozirgi iymonsiz xotinlar bir-birini ko'zini o'yadi. Erini aldaydi. Qarg'aydi. Ilmu amal ichirib, yo'lini boo'laydi. Mana, burgutday uchib yurgan Shokir boyvachcha qanoti singan musichaday bo'ldi-qoldi.

Oyxon qaynotasining so'zlarini eshitgisi kelmay, xayolga cho'mib oshxonaga qaytdi. вЂњXudoga soldim, deb dilida qarg'andi u, go'daklarni och-yupun qoldirib, oltinga burkangan buzuqlargayam xudo bordir... Xarob bo'lgur Mahliyo... Er jonivor bo'lsa xotini bormi-yo'qmi demay yana shaharga ketdi... Balki o'g'il tuqqanimda bolaga mehr qo'yib, uyga bog'lanib qolgan bo'larmidi... Qachongacha shunday g'urbatda yashayman-a, xudoyim?..вЂќ

Oyxon o'choqqa o't tutashtirib yubordi. Qozonga ozgina paxta yog'i quyib, piyoz to'o'rashga kirishdi. вЂњHa, deya o'yladi u.

Kimdir qora non yeb yupun yasharkan. Kimdir ayshu ishrat qilarkan. Dunyoning ishlari qiziq. Uchta qizimning taqdiri nima bo'larkin? Menga o'xshab tosh chaynab, bu yorug' dunyodan tovoni yorilib o'tarmikin? Buzuqlarni bo'lsa oshig'i olchi. Hammasi yaraqlab yuribdi. Qorni to'q, egni but. Balki qizlarim ham zamona zayli bilan o'shalarga o'xshab olg'ir bo'lib ketar? Oyxon o'tga tikilib keskin bosh chayqadi. Ho-o-o! Tiriklayin yerga ko'mib tashlarman! Hu, otangga tortmay o'lgur qanjiqlar deb, mana shunaqasiga solaman!вЂќ

Oyxon kapgirni g'azab bilan bir silkidi. Kapgir o'choq boshida tiklog'liq qopqoqqa urildi va u taraqlab yerga tushdi. Oyxon qopqoqni o'rniga qo'yib, qizigan yoqqa piyoz tashladi. Hovliga totli hid taraldi.

Sho'rqishloqlik jaydari kelin Oyxon ko'hlikkina, bodomqovoq, soddadil juvon. Egniga pushti duxoba xalat kiyib, boshiga arab ro'molini durra qilib, oyog'iga xitoy shippagini ilib, hovlida yugurib-elib xizmat qiladi. Qachon qaramang, so'yloq tishini ko'z-ko'zlab kulgani-kulgan. Shokir bir kuni tunda, вЂњshaharda Mahliyo degan xotini borвЂќ deb, o'z gunohiga iqror bo'ldi.

O'shanda bu sodda ayol, вЂњiy-ya-a-a! Voy aldoqchi! Voy tavba-a-a!вЂќ deb kulgan, keyin esa hech kimga sezdirmay tong otguncha piqillab yig'lagan edi.

Ikkinchi bob. Mahliyoning mahliyosi

Asabi buzilib uyidan chiqqan Shokir katta asfalCHt yo'lda вЂњDamasвЂќ mashinasini to'xtatdi. Haydovchi yonida o'tirib, sigaret tutatdi. Mashina shahar tomon yo'l oldi.

Shokir aka, deb so'radi haydovchi. вЂњKamazвЂќ mashinangiz nima bo'ldi?

Sotib yubordim, uka, dedi Shokir xo'rsinib.

Nega sotdingiz? Men bo'lsam, sizga ishga o'taymikin, deb turgandim.

Mendan omad yuz o'girdi, gapni qisqa qildi Shokir.

E-e, yaxshi bo'lmapti, jimib qoldi haydovchi va bir ozdan so'ng tilga kirdi. Parvo qilmang, Shokir aka, bunday o'tkinchi qiyinchiliklar hammaniyam boshida bor. Men o'zim oldin kolxozda yuk mashina minardim. Maosh ozlik qildi. Benzin yo'q. Zapchast yo'q. Ishdan bo'shadim. Boyvachcha Alimardonni вЂњKamazвЂќni haydab, Rossiyaga ikki reys borib, tirikchilikka yetadigan pul topib keldim. Akamni omadi kelib, mana shu вЂњDamasвЂќni sotib oldi. Birovni shopirlikka yollab, bir yil kira qilib foydalandi. Mashina charchagan ekan, tirikchilik qilolmay qolgan haydovchi bola ishni tashlab ketvordi.

Mashina tuzukkina shekilli? razm soldi Shokir.

Buyog'ini eshiting, jilmaydi haydovchi. Keyin akam mashinani tag'in boshqa birovga berdi. U bir oydan so'ng mashinani buzib, вЂњkalla-pochavвЂќ qildi. Akam meni har kuni uyiga chaqirtirib, вЂњmashinani o'zing min!вЂќ deb majburlayverdi. Men unga:

ВЪАка, men kalta poyga qilib, mayda mashina minmaganman, kirakashlikka o'rganmaganman ВЪќ, deb ko'nmadim. Akam hol-jonimga qo'ymay, shu mashinasini baribir bo'ynimga ildi.

Juda yaxshi bo'пти-da, dedi Shokir. Aka-uka inoq bo'lib, birgalashib ro'zo'or tebratsa nimasi yomon?

Nimasini aytasiz. Aka-ukani do'st bo'lganiga yetadigan narsa bor ekanmi, tan oldi u va kulib qo'ydi. Hozir mana shu mashinani deb qozon-tovoqni suvga solib qo'yanman, Shokir aka.

Iya! Nega? ajablandi Shokir.

Yemagan somsaga pul to'lab yuribmiz-da. Mashina butunlay to'kilib ketgan ekan, qo'limga o'tgandan keyin uch kun g'ildiradi xolos. Shundan beri topgan pulimni remontga sarflayman. To'rt yuz ming so'm xarjladim. Uyimdagi qo'ylarni sotdim. Mashina butun bo'ldi. Akam esa bo'ynimga uch yuz ming so'm qarzni ilib qo'ydi.

Shokir endi jiddiy ajablandi.

Bu qanday qarz bo'ldi?!

Mashina ikki oy bekor yotdi-da, jilmaydi haydovchi yigit. Akam mashinani bekor o'tgan kunlarigayam plan qo'yadi. Kuniga besh ming so'm topshirishim kerak. Bugun ishlab topgan pulimni bugun topshiraman. Uchta qo'yimdan ayrilganimga mingdan ming roziman. Mayli, ketsa akam uchun ketibdi. Ammo, uch yuz ming so'mni qayerdan topib beraman? Tushgacha shahar tomonga yo'lovchilar ko'p bo'ladi, qaytishda bo'm-bo'sh qaytaman. Tushdan keyin ahvol buni teskarisi. Benzin qimmatladi. Ikki yuz so'mga bir six kabob yemasam bo'lmaydi. Ikki ming so'mga yoqilo'i olish kerak. Yangam bo'lsa, xotinim kelinlikda kiygan eski tufllisini ko'rib, yangi tufli olibdi, deb janjal ko'tardi. Ana sizga Sho'rqishloq hangomasi!

Haydovchi yigit shunaqa sharaqlab kuldiki, Shokir ВЪёesi joyidami bunivЪќ degan xayolda unga nazar tashladi.

Topshirvoring mashinasini, dedi Shokir asabi buzilib. Siz Ahmad domlaniing ukasi Rahmatillamisiz?

Ha, Shokir aka. Meni tanirkansiz-da? jilmaydi haydovchi. Jon deb bu ВЪёho'l balovЪќni topshirvorgan bo'lardim-u, akam ВЪёagar qarzingni to'lamasang, mashinani olmayman ВЪќ deyapti-da. Meni birgina choram qoldi. Hovlimni yarmini qo'shninga sotaman, Shokir aka. Qarzimni to'lab, qolgan pulga yo'lkira qilib chet elga ketaman. U yerdan dastmoya yio'ib qaytaman. Bo'lmasa holim xarob, aka.

Balki akangiz insofga kelib qolar? achindi Shokir.

Akam otamizni qarzini kechmagan, menikini kecharamdi, dedi haydovchi yuzini chetga burib.

Shokir uning yoshlangan ko'zlarini ko'rib, yuragi ortga tortdi.

Ana senga oqibat! boshini changalladi Shokir. Bu dunyoga nimalar bo'lyapti o'zi?!

Mashinaga ikki bolasini yetaklab olgan bir juvon chiqdi. Mashina yana yo'lga tushdi. Quyoshning o'tli haroratidan olam entikib nafas oladi. Issiqdan qochib, hatto osmonda qush uchmaydi, yerda jonivor o'rmalamaydi. Salonning ochiq oynalaridan issiq asfalCHtning hidi kirib dimog'ni bo'g'adi. Yo'lovchilar bolali ayoldan tortinib, suhbatga chek qo'yib, sukut saqlagancha boradilar.

* * *

Shokir shaharning gavjum ko'chalarida, parishon ahvolda bemaqsad izg'ib yurdi. Hali u, hali bu bekat so'risida shumshayib o'tirdi. Keyin tavakkal qilib, kichik tumandagi kichik xotini huzuriga jo'nadi. Qishloq ko'chalarida puling bor-yo'qligiga qaramay, haydovchilar mashinani to'xtatib olib ketaveradilar. Shahar ko'chalarida chopib borayotgan, har turli rusumdagi mashinalarga pul to'lamasang bo'lmaydi. Yonida puli yo'q Shokir boyvachcha, shohona uyiga, shohona ixtiyor ila piyoda ketishni ma'qul ko'rdi. U kichik xotini Mahliyo bilan ilk uchrashgan kezlarni xotirladi. Ko'z o'ngida o'sha qarq'ish tekkan restoran namoyon bo'ldi. Restoranda omadi chopgan tadbirkor ulfatlar konCHyak ichib, har to'g'rida valaqlagan qah-qahlashib o'tirardilar. Ro'paradagi stolda yolg'iz o'tirgan xushbichim bir huriliqo faqat qahva ichib, pirojniy yer, bu odobsiz kishilarga qarab asta bosh chayqar, Shokir bilan nigohi to'qnashganda nafratlanib yuzini chetga burardi. Qizning nozik qaddu basti, oppoq yuzi, sariq rangga bo'yalgan kalta sochi, ohu ko'zlari Shokir ko'nglida o'zgacha bir hirsu havas uyg'otdi. U ofitsiant ayol bilan hisoblashgach, Sodiq akash, Alisher va Homid ismli shaharlik hamkorlari ortidan tashqariga chiqdi. Savdogarlar u bilan quchoqlashib xayrlashib, mashinalarga o'tirib jo'nab ketishdi. Shokir boyagi jozibador qizning oldiga qaytib kirgisi keldi-yu, negadir o'z fikridan qaytib mashinasi tomon yurdi. U mashinasi eshigini ochib rulga o'tirdi. Boyagi qiz yana ko'z oldida gavdalanib, yuragi bezovta bo'ldi. U fikridan qaytib Sho'rqishloqqa jo'nab ketganida bugungi ko'rgiliklar yuz bermasligi ham mumkin edi. Ammo restoranga qaytib kirdi. Mahliyo o'tirgan stolga yaqinlashib, tavoze ila salom berdi. Qiz kiftini qisib, labini burib alik oldi.

O'tirsam bo'ladimi?

Maqsad nima o'zi? jiddiy nigoh tashladi qiz. Ovqatlanib bo'ldingiz-ku?!

Sizni mehmonga taklif qilmoqchi edim.

Nega aynan meni? muloyim jilmaydi u. Men sizni tanimasam, bilmasam...

Endi tanishib olamiz-da, suzildi Shokir.

Fransuz konCHyagidan boshi qizigan tadbirkorning ko'krak cho'ntagida bir dasta ko'k dollar ВЪёol meni! ВЪќ deya ko'zga tashlanib turardi. Mahliyo unga zimdan nazar solib, qarmoo'iga laqqa baliq ilinganini sezdi. U Shokirda oliymaqom taassurot qoldirish uchun kimning siyomosiga kirishi lozimligini bilolmay ikkilandi. Gollivud madonnasi bo'lsinmi yoki Kumush bibi suratiga kirsinmi? Balki unga oddiy Mariya yoqar? Yoki beozor Jen Eyer bo'lib ko'rinsinmi? Oddiy fohisha sifatida u bilan juftlashsa, anavi ko'k qog'ozlarning bittasiniyam ololmaydi. Bu yigit ham u qadar go'l emas. Mahliyo nogoh g'amgin malika siyomosiga kirib, Shokirga qarab suzildi.

Iltimos, dedi u mungli ohangda. Meni jarohatimga tuz sepmang.

Jarohat deysizmi? yoyilib stulga o'tirdi Shokir.

U suhbatning boshlanishidan tushundiki, qizning ko'nglini eritish mumkin. Muloyimlik bilan notanish go'zalning diliga qo'l soldi.

O'amgin malika esa o'z ayanchli qismatini mahorat ila bayon qila boshladi.

Men xuddi shu yerda, shu alfozda bir kishi tomonidan aldanganman. Oqibatda uy-joyim, ota-onam, obro'-hurmatimdan judo bo'ldim. Insonning eng yomon dushmani uning sodda ko'ngli ekan. Siz, boyvachcha, kech qoldingiz. Meni sizdan oldinroq aldab bo'lishgan. Men o'sha kezlarda erkak kishini tushunmasdim. Oxir-oqibatda o'z yurtimni tashlab ketdim. Bu isnodga chidolmay, otam rahmatli olamdan o'tdilar. Onam tuzalmas dardga chalindilar. Shundan so'ng erkak zotidan nafratlanadigan bo'lib qoldim. Ortiq xiralik qilmang. Anavi ayol meni yaxshi taniydi. Gap-so'z bo'lishni xohlamayman...

Shokir boyvachcha Mahliyo ko'rsatgan ofitsiant ayolga burilib qaradi. Ofitsiant haddan ortiq bo'yangan, yupqa ko'ylak kiygan yengiltak juvon edi. Mahliyo stolga pul tashlab, o'rnidan turib, sumkasini yelkasiga ildi. Qizning qaddu qomati va xusnu jamoli

rassom Leonardo orzularida tuo'ilgan beqiyos asar edi. Bu xo'rlangan malaknamo mahliqo shirakayf Shokir dilida oliymaqom hirsu havas uyg'otib, restorandan viqor ila odimlab chiqib ketdi. Kolxozchi xonadonida ulg'aygan Shokir boyvachcha fikru xayollar ummoniga g'arq bo'ldi. Ofitsiant ayolni o'z yoniga chorlab, bir qadah konCHyak buyurib, uni suhbatga tortdi. Mahliyo haqida erinmay so'rab- surishtirdi.

Ha, dedi ayol. Men bu qizni yaxshi taniyman. Biz yonma-yon uyda yashaymiz.

Sal g'amginroq ekanmi? qiziqdi Shokir

G'amgin? kiftini qisdi u. Ha-ha! Shunaqa bo'lib qolgan. U shunaqa g'amgin...

Erkak kishidan nafratlanarmish, konCHyak ichib gazak qildi Shokir. Shu rostmi?

Mahliyomi?! yuzini chetga burib irshaydi ayol. To'ppa-to'g'ri. Uning hayotida erkak kishi salbiy qahramon. U erkaklardan juda-juda nafratlanadi.

Adresini bering, o'tindi Shokir.

Voy, xudo! yoqasini ushlab, ko'zlarini ola-kula qildi u. U meni naq o'ldiradi-ya!

Bizdayam qolib ketmas.

Unday bo'lsa yozib oling, dedi ayol.

Shokir boyvachcha shu tariqa, Mahliyoning uy manzili va telefon raqamini oldi.

* * *

Ertasi kuni Shokir o'sha manzil bo'yicha yo'l topib, вЂњo'amgin malika вЂќ huzuriga keldi. Mahliyo aslida bu manzilda yashovchi ijaragir edi. Uyning egasi abjir qo'shmachi xotin bo'lib, Mahliyo uni o'z qarindoshi sifatida tanishtirdi. Shokirni mehmon qildi.

Yio'lab-siqtab suhbatlashishga moslashib olgan Mahliyo u bilan bir oy davomida tuzukkina pachakilashdi. Shokirning kun sayin Mahliyoga nisbatan ishq alangalanib borar, qo'shmachi ayol esa pul undirolmay armonda edi.

Maxlishka, boyvachchani pulini olaylik? dedi u sabri tugab.

Menga uni puli emas, o'zi kerak, dedi Mahliyo.

O'zini boshingga urasanmi? jerkidi ayol. Qarzingni to'lab qo'y! Sen mijoz boshlab kelmayapsan. Bir oydan beri tekinga yeb-ichib yotibsan. Shoirona gaplaringni qozonga solib bo'lmaydi.

Agar o'zini qo'lga olsam, hamma mulki meniki bo'ladi, dedi muo'ombir ayol. Bugun bir hunar ishlataman. Senam men qo'yadigan вЂњkinov вЂќda qatnashasan.

Shu kuni Shokir konCHyak va qazi ko'tarib keldi. Zalda bir ovsarroq yigit, atrofga alanglab, irshayib o'tirardi. Uy bekasi javrar, Mahliyo dodlab yio'lar, zaldagi buyum va jihozlar har tomonga sochilib yotardi.

Meni aytganimni qilasan! baqirdi uy bekasi.

Hech qachon!! uv solib yig'ladi Mahliyo. Otamning arvohini chirqiratmayman! Harom yo'lga yurmayman!

Nima gap o'zi?! hayron bo'ldi Shokir.

U Mahliyoni bu alfozda ko'rib ko'zlariga ishonmadi. Qiz sho'rlik telbaga aylanib qolgandi. Ko'zlari tubida mavhum zulmat va iblisona makr uchqunlar, yuzi o'rnida esa notanish bir chehra paydo bo'lgan edi. Go'yo siymosida bu jirkanch dunyodan to'lyan samoviy farishta o'z osmoniga uchib ketmoqchi bo'lib qanot rostlaganga o'xshardi. Qizning telbaligi o'ziga shu qadar yarashgandiki, Shokir uning bu jinniligini ham behad sevib qoldi. Olam ahli tomonidan aldangan go'zalning samoviy farishta ekaniga aniq ishondi. U qizga yaqinlashib, o'ziga tomon otmoqchi bo'layotgan choynakni qo'lidan tortib olib stolga qo'ydi va Mahliyoni bag'riga bosdi.

Senga nima kerak?! unga zardali boqdi Mahliyo, zir-zir titrab. Sengayam pokiza badanim kerakmi?! Meni hech kim, hech qachon sotib ololmaydi! Men oxirgi nonimni yeb bo'lib, o'zimni balkondan tashlayman. Lekin buzuqchilik qilmayman.

Soxta xola bu gapni eshitib, uyni boshiga ko'tarib shang'illadi.

Tashlasang boshqa uyni balkonidan tashla! Mening boshimni baloga qo'yma! Yo'qol uyimdan. Menga pulsiz farishta kerakmas! Ketaman! Qo'shmachi! Buzuq! uv solib yio'ladi sho'rlik juvon.

Hoy, so'tak, Shokirga yuzlandi soxta xola. Oting Shokirmidi? Jiyanimni o'z holiga qo'y! O'rgildim sendaqa farishtalardan! Halol bo'lsang, ikkoving masjidga borib namoz o'qi! Menga hozir pul kerak! Pul!

Shokir bu shallaqi ayol siymosida farishtalarni asirga olib azoblovchi mal'un iblisni ko'rdi. Uning sariqqa bo'yalgan kalta sochi, mug'ombirona jilmaygan yuzi, qahrdan olaygan ko'zlari sho'rqlik to'pori azamat dilida beqiyos nafrat uyg'otdi. U qahramonlik ko'rsatish istagi ila yonib, aqlidan adashib, shamol tegirmoniga qarshi urush ochgan Don Kixotga aylandi. Mardona cho'ntak kavlab:

Qancha kerak?! deya pishqirdi.

Ancha kerak! qilpilladi soxta xola.

Kavlanmang, Shokir aka, yig'idan toliqib hiqilladi Mahliyo. Meni hech kimdan qarzim yo'q. Bir yil shu yerda farrosh bo'ldim. Olgan halol maoshimni keltirib, tiyinigacha topshirdim. Mehnat qilib-qilib, oxiri qo'chaga haydaldim.

Kim seni haydadi, Mahliyo?! xonadon bekasi yoqa ushlab angraydi. Voy, quruq tuhmatingdan o'zing asra, xudoyim!

Shundan ko'ra haydaganingiz yaxshi edi! soxta xolasiga baqirdi Mahliyo va Shokirga soxta jazmani ko'rsatib faryod urdi. Bu hozir meni manavi go'rso'xtaga qo'shmoqchi bo'ldi, Shokir aka-a! Men ortiq yashashni istamayman! Harom yashagandan qo'ra, halol o'lganim yaxshi-i-i!

Tavba qildim desangiz-chi... yuragi achishib uni insofga chaqirdi Shokir.

Senam meni azoblading!... Shokirga mo'ltirab qaradi qiz. Men jinni seni sevib qolganman... Hammang birlashib meni boshimga yetding! Men ortiq yashashni xohlamayman!

Mahliyo dabdabali nutqini yakunlab, oshxona tomon otildi. Soxta xola vahimaga tushib dod soldi. Shokir va jazman yigit Mahliyoning ortidan yugurdilar. Oshxonaga kirgan Shokir benajot qiz bechoraning titrayotgan qo'llarida pichoq ko'rdi. Unga tashlanib bir amallab pichoqni tortib oldi. Vaqtini g'animat bilib, Mahliyoni yana mahkam quchoqladi. Jazman yigit o'zini bosolmay hiringlab kuldi. Shokir g'azabi qaynab, uning yuziga bir musht urdi. Jazman polga quladi. Soxta xola oshxonaga kirdi. U o'zini kulgidan bazo'r tiyib, og'zi qiyshaydi.

Yur, Mahliyo, dedi Shokir Mahliyoni yuz-ko'zlaridan o'pib. Mening uyimga ketdik. Hamma narsani muhayyo qilaman. Seni xo'rlashlariga yo'l qo'ymayman.

Rostdanmi? Qaroringiz qat'iymi? qaltirab yig'ladi Mahliyo. Yo'q. Men sizgayam ishonmayman! Ishonolmayman! Yo'q...

Ishon, jonim, dedi Shokir o'amgin malikaning boshini silab. Uyimda hamma qulayliklar bor.

Yaxshi yigit! o'shqirdi soxta xola. Buni onasiga nima deb javob beraman? Bu qiz kazo-kazolarni bolasi. Ko'chada qolmagan. Agar o'z nomiga uy olib bersangizam bermayman.

Kerak bo'lsa o'z nomiga olib beraman! ishonch bilan gapirdi u. Soxta jazman вЂњbalodan hazarвЂќ, deganday, emaklab oshxonadan chiqib, zaldagi karavot ostiga kirib bekindi. Soxta xola Shokirni turtib:

Hoziroq keting! deya eshikni ko'rsatdi.

Mahliyo, sen nima deysan? bag'ridagi qizdan so'radi Shokir.

Xola Mahliyoni kuch ishlatib undan ajratib oldi.

Qani, ko'chaga marhamat! buyurdi u, Shokirni tashqi eshik tomon surib.

Shokir aka-a-a-a! dodladi Mahliyo, unga tomon intilib. Meni olib keti-i-i-ng!

Hech qayerga bormaysan! o'shqirdi xola.

U Mahliyoni zalga itarib kiritib, Shokirni turta-turta tashqariga chiqardi va eshikni ichidan qulfladi. Shokir bu ko'ngilsiz voqeadan dili vayron bo'lib, eshik oldida bir oz turgach, mashinasini haydab o'z uyiga ketdi.

Mahliyo o'z roliga berilib, yio'iga moslashib qolib, hamon o'zini bosolmay xo'rsinardi. Soxta xola zalga kirib divanga o'tirdi va qiqirlab kuldi. Mahliyo yana bir oz ho'ngrab yio'lab olgach, hiringlab unga jo'r bo'ldi va nihoyat qotib-qotib kula boshladi.

Karavot tagida yashirilib yotgan zo'raki jazman tashqariga emaklab chiqdi. Ayollar uning ko'kargan yuzini ko'rib, battar qitio'lari kelib, polda yumalab kulishdi. Oriyatsiz jazman ham ularga qo'shilib, erlarga yarashmagan ohangda hiringlar, oo'rigan yuzini siypalab uh-uhlardi. Mahliyo kulaverib holdan toydi. Xola qornini changallab ho-holadi:

Ja oshirvording-da, Maxlishka! Ha-ha-ha-a-a! Teatr artistiyam senchalik o'ynolmaydi.

Iste'dodimni haqoratlamang! tamanno ila qilpilladi Mahliyo. Teatr artistingiz meni oldimda kim bo'пти?

Voy bo'ldi! Ha-ha-ha-a-a! Ichagim uzilib ketadiB! Voy, lo'x! Lo'x!

Shokir aka-a-a-a! Meni olib keti-i-ing! mazaxlab chiyilladi soxta jazman.

Hoy, So'taqo'zi, bor uyingga, dedi soxta xola, soxta jazmanning ketiga bir tepib.

Yuzi ko'kargan oriyatsiz olifta o'xshovsiz hiringlab. Kulgi yana avj olib, bu telba tomosha kechga qadar davom etdi. Soxta xola qazini sho'rvaga solib pishirdi. Shokir tashlab ketgan konCHyaki ichib, ikki makkora yanada puxta reja tuzdi. Bir oy mobaynida uzluksiz ijro etilgan, siyqa ssenariy asosiga qo'yilgan spektaklCH tobora avjiga chiqib bordi. Aqlidan ayrilgan Shokir, har kuni telefon orqali ular bilan adi-badi qilib, visol ilinjida Mahliyoga yalinadi. Narigi tomonda yo Mahliyo yio'laydi yoki xola javraydi.

Xullas, bu aytishuvlar nihoyasiga yetib, sho'rqishloqlik laqma tamomila mavh etildi. Shokir boyvachcha Mahliyosiz yasholmasligini tushundi. Shahardagi uch xonali uyini ichidagi mebellari bilan unga xatlab berdi. Guvohlar va Mahliyoning onasi ishtirokida shahardagi ulfatlari bilan bazmi jamshid yasab, bir to'p isqirt mehmonlarni to'plab to'y berdi. To'yda Rahmon amakining kichik o'g'li Sulton ham ishtirok etdi. Shokir o'z otasidan bir og'iz ruxsat so'ramadi. Oilani oq yuvib, oq taragan musichaday Oyxonni, yulduzdek chaqnab turgan uchta qizini xayoliga keltirmadi. Mahliyoga mahliyo bo'lgan Shokir tez orada bor-budidan ayrilishini bilmasdi. Mahliyo turli-tuman siymolarga kirib rolCH o'ynab, boyvachchaning aqlu xushini butunlay egallab oldi. Shokir aytarli har tomonlama o'zgardi. U ichkilikka, ayshu ishratga berilib, savdogarchilik qonun-qoidalarini unutdi.

Natijada chuv tushdi. Qachonlardir ilohiy ishqni targ'ib etib, riyozatu itoatda yashab o'tgan ajdodlar vorisi shahvoniy ishq girdobida to'g'ri yo'ldan adashdi.

Uchinchi bob. Orzumand o'jizlar

Shokir yumshoq ko'ngil yigit. U hammga qayishib yashaydi. Obida Shokirdan keyin tug'ilgan. Oralarida to'rt yosh farq bor.

Yog'inli noyabrCH kunlarining birida maktabdan qaytayotgan Shokir olti yoshli Obidaning Adirko'cha chetidagi katta ariqda yiqilib yotgani ustiga kelib qoldi. Obida paypaslanib, sovuq suvdan chiqishga urinib zorlanib yig'lar, loyda toyilib yana ariq ichiga qaytib tushardi. Sal nariroqda to'planib turgan bolalar:

Ih! Obish ko'r suvga tushib ketdi! Suvga tushib ketdi! deb javrashar, lekin yordam berishga shoshilmasdilar.

Shokir yugurib kelib, singlisini ariqdan chiqarib oldi. Obida kichik jussali, Shokir esa bo'laligina edi. U singlisini dast ko'tarib, uy tomon yurdi.

Qayda yuribsan, Shokir? dedi Obida akasining bo'ynidan qo'choqlab. Suv sovuq ekan!

Shokir xo'rliqi kelib yig'lab yubordi. Shu voqeadan so'ng u so'qir singlisiga butunlay bog'lanib qoldi. Ba'zan Obidani yetaklab maktabga olib borar, sinfdoshlari yoqimtoy ojiza qizaloqni oraga olib erkalashar, burro-burro gaplaridan zavqlanib, savol-javob qilib, har sohada suhbatlashardilar. Obida o'z atrofidagi insonlarning iliq munosabatlari va mehrlaridan juda yayrar, mehribon kishilar davrasiga talpinib turardi. Qiz sakkiz yoshga kirganda, uni shahardagi ko'zi o'jizlar maktabiga jo'natib yuborishdi. U oyda bir yoki ikki marta shanba va yakshanba kunlari qishloqqa kelib ketardi.

Obida o'n ikki yoshida shahar bilan Sho'rqishloq orasida mustaqil qatnay oladigan, gap-so'zlari bama'ni, pishiqqina qizga aylandi. Avtobusda tanigan ayollar uni bag'rlariga bosib, qo'liga qand-qurs tutqazib erkalashardi. Bir kuni otasining do'sti Pirmat quloq, avtobusda shahardan qaytayotib, Obidani o'z yoniga o'tqazib oldi. U paytlarda shahar bilan qishloq orasida bittagina eski avtobus qatnar, motoridan вЂњvoy-voy-voyвЂќ qabilida ovoz chiqarib, o'qtin-o'qtin yo'talib, eshakdek imillab yo'l bosardi.

Muncha sudraladi bu avtobus! jig'i-biyron bo'ldi Pirmat quloq. Soat nechchi bo'lidykin?

Soat o'n ikkidan yigirma besh minut o'tdi, dedi Obida oynasi ochiladigan qo'lsoatini paypaslab.

Hech-da, dedi oldingi o'rindiqda o'tirgan Sharof do'kondor o'z soatiga qarab. Soat beshta kam o'n ikki bo'ldi.

Soatingizni to'g'rilab oling, Sharof pochcha, bo'sh kelmadi qiz.

Sharof do'kondor pishillab, soatini silkitib quloq'iga tutdi.

Voy, padaringga million ming la'nat! achchiqlandi u. Yana to'xtab qolibdi-ku!

Buni soatiyam Zahrodan qo'rqadi! hoholab kuldi Pirmat quloq. Bir baqirganda o'ziyam, soatiyam to'xtab qoladi. Vah-ha-ha-ha-a-a!

Hamqishloqlar ichkuyov Sharofning ustidan miriqib kulishdi. Nozikta'b Obida burnini jiyirib, Pirmat quloqdan nariroqqa surilib o'tirib oldi.

Pirmat amaki? Bozorda mol sotdingizmi? deb so'radi.

Yo tavba! yoqa ushladi Pirmat quloq. Obish, buni sen qayerdan bilding?

Qo'yningizdagi arqonni hididan, dedi u.

Zoti toza-da! yo'lovchilarga ma'noli boqdi Pirmat quloq. Eshondada eshonni karomatlari bu! Yerni tagida ilon qimirlasa biladi-ya.

Pirmat quloq ta'sirlanib ketib, nosqovoo'ini kissasidan olib, boshini sarak-sarak qilib nos chekdi. Sezgisi kuchli Obida, nosqovoqdan taralgan hiddan burnini jiyirib, labini burib, qoshlarini chimirdi.

Shu sassiq narsani chekishdan sizga nima foyda, Pirmat amaki? deb dakki berdi u. Orqada o'tirgan Oftob xolamni sotilmay qolgan qulupnayidan yesangiz, qoningiz ko'payib, jahlingiz kam chiqadigan bo'ladi.

Hoy, so'pini xotini! orqada o'tirgan mulla Hakimning xotini Oftob xolaga ovoz berdi Pirmat quloq. Qulupnay kasod bo'ldimi?

Voy o'lay, Obida, shuniyam bilib qo'ydingmi? ajablanib yopinchio'iga o'raldi bir qo'li nogiron Oftob xola.

Obidaning bundan boshqa ajabtovur qobiliyatlari bir talay edi. Eshonlar xonadoni ta'til paytlarida, qizning beg'ubor qah-qahasidan jonlanib ketardi. Oilaning boshqa a'zolari esa o'zaro mushtlashgani-mushtlashgan. Katta o'g'il Yoqub, Shokir va Nasiba, hovlini boshlariga ko'tarib, shovqin solib urishib-talashardilar. Bular tinch turishganda Rahmon aka bilan Karima opa janjal ko'tarishardi. Nazira bilan Sulton esa endi tetapoya qila boshlagan bo'lib, ular hali janjal qilishni bilishmasdi.

* * *

Obida o'n besh yoshida o'z-gacha bir siymo kasb etgan edi. Iyagini baland, tik qomatli ojiza qizning uzun va qalin kipriklari, qaldiro'och qanotiday qayrilgan qora qoshlari oq yuziga ajoyib ko'rk bag'ishlagandi. O'spirin Obida ko'zi ko'rmasa-da, dadil va cho'rtkesar edi. U ko'zi ochiqlar yetaklab yurishini yoqtirmas, doim alyumin hassacha tutib yurar, qo'lidan ushlab aqlboshi bo'luvchilarni o'zidan nari surib:

Mingtangdan bitta hassa yaxshi, deb osmondan kelardi.

U har doimgiday shanba kuni kechqurun darvozadan kirib salom berdi. Supada o'tirishgan oila a'zolari peshvoz chiqishdi. Qiz hassachasini supaga tirab qo'ygach, hamma bilan quchoqlashib ko'rishdi.

Bizga qalanqat qani? deya so'radi u.

Qalanqat tut mevasidan tayyorlanadigan shirinlik. Karima xola taomlar qatorida oxirgi qalanqatni tovoqqa solib dasturxonga qo'ygan, oila a'zolari uni paqqos tushirib bo'lishgandi.

Boshqa narsalardan yeyaqol, qizim, dedi onasi.

Qara-ya, seni unutilib qo'yibmiz, xijolat bo'ldi Rahmon amaki.

Hechqisi yo'q, so'qir qiz iljayib, bo'shagan tovoqqa nonni surtib og'ziga soldi va o'z odatiga ko'ra mezbonlarga zahrini sochdi.

Ko'z ulashayotganda meni hatto xudo unutilib qo'ygan-u, sizlar unutsangiz nima bo'пти.

Dili vayron bo'lgan ota va ona dasturxon ustida sukutga toldilar. So'qir farzandning bu achchiq so'zlari ularning qalbiga xanjardek sanchildi. Ertasiga Rahmon amaki yakshanba bozoriga borib, so'rab-surishtirib yarim kilo qalanqat topib keldi. Obidani erkalab,

bosh-ko'zini silab, Karima xola ortidan paxtazorga ketdi. Obida supaga o'tirib olib, Sulton va Naziraga qalanqat yedira boshladi.

Nasiba kasallikka ko'p chalinganidan uni avaylab erkalatib qo'yishgandi. Erkatoy qiz tozalikka rioya qilmas, qo'l-oyog'ini yuvishga erinar, burun qoqishdan ko'ra burun tortishni osonroq ko'rib, Obidaning o'ashiga tegardi. U Sulton va Naziraning orasiga tiqilib,

yuvilmagan qo'lini tovoqqa cho'zdi. Obidaning lablari asabiy pipiradi. Singlisining qo'lga qoshiq bilan bir tushirdi.

He-e-e! burnini tortib ovozi baralla qo'yib yio'ladi Nasiba. Hoy, Obish! Nimaga menga bermayapsa-a-a-an? He-eh-e! He-e-e-e!

Sen qo'lingni yuvmagansan! tergadi uni Obida. Qo'l-oyoo'ingni yuvib, burningni tozalab qoqib kelsang beraman.

Berasa-a-an! He-e-e! Yuvmasamam berasa-a-a-an!

Oyog'ingni yuvmasang tovoning yorilib ketadi! dedi Obida qo'lini bigiz qilib.

Nasiba opasining ko'rligidan foydalanib, tovoqdagi taomga sezdirmay yana qo'l cho'zdi. ВЪЪZolimЪ Ёk so'qirning uzun kipriklari

pipirab, qoshlari chimirilib, biri so'roq, ikkinchisi undov belgiga aylandi. U sal oldinga enkayib, Nasibaning yuziga shapaloq

tortib yubordi. Supadan ag'darilib tushgan Nasiba qattiq g'azablandi. Obidaning ortiga o'tib, kuraklari orasiga bir musht tushirib

qochdi. Ko'rlar o'zlarini urgan odamni chaqong'ich hasharot va gazandalar bilan barobar ko'rishadi. O'tirgan joyida qadam

tovushlariga quloq tutgan Obida, Nasiba joylashgan joyni aniqlab olgach, qahr u g'azabga mindi. Sakrab o'rnidan turib, supaga

suyog'liq hassachasini qo'lga oldi. Oyog'iga Karima xolaning katta kovushini ilib, Nasibaning qochishga qulay yo'lini to'sib,

atrofda diqqat bilan quloq soldi.

Nasiba qo'rquvi ortib, ehtiyotkorlikni unutdi. Supa yaqinidagi dahlizga chopib kirib, eshikni ichkaridan yopib oldi. Ojiza o'olibona

jilmayib, bor kuchi bilan itarib, eshikni ochdi. Nasiba tashqariga qochmoqchi bo'lib, Obidaning yonidan emaklab o'ta boshladi.

Ammo ko'rning temir hassasi uning oriq yelkasiga qarsillab urildi. Nasiba sho'rlik jazodan qochib qutulolmadi. Oyoq-qo'llariga

besh-olti marta achchiq zarba yegach, dodlab palosga yotib oldi.

Bor, aytganimni qil! buyurdi Obida temir tayoo'ini uning boshi uzra o'ynatib.

Bir muddat hovlini boshiga ko'tarib yio'lagan Nasiba oxiri yuvina kelib, o'z ulushini oldi. Obida bir-ikki luqma shirinlikni o'z qo'li

bilan ukasiga yedirib, uning bo'ynidan quchoqlab, yuvilgan yuzidan asta o'pdi.

Mening ukajonim biram shirinki! deb qo'ydi, kiprikklarini pipiratib jilmayarkan.

He-e-e! Jinni-i-i! xo'rliqi kelib chaynalib yig'ladi Nasiba. Seni hali oyimga aytib beraman! He-e-e-e!

Ojiza qiz qalanqatdan bir luqma ham yemadi. Chamasi, unga qalanqat emas, boshqa narsa kerak edi. Kechqurun Karima opa va

Rahmon aka Nasibaning arzu dodini eshitib, qavarib chiqqan boldirini ko'rib achchig'lanishdi.

Qiz o'lmagur! javradi Karima opa. Shunchaligam urasanmi bolaginamni?

Bolaga yoshlikdan to'g'ri tarbiya berish kerak, dedi Obida pinagini buzmay. Hovlini toza tutish kerak. Bo'lmasa farishtalar uyimizga kirmay qo'yishadi.

Ola-a-a! kuldi Yoqub. Sankom siyosatni boshladilar-ku!

Sen, Yoqub! harbiy xizmatni bitirib qaytgan akasini tergadi Obida. Nos chekasan. Vino ichasan. Oyoo'ing sassiq! Paypog'ingni yuvmaysan!

Ola-a-a, xo'mraydi Yoqub. Sizni nima ishingiz bor men bilan?!

Shokir sigaret chekarkan, unga parvo qilmay hammani ayblay ketdi Obida. O'rischa uyat gaplar bilan so'kinarkan. Armiyaga borib kelsa bu ahmoq kim bo'ladi? Nasiba bo'lsa burnini qoqmaydi. Qo'lini yuvmaydi. Hamma yog'i sassiq. Naziringizdan doim

siydikni hidi keladi. Qovug'iga qo'y yog'i suring, deb o'tgan gal aytganman! Sulton jinni bo'lsa supani yoniga siyadi. Hojatxonaga bormaydi. Bu uyda tartib yo'q! Hovlini tozaroq supuring, oyi! Yuvgan kiringizdan sovunni hidi kelyapti. Shu kirni toza suv bilan

ikki emas, uch qur chayqasangiz bo'ladi-ku?!

Voy xudo! shang'illadi Karima opa bu aybnomalarga chidolmay. Qaynanamdanam bunaqa dakki yemagandim. Voy, Ozodaxon, sho'rimga sho'rva to'kilib tirilib keldingizmiB ?!

Onaginamni tinch qo'y, xotin! Tuzukmi? uning so'zini bo'ldi Rahmon aka, bitta-ikkita oq oralagan mo'ylovi va qirtishlangan iyagini silab. Obidamni hamma gapi to'g'ri. Gapi raver, qizim. Bularni bir ta'zirini berib qo'y!

Hamma ayb sizda, dada, davom etdi ko'r qiz. Janjal qilganingiz-qilgan. Buvamdan qolgan tabarruk supada vino ichaverdingiz, ichaverdingiz. Mana, Yoqub bilan Shokir ham vino ichishni o'rgandi. Karomatilla domlamiz suv boshidan loyqa, deganlar.

Iyah! Voy padaringga senday qizni! Rahmon aka fio'oni falakka chiqib, uning gapini bo'lib baqirdi. O'chir uningni! Kaltak yeysan hozir!

Qani uribam ko'ring-chi! orqa tomonidagi temir hassasini qo'liga oldi so'qir qiz. Bu uyda biror kun tinchlik yo'q. Hamma bir-biri bilan urishadi. Birortasi xudoga shukur qilib non yemaydi! Qachon shu yerga kelsam, bekorchi janjalni ustidan chiqaman!

Rahmon akaning oila a'zolari ko'r qizdan dakki yeb, bir-birlariga qarab sukutga toldilar. Uning tanbehlarini tan olishga g'ururlari, inkor etishga esa vijdonlari yo'l qo'ymadi. Ko'r qiz sog'lom odamlardek hunarboz soxtakor emasdi. U hamma ishni to'o'ri bajarib, to'g'ri so'zlab, to'g'ri yashardi. Negaki, bundan boshqacha usulda yashash tabiatida yo'q edi.

* * *

Shokir shahar internatida o'qiyotgan singlisini hammadan ko'ra ko'proq sog'inar, ba'zan Obidani birovlar urib xafa qilayotgandek tuyular, uni uyga qaytarib olib kelishlarini so'rab, ota-onasining yuragini ezardi. Obida shahardan uyga kelmay qolgan haftada yakshanba kuni xaltaga yegulik to'ldirib, undan xabar olishga borardi. Bir safar Shokir, ko'rlar maktabida o'zidan ikki yosh kichik, xo'jaqishloqlik xushsurat Olim bilan tanishdi. U ham Obidaga o'xshab tug'ma ko'r bo'lib, hatto yorug'likni ham sezmasdi. Olim tili burro g'azalxon, kuchli shashkachi, qiroatini kelishtirib Qur'on tilovat qiladigan, shirali ovozda kuylovchi iste'dodli yigit edi. Maktab hovlisidagi so'rida Olim va Obidaning suhbatlashib o'tirganlarini ko'rgan Shokir vaqti chog' bo'ldi. Olim bilan tezda til topishib oldi.

Men yaqinda harbiy xizmatga ketaman, dedi Shokir Olimga. Siz men qaytib kelguncha singlimni yomon bolalardan himoya qilib tursangiz. Obida juda yaxshi qiz.

Biz buni bilamiz, Shokir aka, dedi Olim. Siz xavotir olmang, hammamiz Obidaxonni hurmat qilamiz. U kishini xafa qilishga hech kim botinmaydi.

Gapni chertib-chertib ma'noli gapiruvchi, yasan-tusanga usta chapani Obida, ikki barmoo'ini qoshining ikki uchiga qo'yib, o'smali nilni ko'zi ochiqlardan ko'ra bejirimroq tortardi. Sezgir barmoqlari bilan xonaga qo'ngan changni darrov sezardi. Xonasidagi stol va darcha tokchalarini yaraqlatib artar, shiftdan osilib tushgan islarni supurgi uchida ilib tozalardi. Bu qizni qishloqda ham, shaharda ham o'ljim ko'ylakda ko'rishmagan. Ish-malakasi kir yuvish va dazmol bosish. Gapi mantiqsiz, og'zi buzuq bachkana yoki tili zahar kishilardan nafratlanardi. Qo'li terlaydigan, tishini yuvmaydigan, sarimsoq yeydigan kishilar o'ziga yaqinlashsa, hassasini suhbatdoshining qorniga botirib:

E-e! O'sha yerdan turib gapiraver, xudoga shukur, qulog'im kar emas, derdi.

Yorug' dunyodagi har bir inson g'arib, deb unga dashnom berardi Olim. Siz yomon odamga ozor bersangiz ham g'aribga ozor bergan bo'lasiz, Obidaxon. Bu qilg'ingizni tashlang.

Obida va Olim o'rtasidagi do'stlik uzoq yillar davom etdi. Ko'zi ojizlarning aytarli barchasi musiqa va she'riyatga ishqiboz bo'ladi. Ikkovlon goho jo'rlikda qo'shiq kuylab turardilar. Bu do'stlik bora-bora muhabbatga aylandi. Ular turmush qurib, shahardagi yotoqxonaga joylashib yashay boshladilar. Olimga tegmasdan oldin Obidaning xulq-atvori sho'rqiqlik edi. Olimning ta'sirida dimoo'dorligini tashladi. Oradan bir-ikki yil o'tgach, butunlay xo'jaqishloqcha xulq-atvoriga o'tib oldi. Karima xola aytmochi, qiz sho'rlik muloyim supurgiga aylandi. U tengdoshlariga qo'shilib, Sho'rqiqlik ko'chalarida oyoq-yalang chopmagan. G'arb va sharq tomondagi baland adirlarni, shimolda joylashgan moviy tog'larni, qishloq janubida mil-millab oqayotgan suv to'la anhorni ko'rmagan. O'rtoqlari bilan ariqlar bo'yida вЂњnon-oqizovqвЂќ o'ynamagan. Shunday bo'lsa-da, Obida Sho'rqiqlikning to'pori odamlarini, boo'-roo'larining atrini juda sevadi. O'lmagan qul niyatiga yetarmish. Mana, notavon Obida ham homilador bo'lib, farzand kutmoqda. Agar Shokirning hushi joyida bo'lsa, homilador singlisini yuqorida qayd etilgan alfozda kutib olarmidi. Obidaning unga qanchalar suyanib yashashini nahotki sadoqatli aka unutilib yuborgan bo'lsa? Ehey, odamlarga nima bo'ldi o'zi?.. Axir, singil uchun bug'doyzorni bosganga jazo yo'q deydilar.

* * *

Tug'ish arafasida ahvoli tanglashgan notavon ayol doktorning undovi bilan qishloqqa keldi. Yuragi qisib, oyog'i og'rib, shahar havosining dimligi tufayli nafasi bo'o'lib qiynaldi. Oy-kuni yaqinlashgani sari bechoraning yuragiga g'ulg'ula tushib, ota-onasidan umidvor bo'lgan edi. O'z uyiga sig'may qolganini anglagan Obida ko'ngli cho'kib, tilini tishladi. Rahmon amaki bilan Karima xola supada o'tirgan Olim va Obidaning arzu dodini tajang kayfiyatda tingladilar.

Shu ishingni qo'y desam ko'nmading, javradi Karima xola. Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga. O'zimni tashvishim ozmidi, bolam. Nazirani ro'zg'ori notinch. Nasibani ichi og'rigani-og'rigan, boshi kasaldan chiqmaydi. Shokir qarzga botdi. Bolalarimga nima bo'ldi demay, ko'chada sang'ib, buzuq xotini bilan domga borib yotib oldi. Yoqub lavoqni bo'lsa xotini eshak qilib minib yuribdi. Mashinasiga to'rtta qaynisini o'tqazib olib, ko'chamizni changitib o'tib ketadi. Darvozamizga bosh tiqib o'tishga erinadi. Unga na ota kerak, na ona. Bir qishloqda yashamasak ham mayli edi. Sultonni aytmasanmi! O'lgur ichib olib, qishloqni boshiga ko'tarib ashula aytadi. Yigirma oltiga kirdi. Haliyam uylantirolmaymiz. Bitta tinch o'tirgan bolamiz sen eding. Mana, senam o'alva orttirib kelibsan. Uff! Boshimni qayerga ursam ekan-a?

Chorasiz so'qir eru xotin, ayb ish qilib qo'ygan boladek, churq etmay o'tirishar, Obida hayajonlanib titraganda, Olim oppoq qo'lini asta siqib qo'yar, вЂњparvo qilmangвЂќ deya pichirlab, dalda berardi.

Oyijon, dedi Olim bosiqlik bilan. Hali hammasi o'z o'rniga tushib ketadi. Meni sizlardan boshqa hech kimim yo'q. To'lqin too'amning kelinlarini ko'zi yorigan. U yerga borolmaymiz. Agar o'z ota-onam hayot bo'lishganida, sizlarni bezovta qilmasdik.

Sizlarga bolani nima keragi bor edi, dedi Karima xola bir oz shashtidan tushib. Xudo deb tinchgina yashayversanglar bo'lardi-ku...

Unday demang, oyijon, xo'rsindi yuragi ezilib Obida. Bizlardanam birorta tuyoq qolsin. Dunyodan benomu nishon o'tib ketmaylik... Unday demang...

To'g'ri aytasan, qizim, deb qizini qo'lladi Rahmon amaki. Onang qarib miyasi suyilib qolgan. Xudo xohlasa hammasi yaxshi bo'ladi.

Nima? to'ng'illadi Karima xola. Siz tug'ib ko'ribsizmi?

Ko'nglim sezib turibdi. Hammasi yaxshi bo'ladi.

Ikkisini ko'zi ko'r bo'lsa, dedi choliga o'chakishib Karima xola. Bolasi o'sib-unib oyoqqa tursa, katta ko'chada yugurib qochsa, ikkisi ko'chani boshiga ko'tarib dodlab qolaveradi-da. Sizga shu kerakmi?

Oldindan fol ochib javrayverma, tuzukmi?! Balki bularni bolasiyam ko'r tug'ilar, dedi Rahmon amaki. Hali ikkita ko'rdan ko'zi ochiq bola tug'ildi-yu, katta ko'chaga qochib ketdimi! Juda mayda gapsan-da, kampir.

Ko'rlar qalbiga kampirnikidan ko'ra cholning so'zlari, oo'irroq botdi.

Shundaymikin? qayo'urib boshini egdi Obida. Men tufayli yana bitta ko'r tug'ilib, bu dunyoda paypaslanib yurarkan-da?

Karima xola Rahmon amakiga ko'zini olaytirib bosh chayqadi. Eri kiftini qisib qo'llarini yoydi.

Anavi odamni ko'ringlar! achchiqlandi Karima xola va Obidaning ko'nglini ko'targan bo'ldi. Sen parvo qilma, qizim, dadang o'ylamay so'ylaydigan bo'lib qolgan.

Darvozadan Rahmon amakining amnavachchasi mulla Hakim kirdi. U oq-qizil yuzli, uzun soqoli qorday oqargan, beli bir oz bukchaygan, lekin hassaga tayanmagan serharakat, bardam qariya. Yoshi saksonga yetib qolgan mulla Hakimning yuz-ko'zidan ilmu ma'rifatdan boxabarligi yaqqol sezilib turadi. Boshiga kuloh do'ppi, egniga oq yaktak-ishton, ko'k chopon, oyoo'iga kalish-mahsi yoki kovush kiyadi. U ohista odimlab, doim pichirlab duo o'qiydi. Qo'lidan tasbeh tushmaydi. Yalinchoq ohangda halimlik bilan so'zlaydi.

Rahmon eshon?! Hov, Rahmon eshon! deb chaqirdi u darvoza yonida to'xtab.

Labbay?! Rahmon amaki peshvoz chiqdi.

Masjidda jo'nadim. Asrni birga o'qirmiz?

Aka, dedi u bilan so'rashib xonadon sohibi. Olimjon kuyov kelganlar. Men tahorat olib chiqay. Siz ungacha bular bilan so'zlashib, choy ichib o'tiring.

Bo'pti-bo'pti, dedi u va xonadon ahli bilan iliq salomlashdi.

Karima xola ro'moli bilan yuzini to'sib, ichkari xonaga kirib ketdi. Mulla Hakim supaga o'rnashib o'tirib olgach, fотиha o'qidi.

Tuzukmisizlar, bolalarim? deb mehmonlardan hol so'radi. Olimjon, tuzukmisiz?

Rahmat, amaki, bosh egdi Olim.

Sen qalaysan, Obida qizim?

Rahmat, amaki, bosh egdi Obida. Oftob xolam yaxshimillar?

Xolangiz yuribdi Allohni panohida. Qochib qayoqqayam borardi, dedi qariya va Olimga yuzlandi. O'g'lim, bu yil nechanchi poraga yetdingiz? O'tgan safar o'n poraga yetdim degandingiz?

Hoziram o'sha-o'sha, dedi Olim. Jamiyatimizda ish ko'p. Yana sholcha to'qiydigan dastgohlarni ko'paytirdik.

Ha, ro'zg'orchilik shu-da.

Ha, kitob o'qish, Qur'on yodlashga vaqtimiz oz qolyapti, xo'rsindi Olim.

O'zingiz qancha yodladingiz?

Besh poraga yetib qoldi. Siz qanday qilib barakali yod olasiz?

Magnitafonga yozib olib yodlayman. Ustozlar qiroatini tinglayman. Quyma quloqmiz-da, amaki.

Ko'zi ojizlarga duo tekkan-da, Olimxon qori, dedi mulla Hakim. Hazrati payg'ambarimizni ko'r qorilari haqida bilasiz-a?

Abdulloh ibn Ummu Maktum, jilmaydi Olim.

Ha! U kishini otlari Abdulloh ibn Ummu Maktum, choy ho'pladi qariya. Hazrati payg'ambarimiz Makka raislarini dinga da'vat qilayotganlarida, qurayshlar orasida shu kishiyam o'tirgan ekan. Quraysh raislari payg'ambarimizga ixlos qilmabdilar. Abdulloh esa suhbatga aralashib, вЪъhoy, Muhammad, bularni qo'y, islomni menga o'rgataqolbЪќ, deb yalinaveribdi. Hazrati payg'ambarimiz alayhi salom uni xarxashasidan zerikib, yuzlarini chetga buribdilar. Shu kuni kechasi вЪъAbasavЪќ surasi nozil bo'libdi. Tong otishi bilan Rasululloh Abdullohni uylariga yo'qlab boribdilar. Uni quchoqlabdilar. вЪъEy, Allohimdan menga dakki olib bergan zot, ayting, sizga nimani o'rgatay?вЪќ deb so'rabdilar. Shu kundan e'tiboran Abdulloh, Qur'oni karimni yodlab, yoqimli ohangda bulbuldek sayraydigan bo'libdilar. Zamonasi yetib Yasribdagi ansorlarga shu qorini ustozlikka yuborishibdi. Oradan bir yil o'tgach, Hazrati payo'ambarimiz alayhi salom hijrat qilib Madinaga borsalar, Abdullohni shogirdlari bulbuligo'yodek tilovat qilayotganmishlar. Xudoi taolo bir ko'zi ojiz bandasini mana shunday aziz qilgan ekan. Agar sizlar o'ksinsangiz xato qilasizlar, bolalarim. Xudo xor bandasini bir kuni kelib albatta aziz qiladi.

Oh-oh-oh! quvondi Olim.

Omin! Iohim uvali-juvali bo'linglar! Xoru zor bo'lmanglar. Allohu akbar!

Qariyalar masjidga ketishdi. Olim, Obida va Karima xola, bir oz undan-bundan suhbatlashdilar. Olim qo'l soatining murvatini burab, oynasini ochdi. Barmoo'i bilan paypaslab vaqtni aniqladi.

Shaharga kun botmay yetib olishim kerak, dedi u. Soat to'rt bo'lyapti, Obidaxon. Xarxasha qilmay, odobli qiz bo'lib o'tiring. Men indinga kelaman.

Yo'llarda ehtiyot bo'ling, dedi Obida.

Xo'p, xo'p.

Ovqatingizni o'zingiz eplab pishira olasizmi?

Bir amallayman. Siz o'zingizni o'ylang.

Olimjon hamma bilan quyuq xayrlashdi. Karima xola bu tuo'ma basirlarning mehr-oqibatlarini ko'rib ajablendi. вЪъKo'rlarga shuncha mehrni bergan xudoga hayronman, deb o'yladi u. Nega shu mehrni ko'zi ochiq'larga bermaydi?.. Ehey, zamon aynidi, zamon. Naslu nasab aynidi...вЪќ

To'rtinchi bob. Ko'milib ketgan ilmlar

Nazarkarda Zunnur eshon bashorat qilganidek, nafaqat begonalar, o'z avlodlari ham jaholat botqog'iga botishdi. Bir zamonlar bu xonadonda, ilmu ma'rifatli Zunnur eshon, uning o'g'li Eshondada eshon, oltin suvi yuritilgan naqshinkor kitoblarni o'qishgan. Otasi va amnavachchasi mulla Hakimning ayanchli oqibatini ko'rgan Rahmonali, bu yorug' dunyoda tinchroq yashagisi kelib, ajdodlar ma'rifatidan voz kechdi. Bu xonadonda so'qir Obidadan tashqari hech kim kitob o'qimaydi. Bir qator qilib qurilgan eski va yangi

xonalarda maktab dasturiga daxldor kitoblardan boshqa kitob yo'q.

Obida bugun o'zi tug'ilgan hayhotdek hovlida tanho qoldi. Hamma o'z yumushi bilan har yoqqa tarqaldi. Karima xola, o'rtancha qizi Nasibadan ahvol olish maqsadida, Rahmon amakini yetaklab, tong sahardayoq uydan chiqib ketgan. Hammadan so'ng eshikni ustidan qulflab, Oyxon ham bozorga jo'nadi. Obida hovlida tanho qolgach, supaga to'shalgan ko'rpachaga o'tirib, ko'zi ojizlar uchun maxsus chop etilgan kitobini mutolaa qila boshladi. U bo'rtma nuqtalar zarb qilingan rangsiz va jilosiz kitobning, g'adur-budur sahifalarini paypaslab, barmog'ini bo'rtma satrlar bo'ylab yurgizar, ongida nuqtalar yig'imidan tamg'a, tamg'alar yig'imidan so'z va so'zlar to'plamidan gap hosil qilib o'qirdi.

Hovlidagi sukunatga raxna yetgach, hushyor tortgan ojiza ayolning kipriklari ketma-ket yelpindi. Kunbotish tarafdin eshitilayotgan shitirlashlarga quloq osib, nafasini ichiga yutdi. Hovli devoridan Zohida oshib tushdi. Supa ustidagi Obidani kuzatib, bir muddat devorga qapishib turdi. Ko'chadan bolalar va Olaparining shovqini eshitildi. Zohida cho'chib atrofga olazarak boqdi. Keyin oshxonaga kirib, kapgirni olib chiqdi. U oyoq uchida yurib, Obidaning yaqinidan o'ta boshladi. Obida ovqat va atir hidini tuydi. Achchiqlanib yuzlari burishdi. Bosh chayqab kitobdan barmoqlarini uzdi.

Zohida opa, kapgirni o'z o'rniga qo'ying!

Voy, xudo! deb yubordi Zohida.

Tosh yo'lakka tushgan kapgir jaranggi Adirko'chaga baralla eshitildi.

Nega bunday qilyapsiz, Zohida opa?

Men ko'rindimmi? Meni ko'ryapsizmi?

Bilasiz-ku, men yorug'likniyam ko'rmayman, opa.

Unday bo'lsa meni qanday tanidingiz? Avliyomisiz?

Yo'q, Obidaning peshonasi tirishdi. Men sizni kovushingiz tovushidan tanidim. O'tgan kungi o'tirishda atiringiz hidini eslab qolganman. Kapgirni o'rniga qo'ying.

Zohida oshxonaga kirib, kapgirni qozonga solib, qaytib chiqgach, supada bemalol o'tirib olib, tizzasiga shapatilagancha, ho'ngray boshladi.

Sharmanda bo'ldim! Meni erim urib o'ldiradi! Voy, endi bolalarim qanday bosh ko'tarib yurishadi! Voy, onajon, xarob bo'ldi-i-im!

Och qolyapsizlarmi, opa? so'radi Obida.

Yo'q, o'lar-qolar chog'imiz yo'q, Obidaxon. Voy, qandoq qilaman?..

O'g'ri bo'lib ketibsiz-da?

Yo'q, men o'g'rimasman! balandroq yig'ladi Zohida.

O'zingizni aldamang, dedi Obida. Mis lagan, paqir, qosh tergich, yarim ishlatilgan shampun... bularni o'g'irlash faqat sizni qo'lingizdan keladi. Siz ilgari piyozdoq qilayotganda doim go'sht chaynab turardingiz. O'shandayoq o'g'riligingizni bilgandim.

Salim akam sizni ko'p urarmish. Nega shunday qiladi, bilasizmi?

Yo'q... xo'rsindi hiqillab Zohida.

O'g'rilikni siz qilasiz, begunohlar gumon ostida qolib azoblanadilar. Keyin ularni qarg'ishi sizni tutadi. Jazoingizni shunaqa qilib eringiz beradi, opa.

Obidaxon, yorbordi Zohida. Iltimos, hech kimga aytmang! Rahmingiz kelsin. Ikki bolamni yetim qilmang! Erim meni urib o'ldiradi.

Mayli, dedi Obida. O'g'irlagan narsalaringizni o'rniga chiqarib qo'ying. Boshqa o'g'rilik qilmang. Kelishdikmi?

Kelishdik, rozi bo'ldi o'g'ri qo'shni. Hamma narsanglarni qaytarib beraman.

Nogoh darvoza taraqlab ochildi. Bozor xaltalarni ko'tarib, qora terga botgan Oyxon kirib keldi. Supaga xaltalarni qo'ydi.

Iya?! peshona terini artdi Oyxon. Ha, keling, qo'shni?

Men... haligi... taysalladi Zohida. Qo'shnim zerikmasin deb, devordan oshib tushdim.

Obidaxon hech zerikmaydigan qiz edi-ku?

Men o'zim opamlarni chaqirtirib oldim, yanga, o'o'rini himoya qildi Obida.

Xo'p bo'lmasa, tisarildi Zohida. Men uyimga chiqa qolay.

Eshikdan chiqib ketavering-da, qo'shni, dedi Oyxon yo'l ko'rsatib.

Ha-ya!

Zohida soxta ko'tarinkilik bilan, ko'zlari ola-kula bo'lib, darvoza orqali ko'chaga chiqib ketdi. Oyxon supada o'tirib yelpindi.

Obida Oyxon yaqiniga kelib o'rnashdi.

Zohidaga juda qiyin-da, achindi Oyxon. Eri ko'p uradi bechorani.

Bir gunohi bordirki, jazolayotgandir, dedi Obida va jiddiy ohangda so'radi: Nima bo'lyapti o'zi sizlarga, yanga?

Oyxon hasrat kitobini ochdi.

Akangiz qarzga botib qoldilar. Anavi Mahliyo tufayli maishatga berilib, dastmoyalaridan ayrildilar. Rossiyaga yuborilgan mevalar yo'lda chirib ketdi. Nasiyaga olingan mevalar haqini to'lash uchun bor narsamizni sotdik. Mashinalarimiz ham arzon-garovga ketdi. Sigirdan, qo'y-echkilardan ayrildik. Akangizni sheriklari pul qistab kelishsa, hovliniyam sotsak kerak.

Sulton-chi?... g'amga botdi Obida.

Uff... yana javray boshladi Oyxon. Hamma ayb mana shu Sultonda. U Rossiyaga mashinalarni boshlab ketgandi. Yo'lda savdogarlarni milisalar, har xil yomon odamlar to'xtatib, pul talab qilisharkan. Ular aytgan pulni to'lash kerak ekan. Shunda mashinalar manzilga o'z vaqtida yetib borarkan. Sulton pulni qizo'anib, yo'lto'sarlarga kam to'labdi.

Yoqub akam buni biladimi? so'radi yuragi ezilib ojiza.

Be, xo'rsindi Oyxon. Yoqub akamni ovsinim eshak qilib minib olgan. Bu yerga o't tushsa teshik paqiriniyam bermaydi. Yoqub akamda mehrdan asar yo'q. Mahliyodan umidimiz bor. U pulimizni yarmini qaytarsayam mayli edi.

Darvozadan qizarib-bo'zarib Zohida qaytib kirdi.

Voy, qo'shniyonlar, dedi u zo'raki kulib. Nega meni adashtirasizlar? Axir eshigim ichidan yopiq edi-ku? Voy, Oyxon!..

Voy, qo'shni?! kaftini qisdi Oyxon. Sizni eshigingiz ichidan berkligini men qayerdan bilay?

Zohida bir amallab paxsa devorga chiqdi. O'z hovlisi tomon qulab tushib, dodlagan ovozi eshitildi. Oyxon xavotir olib devor yoniga borib chaqirdi.

Hoy qo'shni? Tuzukmisiz ishqilib?

Rahmat! inqilladi Zohida. Sog'man! Rahmat!
Zohidaning ovozi o'chdi.
Obida yana xonadon mushkulotini eslab g'amga botdi.
Jiyanlarim qachon kelishadi, yanga?
Biror soatda kelib qolishar, dedi Oyxon.
Iltimos, meni qishloqda aylantirib kelishsin.
Jon deb aylantirib kelishadi. O'zlarियam sizni juda sog'inishgan.

Obida shu kuni tug'ilib o'sgan qishlog'ida miriqib sayr qildi. Akasi Shokir haqida ko'p o'yladi. Sho'rqishloq zaminida asosan paxta, bog'dorchilik va poliz mahsulotlari yetishtiriladi. Shokir poliz va bog' mahsulotlarini Kamaz mashinasiga yuklab, Rossiya bozorlariga olib borib sotardi. Qovun-tarvuz, uzum, olma, shaftoli, olu, o'rik va xurmo mevalaridan ko'p foyda ko'rgan. Ilgari barcha ishni Obida bilan bamaslahat qilardi. Obidaning o'aroyib qobiliyati bor. U suhbatni tinglab o'tirib, bir zumda oqilona yechim chiqara oladi. Agar u, bu ishdan yoki mana bu kishidan yaxshilik chiqmaydi desa, albatta aytgani bo'lardi. Ilgari Obida va Olim Shokirning xolis maslahatchilari edilar. Keyinchalik Mahliyo boshini aylantirib, ulardan deyarli uzilishib ketdi. Shokir ko'cha ko'rgan yigit bo'lgani bilan odamlarning yaxshi-yomonini ko'p ham farqlay olmaydi. Shokirning uch qizi Obidani yetaklab, Sutbuloq ona mozoratiga bordilar. Obida avliyo ona qabriga bao'ishlab qur'on tilovat qildi. O'z oilasiga xudodan omonlik tiladi. Akasi Shokirga omad tilaganda so'qir ko'zlaridan yosh keldi. Obida homilador bo'lsa-da, noshud xotinlardan farq qilardi. Uning tik qomati, keng tikilgan kuylagi, turmaklangan qora sochlari, boshidagi oq ro'moli, oq-qizil yuzi, qaldiro'och qanotiday qoshlari, har qanday ko'zni o'ziga tortardi. U zamin uzra yengil odimlab borar, guyo afsonaviy Sutbuloq ona tirilib kelgandek, izlariga maysalar salom berishar, shabada erkalar va sochlarini o'ynardilar. Ular aylanma so'qmoq orqali adirdagi katta qabristonga borishdi. Eshon buvaning qabri yaqinida o'sgan tut daraxti soyasidagi so'riga o'tirishdi. Qizlar atrofdagi qablardan qo'rqib shumshayib qolishdi. Obida yana qur'on tilovat qilib, marhumlarga bag'ishladi.

Amma, men qo'rqapman, dedi yuragi uvishib Shokirning o'rtancha qizi.

Bu yerda katta buvalarimiz yotishibdi, dedi Obida. Ulardan qo'rqsang xafa bo'ladilar. Ular dadangni, buvang bilan buvingni, meni yaxshi ko'rishgan.

Ular qayerda? so'radi katta jiyani Shahzoda.

Qorasoch buvimlarni qabrlari anavi, dedi Obida tutni ushlab qarshisiga ishora qilib. Ro'paramizdagisi Zunnur eshon buvamlarniki. Ularni ortida ikkita qabr bor. Bular Eshondada buvam bilan Ozodaxon buvimni qabrlari. Men Eshondada buvamlarni eslayman. U kishi to'rt yoshimda o'lganlar. Ozoda buvimlar esa men maktabga ketganimdan so'ng o'lganlar. Ular meni juda yaxshi ko'rishardi.

Shokirning qizlari qablarga boqib, o'yga cho'mdilar.

To'rt yoshingiz esingizdami, amma? so'radi o'rtancha Ozoda.

Nega esimda bo'lmasin, hammasi esimda, dedi Obida jilmayib. Dadang meni to'rt yoshimda katta ariqqa cho'kayotganimda qutqarib qolgan. Buyam kechagiday esimda. So'rab ko'r-chi, dadangniyam esida bormikin.

Eslarida yo'q, dedi kenjatoy O'g'iloy. Dadamni kallalari yaxshi ishlamaydi. Hamma narsa eslaridan chiqib qoladi. Har kuni ertalab paypoqlarini topolmay oyimni urishadilar.

Ziyoratchilar kechga tomon uyga qaytishdi. Qizlar ko'hna qablarda yotgan bobolari va momolari haqida o'y surib borar, Rahmon amaki va Karima xolaga o'xshagan, ulardan ham qariroq erkak va ayollar siymosini tasavvur qilib, orzu-armonlarga to'la olamga boqib, entikib-entikib qo'yardilar. Qiziq, dunyodan o'tib ketishgan o'sha ota-bobolar qanday bo'lishgan ekan-a?

Yuz yillar muqaddam Sho'rqishloq hayoti mutlaqo bo'lakcha edi. Bir umr ro'za tutgan Zunnur eshonning oq yuzidan nur yog'ilib, surma tortgandek qora ko'zlari jilvalanib turardi. U ko'rinish berganda qishloq ahli egilib-bukilib istiqboliga peshvoz chiqib, oppoq va mayin qo'lini ko'zlariga surtardi. Eshon qishloqdagi har bir odamni nomma-nom tanirdi. Har birini ismini aytib murojaat qilar, har biriga tegishli pandu nasihat berardi. Mushkul muammolarni yechib, janjallashgan tomonlarni osongina yarastirardi. Uning oo'zidan chiqqan kalomlar, ilohiy bashorat kabi zuhurga kelib, ixlosmandlarni lolu hayron qilardi. Ular so'lim boo'idagi toshsupada o'tirib, dam soldirib, duosini olib ketardilar.

OktabrCHB inqilobidan bir yil avval, eshonning supasida, yigirma kishiga yaqin jamoat jamlandi. Sho'rqishloqning keksayib qolgan Horunboy, o'rta yoshli Nurmuhammadboy, Otaxonboy va Saidazimboy kabi boylari tashrif buyurib, Zunnur eshon ilhomlanib sharhlagan oyatu hadislarni maroqlanib tingladilar. Shu kuni u aytgan so'zlar kelajakdan bashorat ekanini hech kim sezmay qoldi.

Noqis aqlimizni ishlatib atrofga boqsak, bandaning qo'lida hech narsa yo'q ekan, dedi u mudroq ohangda. Olamga to'ymagan ko'zlarimiz, jon qushi tanamizni tark etgach, Allohning mulkida qolib ketarkan.

Haq, haq, taqsir, deb bosh egib qo'yishdi tinglovchilar.

Eshon ma'yuslanib so'zida davom etdi:

Bu dunyoga etak silkib o'tdik. Ammo undan uzilishib ketolmadik. Janobi Haq diydoriga yetolmadik. Kecha g'arib quli вЪъMuftohul jinon, misbohul iymonвЪќ kitobining qiyomat sahifalarini ochdi. Hazrati Rasululloh marhamat qilibdilar: Qiyomat oldida, olimlardan ilmiga amal, boylardan saxovat, amaldorlardan qonunga itoat, gadolardan qanoat, avomdan sharmu hayo ketur. Shu aytilgan belgilarni o'z yurtida ko'rib, g'aribning yuragini vahmi qiyomat larzaga soldi. G'arib chor tomonga boqib ko'rsa, obidlaru olimlarning ko'zlari so'qir bo'lib, el boshiga baloyu qazolar bosib kelayotgan emish. Ilohim mehribon Alloh bu jafokash elni o'z panohida asrasin.

Eshonning shogirdlari, ixlosmand boylar, o'zga yurtlardan kelgan darvishlar:

Omin! Aytganingiz kelsin, pirim! deya xitoblar qildilar.

Biringiz boy, biringiz darvish, dedi to'rda o'tirgan eshon ommaga yuzlanib. Biringiz amaldor, biringiz tobe. Biringiz shoyi kimxob kiyibsiz, biringiz namat. Birovda ilm bor, birovda oltin. So'raguvchilar so'radilar: kimda mas'uliyat katta? Kim xudoga yaqinroq? Javob qildilarkim: hammada mas'uliyat katta, hamma Allohga yaqin. Alloh kimga nazar solsa, o'sha bandasini o'zining

yuz ismi sifatidan biriga monand qilib qo'yadi. Alloh mo'min edi, nazariga sazovor bo'lgan bandasi mo'min bo'lib, imyon topdi.

Qulluq, pirim, tasanno, pirim, egilishdi darvishlar.

Alloh olim edi, nazari tushgan bandasini olim qildi, davom etdi eshon. Unga o'z ilmidan bir hissai omonat berdikim, bandam ilmimni elga tarqatsin deb. Ammo o'ofil olim bu ilmni qizo'anib, o'zgaga ravo ko'rmadi. Qiyomat kuni uning oo'ziga erigan qo'rg'oshin quyiladi.

Oh, astag'furulloh, bosh egishdi darvishlar.

Alloh boy edi, nazari tushgan bandasini boy qildi, odatiga yarasha qiroat ila so'zladi eshon. Nazarkardalarning mas'uliyatlari, nasibalariga yarasha kattadir. Qiyomat kuni haq tarozisi tortilganda, Alloh jalla jalol so'radi: в ЁњЕу, bandam, boy edim, boyligimni senga omonat topshirgandim, shuni qanday tasarruf qilding? Uying to'la buo'doy edi, nega yurtningda och qolgan bandalarim mendan norizo bo'lib nolai zor qildilar? Men ro'yi zaminga tushirgan boylik bisyor bo'la turib, nega bandalarim qashshoq yashadilar, uylanmay-joylanmay o'tdilar? Huzurimda kim degan odam bo'lding? Meni yerdagi soyam bo'lasan deb, zimmangga yuklagan vazifamni a'lo o'taysan deb, senga nazar solgandim. Omi bandalarim ustidan seni mas'ul qilgandim.в Ёќ O, hasrato alhamdullilloh, o, hasrato, ko'zlariga yosh qalqib, boshlarini egishdi sho'rqishloqlik boylar.

Dilingizda ilm bo'lsa kimga bermak kerak? o'zi so'rab o'zi javob berdi u. Tolibi ilmga bermak kerak. Qo'lingizda non bo'lsa kimga bermak kerak? Ochu yalano'ochga, miskinu musofirga bermak kerak. Ishqu muhabbatni mehribon Allohga, bo'sh vaqtni ilmu hikmat va toat-ibodatga, hurmatu ehtirotni ota-onaga, ta'lim-tarbiya ila mehrni farzandga, kuch-quvvatni halol mehnatga, Haq farmoni ila yetib kelsa, shirin jonni Malikul Mavtga bermak kerak. G'arib o'ylab ko'rsa, biz bandalar, o'z tasarrufimizdagi har bir narsani o'z egasiga yetkazib berguchi bir dastyor ekanmiz. Dastyorlikda xatoga yo'l qo'ysak, Ulug' Podshoh Alloh bizni jazoyu sazoga griftor qilar ekan. Ertaga bul janobi Aziz haqdor bergan omonatlarini tortib olmasa edi, dargohidan quvib solib, sharmandai sharmisor qilmasa edi, deb bandasi qo'rquv iztirobiga tushdi.

Yashang, pirim! Haq aytdingiz, pirim! nido qildi muridlar.

Kelinglar, bir duo qilaylik, deya fotihaga qo'l ochdi eshon. Iloho omin!

Omin, fotihaga qo'l ochdi jamoat.

Iymoni muhammadiy ila barchamiz o'afatdin uyo'onaylik. Ilmimiz ila el ko'zini ochaylik, molu davlatimiz ila elni o'z bolamizdek parvarishlaylik. Haqiqat qilaylik, adolat qilaylik. Janobi Odil, Janobi Haq qilgan gunohlarimizni kechirsin. Istiqbolda biz o'arib qullarni kutib turgan balolar boshimizdan arisin! Alloh jalla jalol mehru shafqatini bizlardan dario' tutmasin. Omin Allohu Akbar! Omii-i-in!!

* * *

Ammo eshonning duolari ijobat bo'lmadi. Oradan yillar o'tdi. El xudoning qahriga uchrab, dunyo isyonu tug'yon alangasi ichida qoldi. Jahannamning qopqalari ochilib, otash ajdarlari o'z o'ljalarini kutib, oo'izlarini katta ochdilar. Ma'rifatli Zunnur eshon xonadoni tokchalarini to'ldirgan ko'hna kitoblarning aksariyati hattotlar tomonidan ko'chirilgan bo'lib, ba'zilar uch yuz yil avvalgi kitoblar edi. Toshkent va Qozonda bosib chiqarilgan bosma kitoblarning qog'ozlari qalin bo'lib, bu nashrlar Sankt Peterburgda nazoratdan o'tkazilgach, bosishga ruhsat etilgandi. Hajmi, yozilish uslubiyati, qog'oz va siyohlari har xil, zarmuqovalari kitoblarni Zunnur eshon juda avaylab saqlardi. Kitobga nisbatan behurmat kishilarni yoqtirmasdi. Mutolaadan avval tahorat qilib, chordana qurib, lavh taxtasiga kitobni qo'yib, xatcho'plarni saralab, tegishli varaqni ochardi. Biron yumushi chiqib qolsa, albatta kitobni yopar, o'z o'rniga joylashtirar, aslo ochiq holda qoldirmasdi.

Bir nuqta birla ko'zni ko'r qilurlar, bolalarim, derdi u.

Bu hikmatli so'zlar zamirida ikki xil ma'no bor edi. Arab imlosida в ЁњЕу Ёќ va в ЁњЕу Ёќ harflari bir xil ko'rinishda bo'lib, в ЁњЕу Ёќ ustida nuqtasi bor. Agar в Ёњко'зв Ёќ so'zida nuqta tushirib qoldirilsa в Ёњко'зв Ёќ so'zi в Ёњко'рв Ёќ so'ziga aylanib qoladi. Ochiq qolgan kitob sahifasiga mabodo pashsha qo'nsa, nuqtali va nuqtasiz harflar ustiga, qo'shimcha nuqta-dog'lar tushib qoladi. Oqibatda mutolaa qiyinlashib, kitobxon в Ёњко'zi ko'рв Ёќ bo'ladi...

Sho'roviy faollar ma'rifatli xalq ko'zini ko'r qilishni bosh maqsad qilib oldilar. Arab alifbosida bitilgan barcha kitob ular ko'ziga diniy qurol bo'lib ko'rinardi. Faollar xonadonma-xonadon yurib, barcha kitoblarni xalq qo'lidan tortib ola boshladilar.

Bir bexosiyat kunda Zunnur eshon hovlisiga, ikki yigit bilan yigirma besh yoshli firqa faoli Safar Nug'monov kirib keldi. U kezlarda birorta sho'rqishloqlik erkak soch qo'yib, soqol qirdirmasdi. Uzun sochini orqaga tarab, soqol-mo'ylovini qirtishlab, gimnastyorka kiyib yuruvchi oq yuzli xushsurat Nug'monov, g'oyat iste'dodli bo'lib, o'n sakkiz yoshigacha diniy madrasada tahsil olgan, keyin Rossiyada rus tilini o'zlashtirgan otashin kommunist edi. Nug'monov eshiklarni yaltiroq etigi bilan tepib ochib, hujradagi kitob solingan sandiqni ag'darishga buyurdi. So'ngra u kitoblarni muqovasiga ko'z yugurtirib, saralab ikki bo'lakka ajratdi. Ajratib olingan kitoblar qoplariga solindi. Sakson yoshli Zunnur eshon somon-suvoq qilingan tosh supasida o'tirar, bu g'aroyib qaroqchilarning harakatlarini hayratga cho'mib kuzatardi.

Bu kitoblarni ne qilmoqchisiz, azizlarim? deb so'radi u.

Gulxanga tashlaymiz! do'rillagan ovozda javob qildi Nuo'monov, qora sochlarini ortga silab. Shunda mehnatkash xalq afyun balosidan qutiladi.

Afyun la'natga giriftor bo'lgan ko'knordan binoga kelmish, dedi kuyinib Zunnur eshon. Zahmatkash ilm ahlining mehnatu mashaqqati ila afyun orasidagi farqni ko'rmayotirsizmi?

Bu kitoblar xalq ko'zini ko'r qilg'uvchi g'aflat! dedi papiros tutatib Nug'monov.

Xalq ko'zini savodsizlik ila kitobga behurmatlik ko'r qilar, deya afsuslanib bosh chayqadi Zunnur eshon.

Chego ti' ponimayeshCH, temnota.

Nug'monov eshonga qo'l siltab, yigitlarga ishora qildi. Faollar ikki qop kitobni orqalab xonadonni tark etdilar. Bo'shab qolgan sandig'iga boqqan Zunnur eshon, katta oq sallasini boshiga o'rab, oq chakmonini yelkasiga ilib, в Ёњасoi Musov Ёќ yoo'ochidan yasalgan hassasini bir qo'lga, muborak haj safarida Makkadan olib kelgan tasbehini ikkinchi qo'lga olib, faollar ortidan guzar tomon shoshildi. Yoshi o'ttizdan o'tgan Eshondada, o'z otasidan xavfsirab, boshiga kuloh do'ppisini apil-tapil kiyib, uning ortidan ketdi.

Guzarda qishloqning kattayu-kichigi to'plangan, o'rtada katta gulxan yonib turar, gimnastyorka kiyib, qizil nishon taqqan, yigirma-o'ttiz yoshlar orasidagi navqiron faollar, oltita o'spirin yigit va miltiq to'rt askar eski choyxona ayvoniga joylashgandilar.

Nug'monov diniy kitoblarni qoralab uzoq gapirdi. Notiq so'zi tugagach, o'ndan ortiq qopdagi kitoblar yerga ag'darildi va gulxanga tashlandi. Ulamolar ko'ziga surtib o'qigan mushaf, hadislar, ilm-ma'rifat durdonalari gurillab yona boshladi.

Zunnur eshon ahvolni ko'rgach, vujudi muzlab, peshonasidan sovuq ter chiqdi.

To'xtanglar, musulmonlar! To'xtanglar! bor ovozdah baqirdi dahshatga tushgan eshon. Aqlingizni yig'ing!

Otajon! uni bilagidan tutib ortga tortdi Eshondada. Boshingizga balo chaqirmang!

Ey, farzand?! umrida birinchi marotaba g'azablangan ko'zlarini o'g'liga tikdi Sho'rqishloqning so'nggi avliyosi. Bu ne harakatkim, otangiz bilagini qayirmoqni ixtiyor etibsiz?!

G'ofil farzand ota nigohidagi g'alati bir begona uchqunni ko'rdi. Tunu kun shu farzand baxtu iqbolini so'rab fotihaga ochiluvchi qo'llar qayrilib, barcha duolar kunpayakun bo'ldi. U ota duosidan ayrilganini his etdi.

Avf eting, qiblagohim! Avf eting!

Zunnur eshonning soyasiga salom beruvchi xalq qo'l qovushtirib, tavoze ila tisarilib yo'l ochdi. Zunnur eshon choyxona ayvoni yoniga borib, xaloyiq tomon burilib, o'ziga yarashmagan notanish bir ohangda xitob qildi:

Hoy, musulmonlar! To'xtating bu gumrohlikni! Shu aziz kitoblar sharofatidan rizqingiz butun, xonadoningiz tinch, dil oynangiz musaffo edi. Nega ilmga o't qo'ymoqdasiz?! Ilmsiz yashasangiz ko'ngil ko'z'laringiz ko'r bo'lib, dil bog'ingiz dashtu biyobonga aylanadi! Ogoh bo'ling, ey, xaloyiq, boshingizga balo-qazolar kelyapti!

Rangi gezargan basavlat Boymurod Muxtorov, firqa faollari orasidan ajralib chiqib, ayvon zinasi orqali pastga tushdi. Zunnur eshonga yaqinlashib, qisiq ko'zlari sovuq yiltirab, uning muborak yuziga bir shapaloq tushirdi. Sho'rqishloq ahli buni ko'rib oh urdi. Cho'tir yuzli ko'rimsiz yigit Hakim Ernazarov, o'ris birodariga qarab bosh chayqadi.

Boymurod oshirib yubordi, Maksim, deb o'azablendi tugulgan mushtlari qaltirab. Bunday aziz kishilarga qo'l ko'tarish yaxshi emas.

Nimayam qilardik, kaftini qisdi mallasoch Parfyonov. Kurash ketyapti, Hakim.

Guzarga zo'rlab haydab keltirilgan ayollar paranji ichida uv solib yig'ladilar. Yoshi saksondan o'tgan nuroniy eshon, rangi sovuq mo'ylovli yigitga hazin boqib, so'zlashdan to'xtab qoldi.

Hoy, xurofotchi ruhoniylar! dedi Muxtorov. To'xtat teskari tashviqotni! Hoziroq bu yerdan yo'qol!

Ha, attang! gulxanda yonayotgan kitoblarga achinib termuldi eshon. Guldek yigit ekansan-u, bu to'tiyolarni tanimading. O'zing ko'r bo'lding! Elu yurtni ko'r qilding! Olimlarni ko'r qilding! Obidlarni ko'r qilding! Iloyo, shu aziz kitoblarni uvoliga uchragin!

Naslu nasabing yer yuzida o'rmalamasin! O'zing qashqirlarga yem bo'lgin! Dodingga yetguchi bir zot topilmasin! Allohu Akbar! Zunnur eshon qaddini bukib uyiga qaytdi.

* * *

U joynamozdan bosh ko'tarmay, supa ustida uzoq ibodat qildi. Ixlosmandlari hovliga to'planishdi. Daloilxonlar yoqilgan вЂњDaloilul xayrotвЂќ kitoblaridan вЂњAsmail-husnavвЂќ va вЂњQasidai burdavвЂќ bobini o'qidilar. Eshon yengil tortib, davraga qo'shildi. Ko'zlardan oqayotgan yoshlarni ko'rib:

Yig'lamangiz! deb farmon berdi. Payg'ambar alayhi salom sunnatiga erishgan ustozingiz o'z qismatidan rozi. Siz nechun isyonu tug'yonga botmoqdasiz?

Pirimizga qo'l ko'tarsalar qandoq chidaylik? dedi bir qalandar. Siz loyiq topsangiz boshini uzib kelib, oyog'ingiz ostiga tashlayman.

Hojatsiz amalga qo'lingizni bulg'amangiz, rad etdi eshon. Biz sizlarni cho'chqa so'yarsiz degan umidda ilmu ma'rifatga olib kirganmidik? Biz ul badkirdorni qashqirlar hukmiga topshirdik.

Ulug' yoshingizni hurmat qilsalar bo'lardi, o'kindi eshonning kuyovi Abdulhofiz.

Ming yoshli Nuh payg'ambari urgan kofir sakson yoshli qariyani ayab qo'yarmidi, farzand, dedi u og'ir xo'rsinib.

Alhamdulillah, o'zingga shukur, Allohim.

Nima sababdan bu balolar boshimizga keldi, pirim? so'radi eshonning asrandi o'g'li Sadridin qipchoq mo'ltirab.

Allohni qahriga uchradi, farzand, ellik yil muqaddam bo'lib o'tgan sho'ri savdolarni xotirlab o'kindi Zunnur eshon. Yurtimizda fisqu fujur, zinoyu kufr, bedodlik, beshafqatlik ko'paydi. Boylardan saxovat, kambag'allardan sabru toqat ketdi. Podshohlardan kuch-qudrat ketib, hammasi yog'iyga qul bo'ldi. Oxir-oqibat shu kunlarga duchor bo'ldik. Barcha balolarga biz aybdormiz. Biz...

Bularga siz aybdor emassiz, pirim, o'kirib yig'lab yubordi Sadridin. Alloh shohid, siz azizlarning azizisiz

Hamma balolarga shu dong'i ketgan eshon otangiz aybdor, farzand, og'ir xo'rsindi Zunnur eshon. Bahouddin balogardon aytibdurlarkim, gar yurtga balo kelsa, u shohni emas, darveshning xatosi bo'ladi. Qutblikka da'vo qildik. Lekin qutblarda tizgin, qamchi bo'lishini esdan chiqardik. Bu shoh emas, darveshning xatosi. Bu xatkor o'ofil sizni ko'zyoshlaringizga arzimaydi! Agar biz dunyo moliga qaramaganimizda, duolarimizni to'g'ri o'qiganimizda, bu falokatlar yuz bermagan bo'lardi. Unutmanglar, avliyolarning duolari chala bo'lsa, elu yurt boshiga balo keladi. Biz qilgan xatolar evaziga, elni jabru sitam, ochligu horlik o'z girdobiga oladi. El podshohlari qul, malikalari cho'riga aylanadi! Avom xalq tubanlashib, jaholat botqoo'iga botadi! Hammasiga biz aybdor. Ko'zlarimiz ko'r ekan. Qilgan gunohlarimizga tavba qildik. Tavba qildik...

O'z qavmidan shapaloq yeb ko'ngli cho'kkan Zunnur eshon, xafalik va iztirob iskanjasida, bir yarim oy supada yotib, ramazonning mafirat qismida, namozi juma kuni og'zida kalimahi shahodat bilan boqiy dunyoga qaytdi.

Beshinchi bob. Telba dunyo

Taqdirni qarangi, 1981 yilda Qobil frontchining yakkayu yolg'iz yetim o'g'li Salimni Afg'on urushiga olib ketishdi. Yetimcha Salim darvozasiga kalladay qulf osildi. Salim bolaligida urush-urush o'ynashni yaxshi ko'rar, yog'och miltiqni yelkasiga taqib, har kuni Yoqub bilan Shokirning oldiga chiqar, Rahmon amaki uni quvib solmaguncha tirg'ilaverardi. Farishta omin degan ekan, armiyaga borib boq bo'yniga avtomat osib, bir oydan so'ng o'zini Afg'oniston zaminidagi Qandahorda ko'rdi. Salim yoshligida otasi va Xoldor muallimning zulmi tufayli hurkak bo'lib qolgan, biror narsa behos qarsillab ketsa ham sapchib tushardi. U kinolarda ko'rgan avtomatga ham yetishdi. O'sha savilni ikki yil ko'tarib yurib, qilgan orzulariga pushaymon bo'ldi. Birin-ketin o'qqa uchib, temir tobutga joylanayotgan safdoshlari ahvolini ko'rib, yuragida o'lim vahmi paydo bo'ldi. O'sha nohaq urush davomida, o'z oyoo'i bilan ketgan sho'rqishloqlik yigirmaga yaqin yigit, uyiga temir tobutda qaytdi.

Bechora Qaynazar qirg'izni katta nevarasi Afg'onistonda o'libdi! afsuslanadi choyxonada o'tirgan bir qariya. Bolasi tushmagur birovga yomonligi yo'q, to'g'rigina bola edi. Salom berishdan nariga o'tmasdi. Dunyoga kelib nima ko'rdi? Qo'y ortida yurib umri o'tdi-da sho'rlikni!

Jannati bola edi, joyi jannatda bo'lsin! deb fotiha o'qishadi choyxo'rlar.

Oradan bir oz o'tgach yana yangi shumxabar tarqaladi.

Eshitdinglarmi? deyishadi sho'rqishloqliklar. Anavi to'yga chaqiradigan Nortoji chinqiroqni o'g'liyam urushda o'libdi. Temir qutida olib kelishibdi. ВѢQutini ochmaysan, ВѢk deb harbiylar janjal qilishibdi.

Voy, sho'rlik! hamqishloqlar achinib bosh chayqaydilar. Jigarporasi diydorini oxirgi bor bir martagina ko'rib olsa nima bo'пти? Ochishavermaydimi?

Parchayu reza bo'lib ketganmish-u, nimasini ko'radi!

Shu chog'larda Salim afg'onlar yashaydigan qishloq yaqiniga o'nashgan harbiy qismda xizmat qilardi. Rus, belorus, qirg'izu qozoq, o'zbeku tojiklardan iborat bu harbiy qism askarlari, qishloqni dushmanlardan qo'riqlab, pistirma okoplarda tog' tomonni nishonga olib turardilar. ВѢRuhlar ВѢk deb ataluvchi dushmanning qachon va qayerdan hujum boshlashi noma'lum edi. Kunduzi atrof tinch-osoyshta, tunlari esa uzuq-yuluq o'q ovozi yangrar, sho'ro askarlari tahlikada chor tarafga behuda o'q otarlardilar.

Iloyo otganim ularga tegmasin, ularni otganiki menga tegmasin! Omin! okopda yotib osmonga qarata tarillatib o'q uzib nola qilardi Salim. Voy, beminnat Sho'rqishlog'im qaydasa-a-a-an!

Afg'onlar sho'ro askarlarini barcha qurollar bilan mavh etishga urinardilar. Ular bu yo'lda asosan qora dori va ВѢchars ВѢk deb ataluvchi nashani ayamasdilar. Okop va chodirlarda zerikib o'tiradigan askarlar bekorchilikda shu zaharni iste'mol qilishga o'rgandilar. Afg'on bolalari arziyas mayda-chuydalar va hatto bo'sh gilzalar evaziga harbiylarga nasha tashlab ketardilar. Afyun iste'mol qilgan askarlar, hush-behush ahvolda, karaxt pashshalarday g'o'ng'irlashib kunni kech qilardilar.

Bir kuni dushmanlar hujumi boshlandi. Sho'ro askarlari chekindilar. Qoradori yeb okopda qotib uxlab yotgan Salim uyg'onib, o'rnidan turib kerishib, bir amallab o'ziga keldi. Kayfi tarqamagani sababli ko'zlari xira, qulog'i bitgan va tanasi vazmin edi. U atrofga alanglab, hech kimni topolmadi. Boshini ko'tarib yuqoriga qaradi-yu, esnashga ochilgan og'zi ochiq alfozda qotib qoldi. Okop yonidagi tepalikda uzun soqolli bir mujohid qurol o'q'talib turardi.

Assalomu alaykum, Salim sho'rqishloqcha tavoze ila qo'lini ko'ksiga qo'yib okopdan chiqdi. Biznikilar qayerga ketishdi, aka? Javob o'rniga ketiga tepki yegan Salim mujohidning amriga binoan ikki qo'lini boshiga qo'yib yo'lga tushdi. Sergap Salim afo'on yigitini gapga solib, ko'nglini yumshatishga urindi. U har safar so'z boshlaganda, zolim yigit baqanikiday baqraygan ko'zlarini chaqchaytirib, etigi bilan ketiga ayamay tepardi. Sho'rlik Salim yarim kun davomida ketma-ket tepki yeb yo'l bosdi. Urdu zabon mujohid turkiy tildan bexabar ekan. Asir Salim horib-tolib, too' orasidagi mujohidlar qarorgohiga yetib keldi. Qishloqda o'sib yotgan ko'knor va nashalarni ko'rib, aftini burushtirib ming'irladi.

Ha o'sha seni ekkaniyam, chekkaniyam padariga la'nat!

Salim afg'on yerlarida biror-bir ekinzorni uchratmadi. Qayoqqa qaramasin, ko'knor yoki nashani ko'rди. Afg'onlar paxtazori ham, bug'doyzori ham shu emish. Salimni bir tomoni ochiq katta chodirga olib kirdilar. Chodirda yigirma chog'li uzunsoqol mujohid o'tirishgandi. Ular asirga boshdan-oyoq razm solishdi. Sayid ismli o'zbek tilini biladigan bir yigit Salimni so'roq qila boshladi.

Mujohidlarni otganmisan, sho'raviy?

O'zbek tilini tushunuvchi kishi topilganidan boshi osmonga yetgan Salim dam bo'lib yorilayozgan qornini bo'shatib, bulbuligo'yodek sayray ketdi. Bunchalik ko'p va tushunarsiz so'zlardan iborat izhoru iqromni eshitib tilmochning boshi aylanib qoldi.

E, akajon, bormisiz! Bu kallavaram til bilmaslaringiz orasida yuragim ezilib ketdi-ku!

Savolinga javob ber! o'qraydi tergovchi. Otganmisan?!

Aka, o'zingiz oldin bir mundoq qarab ko'ring, keyin gapiring, qo'llarini qilich qilib uqdirdi Salim. Men odam o'ldiradigan bolaga o'xshaymanmi? Sinfimizda hammadan qo'rqadigan To'xtasin degan bola bor edi. Hamma shuni urardi. Men uni bir martayam urmaganman. Ruchkamni o'o'irlab olgandayam urmaganman. Tojik bolalar bilan urishib qolganimizda Shokir ularni toshbo'ron qilgan. Men bittayam tosh otmaganman.

Shokir kim, sho'raviy? Qumondoningmi? ensasi qotib so'radi afg'on tergovchi.

Iyah?! kulib yubordi Salim uning anqovligidan ajablanib. Shokir hozir Sho'rqishloqda. Oshnasi Fitrat bilan qora yoqqa belanib mashina tuzatib yuribdi, aka! Firat qirim-tatar bor-ku, Edim qirim-tatarni o'g'li, o'sha bilan bilim yurtida o'qib avtorem bo'limini bitirgan. Siz mundoq gapni anglang-da. Shokir qo'shnimiz Rahmon akamni o'g'li. O'zimizni Adirko'chada yashaydigan, suvchi Rahmon o'risni ikkinchi o'g'li-da, aka. Siz bo'lsangiz otganmisan deysiz! Maktabimizni rayondagi paradga oborishganda, 7-noyabrCH bayramida, Tursun zo'rlik qilib meni hamma pulimni tortib oldi. Bu pulni menga dadam padarka qilgandi. Uniyam urmadi, kel qo'y, mayli, nima qilaman kattalardan kaltak yeb dedim. Shu Tursun...

Afg'onistonlik tilmoch Salimning oo'zidan chiqayotgan o'nlab so'zlarni tushunmasdi. Buning ustiga barcha sho'rqishloqliklar kabi bidirlab tez so'zlardi.

Tursun kim, sho'raviy?! g'azablendi Sayid.

Ha-a-a! ijg'irinib qo'l siltadi asir. Kim bo'lardi! O'zimizni Petkani o'g'li-da, aka.

Petkang kim, sho'raviy?! o'zini bosolmay baqirib yubordi Sayid.

Pirmat quloq kim?! cho'chib ketib bidirlab tushuntira ketdi sho'rlik asir. Sutbuloq mozori shayxi Orif ota oshnasini aytayapman-da, aka. Gapni mundoq tushuning-da sizam. Tursun afting qursun, o'sha Petkani o'g'li. Bu quloqlar to'pi juda rasvo-da.

Kaptarlarimni nima qildi ekan deng, kaptarlarimni! Hamma kaptarlarimni shunga ishonib topshirib kelganman! Meni o'zi kalam ishlaymaydi, aka. Tursun kaptarlarni tochno sotib yeb bo'lgan, aka. Bularga xudo bas kelmasa bandasi bas kelolmaydi.

Bizga ishlaysanmi? Sayid hech narsa tushunolmay boshini changalladi.

Nima ish bor o'zi, aka? asir qo'lini ko'ksiga bosib qulluq qildi. Lyuboy ishni qilaveraman. Rotadayam hamma ishni o'zim qilardim. Stariklarni paytavasini yuwardim, polni yuwardim, oshxonagayam o'zim borib kelardim. Kartoshka artish o'zimni bo'ynimda edi, aka. Biz Sho'rqishloqdanmiz, aka. Nima ish bo'lsa bajaraveramiz. Ishlaysanmi deysiz-a, sho'rqishloqlikni ish bilan qochirib bo'larkanmi.

Sayid ensasi qotib, qo'l siltab tergovni bas qildi.

Buni otib tashlash kerak, dedi fors tilida. Bundan hech qanday foyda yo'q.

Bombardimon chog'ida oilasidan ayrilgan bir keksa mujohid o'zbek tilidan xabardor edi. Avtomatini sozlab o'tirib, asirga rahmi kelib, uni gapga soldi.

Isming nima?

Salim, deb qulluq qildi asir.

Isming go'zal, kitobiy ism ekan.

Otimni Eshondada eshon buvam qo'yanlar, maqtandi u. Suf deb suvni teskari oqizdilar. Rahmon akamni dadasi edilar. Siz hech biz tomonlarga borganmisiz? U kishini Sho'rqishloqdayam, Xo'jaqishloqdayam hamma taniydi.

Salim, dedi qariya oo'ir xo'rsinib. Otang bormi?

Bu savolni eshitgan Salimning vujudida yengil titroq turdi.

Uch yil burun qazo qilganlar... ko'ziga yosh quyilib boshini egdi u.

Onang-chi? Onang bormi?

Avvalgi yili ularam o'tib qoldilar... ho'ngrab yubordi yetimcha.

Tuo'ishganlaring-chi?

Men yakkaman

Qo'y, yio'lama, dedi qariya. Sizlarda dindorlarni qirib tashlashgan deydilar. Agar biz bilan yashasang, senga dinu iymonni,

Qur'onni o'rgatamiz. Biz bilan qolasanmi?

Iloji yo'q-da, amaki, dedi u hiqillab yig'lab.

Nega iloji yo'q?

Salim burnini ro'molchasiga qoqib, ota-onasiga aza ochishni bas qilib, jiddiy tusga kirib, o'z ahvolini yotig'i bilan tushuntirdi.

Otaxon, tushungan odam ekansiz. Sizga aytmasam kimga aytay. Shu desangiz, hamma kaptarlarimni, Pirmat quloqni o'g'li Tursunga omonat tashlab kelganman. Agar tezroq qaytib bormasam, tatarmahalladagi kaptarbozlariga sotib yuboradi. Kaptarlarim, Sho'rqishloqda bitta. Sizga yolo'on xudoga chin, har bittasi besh so'm turadi. Hammasi uzun paypoqli, oq kaptar. Tikka uchadi. Beshtagacha o'mbaloq oshadi. Bittasi bor, kaptarlarini eslab, ko'zlari suzulib chayqaldi Salim. Osmondan to'o'ri uchib kelib, qo'linga qo'nadi. Men og'zimni ochaman. Og'zimda suv bor. Shu kaptarim oo'zimdan suv ichib, yana osmonga uchadi. Oltita, yettita, sakkiztagacha o'mbaloq oshadi.

Mujohidlar o'z tillarida chug'urlashib, uzoq tortishdilar. Qariya baribir o'z maqsadiga erishdi. Asirning jonini saqlab qoldi. Salim bir hafta davomida mujohidlar orasida bo'ldi. Uning vazifasi, too' bag'ridagi buloqdan suv tashish edi. Sho'rqishloq bolasi sidqidildan mehnat qildi. Oqshomlari bolalar orasida lanka tepib, ular bilan barobar qichqirishib o'ynab yurdi. Jafokash qariya unga termulib, mahzun jilmayib qo'yardi.

Sho'rqishloqliklar telbaning ishini xudo o'nglar deydilar. Bir kuni vertolyot kelib qishloqni o'qqa tutdi. Afg'onlar qishloqni tark etishdi. Tentak Salim horib-charchab, eshakka ortilgan suv to'la bidonlar bilan qishloqqa yetib keldi. Afg'on mujohidlari o'rnida BTRlar va o'z quroldoshlarini ko'rib, hayratdan dong qotib qoldi.

Salim! qichqirib qah-qah kulishdi safdoshlari. Bu yerda nima qilib yuribsan, sotqin?!

Kim ekan sotqin?! sir bermay hoholab kula boshladi u. Mana, sizlarga buloqdan toza suv olib kelyapman, jinnilar! Ho'-o'-o', Sho'rqishloqdan hozirgacha sotqin chiqmagan! Oo'zingga qarab gapir, bo'ptimi! Ha-ha-ha-a-a-a!

* * *

La'nati urushning asorati ko'p yillargacha cho'ziladi deydilar. Yo'q, unday emas, bu asoratning jarohati insoniyat bag'rida abadiy qoladi. Salim va Zohida, ularning o'n-o'n ikki yoshli o'g'illari ham bu asoratdan qutilib ketolmadilar. Zohidaning bolaligi urush jabrdiydalari orasida kechgan. Uning buvisi bamisoli bir yalmog'iz kampir edi. Kampir o'z nabiralariga non-suvni o'lchab berardi. Shakardan tortib tuzgacha qulflog'liq sandiqda saqlanardi. Zohida va uning opasi, uxlayotgan kampirning ishtonbog'iga bog'langan kalitni o'g'irlab, sandiqdan turshak va novvot olib yerdilar. Otasi bozorda dallolchilik qilib pul topardi. Qizlar uning cho'ntagidan tez-tez mayda pul o'g'irlashar, ertasiga kampir javrar, otasi baqirar, Zohidaning begunoh onasi o'g'rilikda ayblanib в Ёњqora kaltakъ Ёќ ostiga olinardi. Qonga belangan kelin darmondan ketib to'shakda yotar, betayin yalmog'iz kampir, uning tepasida kuyinib yig'lab o'tirar, kelinidan qayta-qayta kechirim so'rardi. Zohidaning onasi yoyilib kulib, kampirning mehridan dili yayrab darmonga kirar, to'shakdan turar va yana uy yumushlariga unnab ketardi.

Hammasiga men aybdorman, derdi yalmog'iz kampir yig'lab. Hamma narsani qulflayverib, qizlarni nafsini och qilib qo'ydim. Ocharchilik yillari bizni xarob qilgan-da, bolam...

Yalmog'iz kampirning kasru kasofatiga qolib, Zohida havaskor o'g'ri bo'lib o'sdi. Buzuqligi esa tuhmat bo'lib, kuchli shamollash tufayli bu ayol kasaldan-kasalga o'tib kun kechiradi. U miriqib janjal qilishni va yaxshi taom yeyishni yoqtiradi. Аynиqsa, qonib uxlash eng ezgu orzusi. Chunki otasidan badxayollik dardini yuqtirib olgan Salim uni nohaq va noo'rin в Ёњtergovъ Ёќ qilib, yarim tungacha uxlatmaydi.

* * *

Salim bir kuni tunda Zohidani uyg'otib so'radi:

Bugun uni chaqirdingmi?

Kimni? so'radi ko'zini ishqalab Zohida.

O'ynashingni! ilondek vishilladi Salim.

Yo'q ... kaftini qisdi u.

Yo'q?! Hay! g'azablanib baqirdi er. Demak, o'ynashing bor ekan-da?!

Yo'q o'ynashim! Yo'q! undan balandroq baqirdi Zohida.

Bo'lmasa, o'vozini pastlatdi tergovchi er, nega o'ynashingni chaqirdingmi, desam yo'q deysan?

Nima dey bo'lmasa? Ha, chaqirdim deyimi?

O'zi o'ynashing bormi?

Yo'q dedim-ku!

Yo'q bo'lsa kimni chaqirasan?

Iyya-a-a! Nima?! Men, o'ynashim bor, uni chaqirdim dedimmi?!

Bo'lmasa nega boshdayoq meni o'ynashim yo'q demading?!

Bitta so'zga osilib olib qiynayvermang! Menga hozir kimni ko'zi uchib turibdi?

Ha-a?! uni jinoyat ustida ushladi Salim. Agar ko'zi uchib turgan kishi topilsa yurarmiding? A?! Yurarmiding?!

Hoy, musulmon, o'zim orqamni zo'rg'a ko'tarib yuribman! Meni bunaqa ishlarga holim yetmaydi! Bo'ldi-da e-e-e! boshini to'shakka o'radi u.

Bo'lmasa kim devordan oshib tushdi?

Qachon?! qo'rqib deraza orqali qorong'i hovliga mo'raladi Zohida. Kim tushdi?!

Ha-a?! Qo'rqib ketding-ku? O'ynashing bor ekan! Men bir haftadan beri kuzatyapman. Har kuni kechasi, вЂњtop-topвЂќ qilgan tovushlar eshitilib turibdi.

Ha, dedi Zohida xotirjam homuza tortib. Axir qurt yegan olmalar to'kilyapti-da. Shuniyam bilmadingizmi? Yoting, uxlang. Jinni bo'lmay o'ling.

Salim mana shunday suhbatlar chog'ida, ba'zan xotinini urib yuborar, o'zi ham undan bir-ikki tayoq yeb qolardi. Ba'zi kunlari tunda hovlidagi chiroqlarni butunlay o'chirib, qo'lga panshaxa olib, olma tagida yashirib, maxfiy o'ynashning kelishini kutardi. Bir kuni top etib, boshiga qurtlagan olma tushgach, Isaak NCHyuton kabi yalt etib ko'zi ochildi. Xotini aytgandek, olmaning to'kilayotganiga ishonch hosil qildi. Uning o'ynashi yo'qligiga esa baribir ishonmadi.

* * *

Salim qishloqdagi ko'pdan-ko'p ulfatlari bilan birga gap o'ynardi. Bir kuni davrada kartabozlik tez tugab qolib, o'iybat avj olib ketdi. Gap xotinlar xususida bordi. Salimning vujudi quloqqa aylanib, atrofga shubhalanib nazar soldi.

Bilasizlarmi, g'arni belgisi qanday bo'ladi? deb so'radi birinchi bo'lib paranji tashlagan Tillaxon ochiqning nevarasi magazinchi Toshmirza. Bobom rahmatli ko'p aytardilar. G'arlarni oyog'i doim o'ynab turarkan. Mundo-o-oq, zehn solib qarasang, oyoqlarini likillatib o'ynatib o'tiradi. Innaykeyin, o'smani qalin qo'yadi. Chiroyli erkaklarni yaxshi ko'radi. Televizordagi erkaklarniyam yeb qo'ygudek bo'lib tomosha qiladi.

Bekor gap, dedi Pirmat cholning o'g'li Tursun. Xotin kishi zagadka. Hech kim, hech qachon xotinlar sirini bilolmaydi. Yolki-palki!

Tursun bu o'rischa haqoratni harbiy xizmatdan o'rganib kelgan. Ammo ma'nosini o'zi tushunmaydi.

Bilib olishni bitta zo'r yo'li bor, deb tushuntirdi qitmir Toshmirza. Tunda uxlayotgan ayolga atab fотиha surasini o'qiyasan. вЂњAgar shu xotinni o'ynashi bor bo'lsa harakat qilsin!вЂќ deb tilak qilasan. Yetti marta вЂњayon bo'!вЂќ deb suf solasan. Agar ayol qo'zg'alsa, gapirib yuborsa yoki uyqusidan uyg'onib ketsa, u buzuq bo'lib chiqadi.

A-a?! xayolga cho'mgan Salim tez-da xonadan chiqib ketdi.

Shu suhbat bahona bo'lib, Salim Zohidaning sirini bilib olishga astoydil kirishdi va tunlari xotinini sehrlay boshladi. Axir u shuncha yildan beri kaptar quvlab, xotiniga tuzukroq parvo qilmagandi-da. Beparvo bo'lsang xotin nimalar qilmaydi deysan!

Salim tahorat qilib kelib, uxlayotgan xotinining bosh tomoniga o'tirib, qirolatni keltirib, chala-chulpa oyat o'qidi.

Hoy, Zohida, deb pichirladi Salim, yarim tunda telbanamo afsunlashni boshlab. Oyoqlaringni qimirlat. Birov bilan yurgan bo'lsang ovoz chiqar. Bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti! Ayon bo'! Ayon bo'! Ayon bo'-o'-o'! Uyqudagi bekachdan sado chiqmadi. U qaytanga yanada salobatliroq xurrak ota boshladi. Yana qaytaraman! ovozini balandlatib oyat o'qidi вЂњsehrgarвЂќ Salim. Hoziroq qimirla! Ana, o'ynashing keldi! Hamma sirlaringni bilib oldim! Salim bu holatni uch-to'rt marta takrorlab ko'rди, lekin hech qanday natija chiqmadi.

Salim bir hafta davomida, afsungarlik bobida, biror natijaga erisholmagach, bu chorai tadbirni to'xtatdi. Lekin, Toshmirza aytgan boshqa bir вЂњbashoratвЂќ amalga oshdi. Salim bir kuni ko'chadan kirib, xotinining qimirlayotgan oyog'iga qaradi. Zohida radio orqali sho'x musiqa tinglab, oyog'ini likillatib o'tirgandi. Toshmirza gapini eslab, Salimning fig'oni falakka chiqdi. Zohidaga tashlanib, uni ayamay do'pposladi. Zohida ham qarab turmay, erining duch kelgan joyini yumdalab, go'shtsiz terisini tishlayverdi. Og'riq jonidan o'tgan Otello izdoshi вЂњqo'ydim sendaqa xotinni!вЂќ deb baqirib yubordi. Ana shundan so'ng janjal kuchayib, ajralishga qaror qildilar. Qizig'i shundaki, Salim o'z xotini Zohidasiz bir kun ham yasholmasdi.

Zohidaning qarindoshlari uni o'rtaga olib, вЂњtergovвЂќ qilishdi. Salim noilojlikda qoldi, gapxonadan chiqqan gapni aytib berishga majbur bo'ldi. Sho'rqishloqliklar bu hangomani eshitib, kaptarboz ustidan miriqib kulishdi. Mulla Hakim ikkisini qayta nikohlab qo'ygach, nasihat qilib dedi:

Alloh o'z xotinini taloq qilgan bandalarini sevmaydi. Shundan ko'ra to'y-ma'rakalarda qatnashib yursang bo'lmaydimi, Salimjon o'g'lim? вЂњGarвЂќ nimasi? Qobiljon akamni, Sanobar yangamni arvochini shod qilay desang, aqlingni yig'!

Bo'ldi, tavba qildim, Hakim amaki, rozi bo'ldi Salim.

Odamni bemavrid o'tirishlarda ziyofat yeyverishi ahmoqlik, dedi qariya. Ehey, telba dunyo... Bu g'ofil bandalarga nima bo'ldi o'zi?..

Oila saqlab qolindi. Ikki norasida farzand yetim bo'lmadi. Ammo Salimning rashkchiligi kasallikka aylanib, hanuzgacha davom etadi. Uzoq vaqt o'y suraverib aqlidan adashgan Zohida u yer-bu yerdan qo'lga kirgan narsani o'g'irlab, uyiga tashib keladigan odat chiqardi. Xotini yoshligida вЂњo'g'ri-tomoqвЂќ opasi bilan chakana o'o'ri bo'lganidan rashkchi er bexabar edi. Bir kuni hovlida mototsikl farasi paydo bo'lib qoldi. Salim yana gumonga borib:

Uyimda o'ynashingni mototsiklini chirog'i tushib qolibdi! deb uni urdi.

Chiroqni qo'shninikini o'g'irlab chiqqanman! dedi Zohida gunohini tan olib.

Nega o'g'irlaysan? hayron bo'ldi Salim. Menam o'g'riman, lekin men kaptar o'g'irlayman, boshqa narsa o'g'irlamayman.

Ana, kaptar o'g'irlarksiz-ku? barobar aytishdi u.

Iya?! achchiqlandi Salim. Boshqalar ham meni kaptarimni o'g'irlaydi-da! Qo'shnilar seni hech narsangni o'g'irlamagan. Sen nega ularni narsasini o'g'irlaysan? Bu gunoh bo'ladi-ya! Mototsiklini chirog'ini nima qilasan? Tomga o'rnatib, o'chirib-yoqib, o'ynashingga signal berasanmi, a?

Menga o'ynash kerakmas dedim-ku, telba?! g'azablanib baqirdi xotini.

Og'zingga qarab gapir! undan balandroq baqirdi Salim. Kim telba ekanligini xudo ko'rib turibdi! Men seni g'arsan deb yurardim! O'g'riyam ekansan-da?!

Rahmon amakining bu telba dunyoda tentiragan kunbotish tomondagi qo'shnilari mana shular edilar.

Oltinchi bob. Qudachilik ming yilchilik.

O'rtancha qiz Nasiba kasal bo'lib, Rahmon amakiga tashvish orttirdi. Nasibaning o'ng biqini tez-tez og'rib turadi. Mehnatkash Nasiba birovning ko'ziga tik qaramaydi. Shunday bo'lsa-da, qudalar Nasiba ustidan arz qilib, Rahmon amaki va Karima xolani o'z uylariga chaqirtirishdi. Cholu kampir, bir juft nonni qo'ltiqlab, aytilgan muhlatda, antiqa anjumanga yetib kelishdi. Sho'rqishloqlik Xolmat bangining o'g'li Sotimboy traktorchi Rahmon amakining to'rtinchi qudasi. Sotimboy traktorining otasi Xolmat bangi, ma'lum va mashhur Xorunboynig o'g'li edi. Bizning zamonlarga yetib, eshonzoda Rahmon amaki ilmsiz, asilzoda Sotimboy

traktorchi kambag'al bo'lib qolishdi. Ikkisining topgan boyligi ham, ortirgan ilmi ham kissasidagi nosqovoq, xolos. Mehmonlar va mezbolar qudachilik nizomiga binoan salomlashgach, mehmonxonaga joylashdilar. Jabrlanuvchi kuyov Malikjon bilan aybdor kelin Nasiba ikkiga bo'linib, o'z tarafdorlari yaqiniga o'rناshdilar. Anjumanning kirish qismida barcha qarindoshlar salomatligi so'rab-surishtirilib taftish qilindi. So'ng o'lgan qarindoshlarga jannatdan tomorqa berilishini so'rab, xudoga og'zaki arznoma yo'llab, fотиha o'qildi. Dasturxon yozilib, choy keltirildi. Maishiy bo'lim qisqa tarzda kechdi, har ikki tomon vakillari nomigagina non chaynab, sukut saqlab choy ichishdi. Piyolalar dasturxoniga to'nkarildi. Tadbiring asosiy bo'limi boshlandi. Quda, qizingiz bizga bo'ysunmay qo'ydi, dedi qirg'izqovoq xotin quda Orifa. Aytgan gapimga kirmaydi. Ovsini bilan ko'p urishadi.

Qachon, he-e?! hayron bo'lib qaynonasiga qaradi Nasiba.

Jim o'tir! buyurdi Rahmon amaki.

Xotin quda anjuman ishtirokchilariga oilaning bugungi kundagi ahvolidan atroflicha xabar berdi.

Hozir ayni dalada ishlaydigan payt. Bu bo'lsa ko'rpa-to'shak qilib yotib oldi. O'zingiz bilasiz, quda, biz qo'l uchida tirikchilik qilamiz. Kunimiz ekin-tikin bilan o'tadi, deb eriga yuzlandi. To'g'rimi, dadasi?

Hammaniyam yer boqadi-da, katta hikmatni kashf etdi erkak quda.

Do'xtirga olib borib ko'rsatdik. Buni jigarida qurt bor emish. Aparasta[2] ga yuz ming so'm ketarmish. Buncha pulni qayerdan olamiz, o'rgilay qudalar? Sizam ayting, dadasi.

Ha. Yuz ming katta pul.

Endi, qudajonlar, masalani ko'ndalang qo'ydi tadbirga raislik qilayotgan xotin quda. Mana, qizingizni qo'lingizga soppa-sog' topshiryapmiz. Xohlasangiz davolating. Bizda bor-yo'g'i ikki sigir, to'rtta qo'y bor, xolos. Bisotimizda boshqa hech narsamiz yo'q. Oilamiz katta. Agar o'zini o'nglab kelsa kelsin. Bo'lmasa qayerga borib yashasa yashayversin.

Iya! O'yijon? mo'ltiradi Nasiba. Men nima qildim, he-e-e?

Jim o'tir, ahmoq, tergadi Karima xola alamini ichiga yutib.

Sizam biror narsa deng... dedi Nasiba eriga umidli boqib.

Men nima deyman... O'zingdan ko'r yuzini chetga burdi Malik.

Bunday bedodlikni kutmagan Rahmon amaki tilini tishlab qoldi. U qizining ahvoriga achinsa-da, oxirini o'ylab achchiq so'z aytib yuborishdan o'zini tiydi. Oraga sovuq sukunat cho'kdi. Bir xira pashsha g'ing'illab uchib kelib, xotin qudaning yuziga qo'ndi. Orifa quda pashshani qo'l silkiib haydadi. Pashsha o'chakishib burniga qo'nib, burun parragini yalab qo'ydi. Orifa qichishgan burnini qattiq ishqalab qizartirib oldi. Shu payt eshikdan Nasibaning uch yashar qizchasi pildirab kirib keldi.

Oyi, chushsh-chushsh! deya tipirchiladi.

Hozir, qizim...

Nasiba o'ng biqinini changallab, ihrab o'rnidan turdi. Qizini bazo'r ko'tarib, yoziltirgani hovliga chiqib ketdi. Obidaning tarbiyasini olgan, nozik did bilan bola boquvchi bu juvon tappi yopib, yer chopib, eri bilan barobar g'isht quyadi. Atigi besh-olti soat uxlaydi, xolos. Bu kasal bo'lmay yana kim kasal bo'lsin. Sotimboy traktorchi mehnatkash Nasibani o'z farzandiday yaxshi ko'radi. U sukut saqlab, qudasining yuziga qarolmay xijolatga botib o'tirar, Rahmon amaki esa ora-chora tomoq qirib bosh chayqardi.

Nimayam derdik, deb tinchlikni buzdi Rahmon amaki. Ammo hozir holimiz sal chatoq edi-da. Mayli, agar sizga kelin kerak bo'lmasa, bizga qiz kerak...

Hoy, dadasi, dedi Karima xola past ovozdа. Shoshilmay turing. Bir qarorga kelmay turib, gapga yakun yasamang.

Nima qil deysan bo'lmasa? xotiniga o'rinib qaradi mushtipar ota. Axir bor gapni aytib bo'lishdi-ku.

Bizniyam aytadigan gapimiz bor, dadasi.

Karima xola ro'mol uchida Sotimboydan yuzini to'sib, Orifaga qaradi. Xotin quda yuzini qo'li bilan pana qilib, undan ko'zini olib qochib:

Mendan og'rinmang-da, quda, deya ming'irladi.

Shu bolani, dedi tashqariga ishora qilib Karima xola. Sizga soppa-sog', qo'lida hunari bilan bergandik. Bosh egamdan berkitib, o'marib-so'marib hamma kamini o'zim qildim. O'n yil eshingingizda o'tirib, yangi kiyim kiyimadi. Kelinlikdagi kiyimlarini kiyib umri o'tdi. Har yili no'xat ekaverib, uzum tarayverib, sabzi o'tayverib ado bo'ldi. Kasalini biz davolaymizmi? Eshakni kim minsa, yag'iriniyam o'sha tuzatadi, o'rgilay!

Sizlarga yuz ming so'm pul pulmas, quda!

E, o'g'limni omadi ketib, qozonni suvga solganmiz, Orifaxon. Pulimiz bor bo'lganida qizo'anmagan bo'lardim. Meni bilardingiz-ku...

Ishi rostdanam rasvo bo'lgan ekan-da? Orifaning tarvuzi qo'ltig'idan tushdi.

Rost, o'rgilay, rost.

E-e, Karima opa! ovozi ko'tardi u, yuz minglik chiqimni eslab peshonasi tirishib. Qizingizni obketing! O'zinglardan ko'ringlar. Hammayam o'z qiziga qiladi-da. Ana, qizim bilan kuyovim, bola-chaqasi bilan biznikidan yeb-ichib ketyapti. Bizgayam oson tutmang. O'olingizni omadi ketsa nima qilay? O'g'lingiz eplolmasa nega ikkita xotin oladi?

Iyah?! achchiqlandi Karima xola. Meni o'olim bilan sizni nima ishingiz bor, quda?! O'g'lim xohlasa o'nta xotin oladi.

Eplasa olmaydimi, quda! o'shqirdi xotin quda. Qizingizni oling-da, jiling!

Hech qayerga ketmaydi!! baqirib yubordi Karima xola, qayerda o'tirgani yodidan chiqib.

Uningni o'chir! unga sari baqirdi Rahmon amaki rangi gezarib.

Haybatli ovozdа Karima xola xayoli bo'linib, bir sapchib tushdi. U eshonzodaning qadimgi jahli kelib qolganini sezib, dahanaki jang maydonini tark etdi va mehmonxonadan apil-tapil chiqib ketdi. Malik boshini egib jim o'tirar, o'qtin-o'qtin otasiga qarab qo'yardi. U ham oyoq uchida yurib hovliga chiqdi.

Bizdan xafa bo'lmang, quda, dedi Rahmon amaki traktorchiga qarab. Oxir zamon deganlari shu ekan-da. Qarigan choo'imizda xotinlarga kuchimiz yetmay qoldi. Bolalarimiz quloqsiz chiqdi. Erkakman deb choyxonada nosqovoq ko'tarib yuramizu uyda ahvolimiz shu. Nimayam derdik... Sizlarga bolamiz kerak bo'lmasa, bizga kerak...

Olib ketib yaxshilab davolatinglar, dedi xotin quda, Nasiba o'zi yomon qiz emas...

Hozirgacha anjuman tadbirida kichik rol o'ynagan donishmand Sotimboy quda o'tirgan o'rnidan bir qo'zg'alib oldi. Uning g'azabdan qo'llari qaltiray boshladi. Rahmon amakining oxirgi kesatqli gapi suyak-suyagidan o'tib ketdi.

Rahmon aka, dedi u yana bir yangilikni kashf etib. Sizni qizingiz meniyam qizim. Qanday mehnat qilishini, qanday yotib-

turishini yaxshi bilaman. Menam kimsan Xolmat bangini o'g'liman. Hali-beri xotinga bo'sh kelgan joyim yo'q. Xudolikka ishonsangiz menga ishoning. Xotinimni bunaqa rejasidan bexabar edim. Nasibani ikkita bo'rdoqi qo'chqori bor. Shularni sotsa, o'rniga ikkita qo'zi olib beraman. Ortgan puliga aparasta qildiraveradi. O'lmasa bo'ldi bizga. Siz bilan quda bo'lib yomonlik ko'rmadim. Ana, qaynsinglimni bitta qizini kenja o'o'limga olib berganman. Har kuni maymun tomosha ko'rsatadi. Betavfiq!

Iya?! Hoy, dadasi! javradi xotin quda. Bu nima degan gap?!

Chiq-chiq! xotiniga do'q urdi er. Bor, ovqatga urin!

Qo'chqorlarni nevara to'yiga boqqanman, dadasi!

Hu onangni sani!! so'kinib baqirdi Sotimboy traktorchi rangi oqarib. Meni isnodga qo'ymoqchimisan?! Kenja keliningga qo'shib, o'zingniyam singlingnikiga eltib qo'yaymi?! Hu seni o'sha singlingniyamB !..

Xolmat bangining o'g'li donishmandlikni chetga surib, dunyo ilmlarini sho'rqishloqchasiga kashf etishga o'tdi. Uning og'zidan otilib chiqayotgan qora hikmatlarni eshitib, nafaqat Orifa quda, hatto Rahmon amakining ham esi og'ib qoldi. Xotin quda o'rnidan turib, gandraklab tashqariga yuzlandi. Ostonadagi kovushini poyma-poy kiyib, Nasiba yig'lab o'tirgan xonaga qochib kirdi. Nasibaning boshini silab ovutayotgan Karima xola Orifaning ahvolini ko'rib hayron bo'ldi. Xotin quda duxoba yopqichli beshik ortiga biqinib yotib oldi va Nasibani imlab shivirladi.

Nasiba?

Ha, oyi? ajablandi Nasiba ko'zyoshlarini artib. Nega u yerga yotib oldingiz?

Qara-chi, dadang bu yoqqa kelmayaptimi? beshik ortidan boshini ko'tarib, bo'y cho'zib tashqariga mo'raladi Orifa.

Kechga tomon er-xotin hamma bilan xayrlashib uyga qaytishdi. Nasiba qizini qo'lida ko'tarib, yio'lab ularga ergashdi. Rahmon amaki va Karima xola yuraklari ezilsa-da, sir bermadilar.

Meni olib ketinglar...He-e-e-e... yio'ladi Nasiba. Men bu yerda o'lib qolaman. O'lib qolsam maylimi, a?! He-e-e-e... Maylimi?! Qaynatang davolatamiz dedi, qizim, tushuntirdi Rahmon amaki.

Boraqol, uyingga, dedi onaizor. Bizni uyda yeyishga nonimizam yo'q. Yaqinda hovlimizniyam sotsak kerak. Boshimizga shunaqa ko'rgiliklar tushdi, bolam...

Ular o'nqir-cho'nqir ko'chada ortga qaramay ketaverdilar. Nasiba behol bo'lib bolasini yerga tushirdi. Asta cho'nqayib, o'rta yo'lda o'tirib qoldi. Kelinini bu ahvolda ko'rib, Sotimboyning yuragi ezildi. Malik otasining yonida angrayib turar, hovli ichida Orifa quda qaro'anib javrardi. Hamqishloqlar Sotimboyini, otasi Xolmat bangiga tortgan, yomon fe'lli kishi sifatida taniydilar. Uning qaynilari yumshoq so'zli, halim kishilar bo'lib, zolim pochchadan ochiq-oydin nafratlanadilar. Orifa tannoz jiyanini kelin qilib, pand yeb qoldi. Jiyan tushmagur juda tartibsiz kelin bo'lib chiqdi. Undan kuygan qaynona alamini Nasibadan olardi. Sotimboy buni yaxshi bilar, o'g'li Malik esa Nasibani himoya qilishga layoqatsiz edi.

Sotimboy nos chekib, g'azablanib bosh chayqadi.

Bormaysanmi?! deb yonida turgan Malikka o'shqirdi.

Qayoqqa? kaftini qisdi Malik.

Xotiningni oldiga-da! baqirdi ota. Tog'angga tortmay o'lgur! Xotining o'rta ko'chada o'tirib qoldi! Erkakmisan o'zi?! Bor, olib kel uyga!

O'zi kelavermaydimi? ming'irladi Malik qo'lini cho'ntagiga solib.

Ha urug'ingga ... seni!

Sotimboy qulochkashlab o'g'lining bo'yniga urdi. Qari traktorining bolg'aday mushti zarbiga dosh berolmagan Malik orqasiga ag'darilib tushdi. Sotimboy Nasibaning yoniga borib, qo'lidan bolasini olib, o'zini turg'azdi va uyga olib keldi.

Otangni isitma qilib kelganga o'xshaydi quda o'lgurlar, dedi Orifa.

U jangari erining ko'zidan panaroqqa yashirib oldi. Malik ham bo'ynini uqalab, balodan hazar degandek, qo'yxona ortiga o'tib, bir chetda o'tirdi.

Boshqa odam shunday urganida ezib tashlardim, qonli so'lagini tufladi u. Qo'chqorlarim qulog'ini ushlab ketadigan bo'ldi-da. Sho'rqishloqliklar qiz ammaga, o'g'il tog'aga tortadi deyдилar. Malik chindan ham otasiga tortmagandi. Uning yuz tuzilishi tog'alariga quyib qo'ygandek o'xshar, oqibatsizligi ham deyarli bir xil edi. Bunday noma'qul ish uchun Xolmat bangining o'g'li Sotimboy o'z xotini va o'g'lini uzoq vaqt jazoladi. Qudasining kesatiqli so'zlari tunlari yodiga tushib qolsa, oh urib yuborar, asabiylashib o'rnidan turib ketar, kappa-kappa nos chekardi. Hozirgacha uni hech kim xotindan qo'rqishda ayblamagan. Bola-chaqa ortidan odam har turli savdolarni ko'rarkan-da. Inson sho'rlikning boshi nima ekan-a, ne-ne qismatlarga duchor bo'lmagan u...

Bir umr dunyoga etak silkib, chilim tutatgan otam ne topdi-yu, bir umr yer tatalab men nima topdim! deya faryod urdi bangining o'g'li. Bola boqaman deb dinimni yutdim! Umrinni boy berdim! To'rt tomonimga ta'zim qilib, o'g'rini og'am dedim, to'nkani tog'am dedim! Ochu yalang'och qolsam-da, senlarni boqdim! Senlarni boqaman deb qoshimga o'sma qo'yib o'yinga tushmadim, xolos! Senlar meni tiriklayin o'lording! O'lording! Shu kunlarni ko'rgandan ko'ra, otamning chilimini qo'ltiqlab, tog'u toshlarga chiqib ketsam bo'lmasmidi?! Ha, onaganingni ... senlarni!

Zot zotga qarab isbot deyдилar. Xorunboyning nabirasi kambag'al bo'lsa-da, naslu nasabi toza edi. Qo'y ko'rmagan bo'lsa ham qiy ko'rgan traktorchi ota-bobolariga loyiq ish qildi. U ikkala qo'chqorni sotib, pulini Nasibaning qo'lga berdi.

Qo'zilarga pul ajratmadingiz-ku? dedi Nasiba.

Aparastaga qancha pul ketishini hali bilmaymiz, qizim, deb qo'l siltadi u. Tuzalib kelaver-chi, qo'zi bir gap bo'lar.

Yo'llanma bilan Nasibani shahardagi jarroh shifoxonasi bo'limiga olib ketishdi.

Qo'ylarim sotilib ketdi-ya, deb yig'ladi qaynonasi. Ha, essizgina.

Qanaqasiga seni qo'ying bo'ladi? dedi Sotimboy achchiqlanib. Qo'ylarni qo'zichoqlik davridan beri Nasiba o'zi boqqan-ku?

Boqqan bo'lsa meni uyimda, meni nonimni yeb boqqan, o'chakishdi xotini.

U yegan nonini oqlaydi. Seni jiyaning nima hunarlar qilyapti?!

Jiyanim meni o'z jiyanim, o'z xolasini uyida o'tiribdi.

Sen kimni uyida o'tiribsan? olaydi traktorchi.

Men... tilini tishladi ayol. Sizni uyingizda o'tiribman...

Bu kelin shuncha yil ishlab, bu yerga ega bo'lolmabdi. Sen nega otamdan qolgan uyni o'zimmiki deyapsan, tagi past? Menga qara, pismiqlar avlodi, agar tez-da ko'zingni ochib olmasang, anavi satang jiyaningga qo'shib, bojamnikiga eltib qo'yaman. Hamrang jonimga tegding!

Traktorchi ancha vaqtgacha o'azabdan tushmadi. Shubhalangan Orifa quda, Karima xolani qarg'ab, uni bog'latib tashlash va erini yumshatish uchun qaytarma qildirgani azayimxonga bordi. Ammo bu вЂњvinoxo'rvЂќ traktorchiga domlaning amali ta'sir qilmadi. Kun sayin qahru g'azabi alangalanib bordi. Nihoyat, xotin quda o'z gunohini tan olib, eridan uzr so'rab yig'ladi. Sotimboy ham bir oz hovuridan tushdi. Avvalgidek birga o'tirib choy icha boshlashdi. Xotini uni eritish maqsadida, oyog'ini uqalamoqchi bo'lgandi, bangining o'g'li qarshilik ko'rsatmadi. Oyog'ini uqalatib yayrab yotdi.

Xotin, dedi traktorchi. Nasiba kelinimiz eshonzodalardan bo'ladi. Meni buvam Horunboy, shu Nasibani katta buvasi Zunnur eshonga qo'l berib, boy bo'lib ketgan ekan. Bunday zotlarning suyagini xo'rigan ko'r bo'ladi.

A-a-a? xushlamayroq bosh irg'adi Orifa.

O'zing o'ylab ko'r, tushuntirdi traktorchi. Shu Nasibani kelin qilib tushirib kelganimizdan keyin ishimiz yurishib ketdi. Uyimizda qo'sh-qo'sh sigir, вЂњMoskvichЂќ moshina, qop-qop bug'doy paydo bo'ldi.

Ehtimol bu tasodifdir.

Tasodifmikin? traktorchining ko'zlari olaydi. Nasibadan keyin seni jiyaning Go'zalni kelin qildik. Hamma ishimiz orqaga ketdi. Ekinlarga sho'r tushdimi? Daladagi mol bo'kib qolib, so'yib yubordikmi? Sen gimaroy bo'lib, orqangni kesdirib keldingmi? Men birgadirni urib qo'yib, milisaga ishtarop to'ladimmi? Mana endi Nasibani ichidan qurt chiqib turibdi-da!

Orifa yana bir narsa demoqchi bo'lib og'iz juftladi-yu, cholning tepong'ich oyog'iga o'ng o'tirgani yodiga tushib, qo'rqib tilini tishladi va uning boldirini alam bilan qattiq-qattiq uqalay ketdi. Sotimboy traktorchi qo'y-ko'zlarini yumib, mehnatda ezilgan oyoqlarini uzatib, o'zini bobosi Xorunboydek sezib, joni orom olib yayrab yotdi. Otasi va onasini, jabru jafolar ichra o'tgan bolalik chog'larini xotirlab chuqur uh tortdi.

* * *

Inqilobdan keyin Xorunboyning molu mulki ishchi-dehqon davlati hisobiga musodara qilindi. Yurak xastaligiga chalingan boy mol achchig'iga chidolmay tez-da olamdan o'tdi. Otasidan ayrilgan Xolmuhammadga esa ikki dunyo bir qadam bo'lib qoldi. U bir oy davomida betinim yig'ladi. Keyin bangilikni bo'yniga olib, kechayu kunduz nasha chekib, choyxonada chilim quchoqlab yotaverdi. Xolmat bangi qizil inqilob davrida bosh ko'targan bosmachilar, keyinchalik hokimiyatni qo'lga olgan qizilvoylar, kolxozlashtirish davridagi faollar, quvg'inga uchragan mullolarga ham el bo'lmadi. Bangidan hech kimga foyda yoki ziyon yo'q edi. Xorunboyning mulkida yashab, keyin bosmachilarga qo'shilib ketgan sho'rqishloqlik aka-ukalar Xolmatni o'zlari bilan birga olib ketmoqchi bo'lishdi.

Yuring biz bilan, boyvachcha, qizillardan boy otamni o'chini olamiz, taklif qildi bosmachilarning katta akasi Abdulla yuzboshi. Hozir Omon polvonning yigitlari bilan birgamiz. Sizni xafa qildirib qo'ymaymiz.

Yo'q, men odam o'ldirolmayman, dedi yig'lab Xolmat. Qizillar ham, oqlar ham ajal quvlagan g'arib. Meni tinch qo'yinglar... U har turli davralarda sandiraqlab yurib, hech kim bilan fikri bir joydan chiqmadi. Bangilar bilan nasha chekib, o'z g'amu hasratlarini unutdi. Keyin chilimga butunlay sig'inib qoldi. Ozib-to'zib, rangi dokaday oqarib, ko'z kosasi chuqurlashib, badbashara bir kimsaga aylandi. Ammo shunga qaramay, uni Andijon, O'sh, Farg'ona va Namangandagi bangilar yaqindan tanishar va hurmatlashardi. Xolmat chilimini qo'ltiqib yurtma-yurt daydir:

Mana, men yolg'on dunyoga o't qo'ydim! deya chilimga solingan nashani qurillatib tortib hoholardi. Tuta-ya, joningdan, tuta-a-a! Seni kayfing qanchalik yolg'on bo'lsa, bu yorug' dunyoyam shunchalik yolg'on!

Ulfatlar sho'rqishloqlik tanti yigitga tan berib, uning qo'lbola nashasidan karaxt bo'lib, qotib-qotib kulardilar. Rangi dokaday oqargan, ko'zlari suzulib qizargan bangilarning, buruqsigan qo'lansa hididan odamlar nari tursin, hatto burgalar ham hazar qilishardi. Xolmatning badaniga ilashgan burgalar, yonida yotgan sho'rlik xotinini qiyratib chaqishar, Xolmatga esa tegmasdilar. Burga, bitlar ham o'z salomatliklarini asrashgan bo'lsa ehtimol.

Stalin o'lgan yili qamoqdan qaytib kelgan Eshondada eshon Xolmat bangiga nasihat qildi.

Ikkimizam oltmishdan oshdik, do'st, dedi eshon. Otalarimiz qadrton bo'lishgan. Qanday jannati odamlar edilar. Balki shu giyohni tashlab, aqlingizni yio'ib, iymonga kelarsiz?

Aql iymonga dushman, taqsirim, dedi bangi.

Bu so'zda mantiq yo'q, Xolmatjon, rad etdi eshon.

Ajablar bo'lsinkim, izoh berdi Xolmat bangi. Ko'ring, taqsirim, Istalinday aqlli odamni yer yutdi. Iskandaru Dorolar bu dunyodan qo'llari bo'sh ketdilar. Mardi maydon Omon polvon qani? Shermuhammadxon Muhammadaminbeklar qani? Suvni teskari oqizgan otangiz Zunnur eshon qanilar-u, davlati tog'dan baland Xorunboy otam qani? Ularni qo'llaridan nima keldi? Bu dunyoda biror narsani amalga oshiraman deb, ovora bo'lmaslik kerak. Hamma narsani xudo biladi, xudo qiladi. Xudo xohlamasa musulmon bo'lolmaysiz, iymonga kelolmaysiz. Sizam menga qo'shilib nasha cheking, taqsirim. Duoyingiz yuz karra kuchayadi! Hamma iymon bangilarda bo'ladi.

Astag'furulloh! achchiqlandi eshon yoqasini ushlab. Bu qanday shakkoklik bo'ldi, do'st? Iymon bangida nima qiladi? Xudoga ishongan odam nasha chekadimi?

Nasha chekmagan kishi xudoga ishonmaydi, eshonim!

Nozambilloh! Nozambilloh! achchio'i kelib, g'udrandi eshon.

Bangilar o'ta iymonli bandalar ekanini isbotlash maqsadida Xolmat bangi Eshondada eshonga qo'yidagi rivoyatni aytib berdi. Bir kuni buyuk yaratguvchi Alloh o'z huzuriga oliy bir farishtasini chaqiribdi.

Yer yuziga tushib eng iymonli kishilar orasiga bor, deb buyuribdi. Ularni iymonlarini sinab ko'r. Aniqlab bilginchi, qaysi bandam meni qudratimga shubha qilmas ekan.

Farishta yer yuzidagi eng katta sahroga tushibdi. Musofir odam suratiga kirib, karvonga qo'shilib olibdi. Karvonni yetaklab borayotgan sarbon, birdan bo'yi bulutlar qadar o'sib, ulug' farishtaga aylanib, yerga juda ulkan bir juvoldizni sanchib, uni teshigigacha qum barxaniga botiribdi. Keyin karvonni shu juvoldiz teshigidan olib o'tibdi. Karvon g'oyib bo'libdi. Taftishchi farishta tanho qolgach, sahro o'rtasida joylashgan bir shaharga kiribdi. Jazirama yoz oylarida bu shaharga biror karvon sahrodan o'tib kelolmas ekan. Shahar aholisi musofirni ko'rib, hayron bo'lib, uni podshoh huzuriga boshlab borishibdi. Podshoh ajablanib:

Ey, musofir? deya so'rabdi. Sen bu cho'lni qanday bosib o'tding?

Allohning qudrati bilan, men bir karvonga qo'shilib keldim, debdi farishta. Karvonboshi epchil kishi ekan. Bir juvoldizni sahroga sanchib, karvonimizni teshigidan olib o'tdi. Mana, men huzuringizga keldim.

E, bizdek oliy zot senga mazax bo'lib qoldikmi? Bu gaping aqlga sio'maydi-ku? deb g'azablangan podshoh, farishta so'zlariga ishonmay, uni kaltaklatib, saroydan haydab yuboribdi.

Farishta ma'yus alfozda shahar masjidiga kirib, ikki rakat namoz o'qibdi. Imomlar va ulamolar musofirni ko'rib, qiziqib so'roq-savol boshlashibdi.

Ey, birodar, so'rabdi imom. Siz bu jazirani qanday bosib o'tdingiz? Axir bu chog'larda biror karvon sahrodan o'tolmasdi-ku?

Allohning qudrati bilan, deya so'z boshlabdi farishta. Men bir karvonga qo'shilib oldim. Karvonboshi yerga bir juvoldizni sanchib, shuning teshigidan karvonni olib o'tdi. Mana, men shahringizga yetib keldim.

Siz yo beaql ahmoqsiz yoki bizni mayna qilyapsiz, achchiqlanibdi imom.

Farishta masjiddan quvilibdi. U bozorga boribdi. Bozordagilar ahvol so'rashibdi. U bo'lgan gapni ro'yi-rost aytib beribdi.

Bozordagi savdogarlaru xaridorlar, faqiru gadolar ham bu behurmat yolg'onchini o'z yonlaridan quvishibdi. Farishta eng oxiri sasib-achib yotgan bangilar takyaxonasiga kiribdi. Bangilar chilim chekib, karaxt bo'lib o'tirishgan ekan.

Kel, musofir, iltifot ko'rsatib yonidan joy beribdi bir bangi.

Sahrodan qanday o'tib kelding? so'rabdi boshqasi.

Allohni qudrati bilan o'tib keldim, xohlamaygina javob qilibdi farishta.

Yo, qudratingdan! xitob qilibdi birov.

Ana mo'jiza! yoqa ushlabdi kimdir.

Aytib ber, musofir! oshiqibdi yana birovi. Qanday o'tding?

Bir karvonga qo'shilib oldim. Karvonboshi zukko kishi ekan. Cho'lni o'rtasiga bir juvoldizni tikka qilib sanchdi. Shuni teshigiga qarab karvonimiz yo'l yurdi. Allohning qudrati bilan, ana shu karvonboshi, karvonimizni juvoldiz teshigidan olib o'tdi. Mana, ko'rib turganingizdek, men bu yerdaman.

E tasanno! hamma bangilar uni olqishlab chilim tortishda davom etishibdi.

Bunday karvonboshining ustoziga ofarin! bir bangi iljayib bosh iro'ab qo'yibdi.

Sizlar menga ishondinglarmi? ajablanibdi farishta.

Bo'lmasam-chi, deb javob qilibdi bir qari bangi. Allohning qudratiga shak-shubha yo'q. Seni karvoning bor-yo'o'i juvoldizni teshigidan o'tibdi-ku. Agar xudoyim xohlasa, karvoningni juvoldiz emas, ignani teshigidan o'tkaza oladi. Xudoning qudratiga shak-shubha yo'q.

Farishta arshi a'loga qaytib borib Allohga xabar beribdi.

E Allohim, seni qudratingga beaql bangilardan boshqa hech kim ishonmadi.

Unday bo'lsa, deya farmon qilibdi Allohi taolo. Olamdagi barcha beaql bangilar yayrab-yashnab halovatda yashasin. Och qolsayam o'ynab kulaversin! Yalano'och qolsayam o'ynab-kulaversin! Xaroba xonasi ko'ziga saroydek ko'rinsin! Qolgan bandalarim esa o'z aqliga tayanib, ur-to'polon qilib, yugurib-elib, do'zax azobida behalovat bo'lib yashayversin!

Eshondada eshon bu qaysar bangining bemaza rivoyatini tushunolmadi.

Ishonch bilan itoat orasidagi bog'lanish qani? deb so'radi u. Masjid qani? Ahli jamoa va sunna qani?

Ishonchi yo'q kishining itoati kimga kerak, taqsim? beholgina tomog'i g'irillab yo'taldi u. Menga bu dunyoni savobiyam, gunohiyam, molu dunyosiyam kerakmas. Menga birgina Alloh bilan bir chekim nasha kifoya.

Dunyoga qo'l siltagan bangi bolalarining baxtiga ham qo'l siltab qo'rganini anglamadi. Xolmat bangi yetmish yoshgacha nasha chekib g'ujanak bo'lib yotdi. Kattagina yer-suv, molu mulk, chorva egasi bo'lmish Xorunboyning yagona o'g'li, kaftdek hovli va pastqam uy-dahlizda umr kechirdi. Yotarga to'shagi, yeyarga noni butun bo'lmadi. Umri nasha tuplari ostiga go'ng ko'mish bilan kechdi. Undan tug'ilgan to'rtta farzandga вѢбbangining bolasi вѢк degan tavqi la'nat meros bo'lib qoldi...

Yettinchi bob. Rahmon amakining armoni

Yoz quyoshi zaminni kuydirgudek alanga sochadi. Odamlar shaharning soya-salqin bog'larida jon saqlab, issiq zahrini kesish uchun yaxna choy, gazlangan salqin ichimliklar ichib, muzqaymoq yeydilar. Ayollar xitoycha yelpig'ichlari, erkaklar do'ppilari bilan yuzlari va boshlarini yelpiydilar. Mashinalardan taralayotgan achchiq tutun va issiqdan shahar havosi yoqimsiz va dim. Ochlikdan ichagi achishib, issiqdan tinkasi qurigan Shokir, kichik tumanga yetib kelib, Mahliyoga boy bergan uyga kirdi. Mahliyo da'vogar kelganini sezib, o'zini kasalga solib yotib oldi. Uydagi mulkning o'zi uch milliondan oshiq turardi. Jihozlar yarmi sotilganda Shokir qarzidan qutilib ketgan bo'lardi. Mahliyoga olib berilgan oltinlar o'zi milliondan oshadi. Mahliyo shuning yarmini bersa, Shokir uni duo qilib ketishga tayyor. Ammo Mahliyoning nafsini yo'ldan urib, o'zini balo-qazoga ro'baro' qildi.

Mahliyo, dedi kresloga cho'kkan Shokir, ochlikdan aftini burishtirib. Boshingma tushgan ahvolni ko'rib turibsan. Aslida sendan bu narsalarni butunlay qaytarib olish niyatim yo'q. Sevгимiz haqqi-hurmati meni qo'llavor. Uyni bermasang, jihozlarni yo oltinlarni qaytarib ber. Men o'zimni tiklab olay. Hali senga ko'p foydam tegadi.

Buni sira iloji yo'q, inqilladi Mahliyo. Oyim betoblar. Meni ahvolim esa mana bu. Rahmingiz kelsin. Rossiyaga borib ozarbayjon bolalardagi pullaringizni qaytarib oling. Axir uch-to'rt ming dollar pulingiz ularda qolib ketaveradimi?

U pullarni hozir undirolmayman, xotin, dedi xo'rsinib Shokir.

Meni qiyamang... o'zini to'shakka urdi Mahliyo.

Buncha toshbag'irsan, Mahliyo?! nafratli boqdi Shokir. Erta-indin ota-onam, bola-chaqam ko'chada qoladi. Meni to'g'ri tushun.

Hamkorlarimga qarz to'layapman.

Nega to'laysiz?

Qoidasi shunaqa. Qo'l-qo'lni taniydi. Sendan o'z mulkimni so'rayapman-ku, Mahliyo.

Ovora bo'lmang, hech narsa bermayman.

Topgan-tutganimni senga sarf qilganman!

Men bo'lsam sizga muqaddas badanimni bag'ishlaganman! o'chakishdi ayol.

Jahlimga tegma, xotin!

Sizam haddingizdan oshmang! fe'li buzilib hurpaydi u. O'tgan kuni oyimni haqorat qildingiz. Meni urdingiz. Siz g'o'rligimdan foydalanib, yo'ldan ozdirib, uylanib olgansiz. Sizdan o'n yosh kichikman! Ehtiyot bo'ling! Oyim sizni sudga berib qamatarmishlar!

Oying meni nega qamatarkan?!

Siz meni kasal qilibsiz. Do'xtirlar aniqlashibdi.

Nima-nima?!

Bu nayrangni ko'rgan Shokir ko'ngli xira bo'lib o'yga cho'mdi. Qaynonasi o'shanda qizining omadidan sevingan bo'lsa-da, sir boy bermay bir-ikki oy davomida qovog'ini osib yurgan, keyin kirishib ketgan va kuyovdan anchagina naflangandi. Bu ayolning ro'zg'ori, o'zidan yosh yangi eri va takasaltang o'g'ilchasining sarfu xarajati ham Shokir zimmasiga tushib qolgan edi. To'pori kuyov Mahliyoni aytarli oltinga tortib oldi desa xato bo'lmaydi. Shokir kasod bo'lgandan so'ng muttahaq qaynona, bu yergaga xo'mrayib kelib-ketadigan bo'ldi.

Agar, meni tinch qo'ymasangiz, bitta varaqqa hamma gapni yozaman. Keyin o'zimni o'ldiraman! Ehtimol siz nasha-pasha chekarsiz, shuning uchun meni azoblagandirsiz...

Nimalar deyapsan?! dedi g'azabdan titrab Shokir. Hamma buzuq, hamma nashavand seni atrofingda, qanjiq!

Nega tuhmat qilasan?! eshikni ko'rsatdi Mahliyo chaqchayib. A nu, poshyol!

Pullarni qaytar, tovlamachi!

Mahliyo sakrab o'rnidan turib, yugurib ayvonga chiqdi. Kichik tumanni boshiga ko'tarib ovozing boricha baqirdi.

Voy dod! Kim bor? Milisa chaqiringlar, qo'shnilar! Voy dod! Yordam beringlar!

Chinqiriq kichik tumanning baland binolariga urilib aks-sado berdi. Qo'rqib ketgan Shokir tuflisini qo'lga olib, uydan chopib chiqdi. Zinadan pastga yalangoyoq yugurib tushib, yo'lak ostonasida tuflisini kiydi. Sho'rlik oshiq Sho'rqishloq qaydasan deb yana piyoda jo'nadi. U keyingi paytlarda negadir qo'rzoq bo'lib qolgan. Qarshisidan kelayotgan notanish odam ham ko'ziga haqdor bo'lib ko'rinar, o'zini butun dunyo qarshisida qarzdor va aybdor sezar, qayerlardadir o'z haqi bor yoki yo'qligini esa eslolmasdi. Ehtimol soddalik qilib tushkunlikka tushib qolgandir yoki Mahliyo ichirgan ilmu amallar koridan aqlini yo'qotgandir, hartugur eshonzoda boyvachcha butunlay es-hushidan ayrilgan edi.

ВЪНЪO'shanda es-hushim qayda ekan? deb o'yladi u. Bu ayol nega buncha chiroyli ko'rindi? Shuni nimasi chiroyli? Baqraygan ko'zlariga bo'yoq chaplab, zahil yuziga qizil surkab, xaltadek osilgan tanasini kuylak bilan tortib oladi. Nega o'shanda men to'g'ri fikrlamadim? Ko'ngli kirligini nega hisobga olmadim? Aldangan g'arib qiz bo'lsa, nega biror hovliga kirib qo'lini kosov, sochini supurgi qilish o'rniga, begona shaharda zamonaviy tarzda umr kechiradi? Nima, shuncha aldangani ko'ziga kam ko'rindimi? Yo'q, Shokir, bu aldangan sohibjamol emas. Bu hammani aldab domiga tortadigan ozitqi! Aldoqchi, tovlamachi, o'g'ri, fohisha! Onasi bilan tili bitta buni. Agar hozir bu mahluqlar bilan non talashsang, o'zingni yo qamoqda yoki kasalxonada yoki bo'lmasa qabrda ko'rasan. Nashavand, bandit, ayollarni zo'rlovchi vahshiy, degan biror ayb bilan turmaga tushasan. Yoki birorta xudobexabarga pul berib, seni bir umrga mayib qiladi. Unda qari ota-onang, go'dak farzandlaring xarob bo'ladi. Eh, Shokir, oldinroq shu aqling qayerda edi?ВЪНЪ

Shohbekatda вЪНЪDamasвЪНЪ mashinasiga suyanib, Ahmad domlaning ukasi Rahmatilla turgan edi. U Shokirni ko'rib, ko'zi quvonib iljaydi.

Ha, uka? dedi Shokir horg'in salomlashib.

Bugun omad kelmadi, dedi haydovchi xomush. Odam yo'q. Loaqal benzinga mablag' chiqarib olganimdayam mayli edi.

Omadi ketgan odamga hech qayerdan najot yo'q ekan o'zi... o'kindi Shokir.

Qishloqqa qaytamizmi? so'radi Rahmatilla.

Ha...

Ikki omadsiz hamqishloq yo'l bo'yi har sohada hasratlashib bordilar. Mashinadan tushayotganda Shokir puli yo'qligini aytib xijolat bo'ldi.

Uka, og'ir kunimda kor keldingiz, dedi. Omadim kelganda sizni aslo unutmayman.

Men sizni yaxshi bilaman, Shokir aka, dedi Rahmatilla. Siz baribir suyagi butun yigitsiz. Xijolat chekmang, sizga yarashmas ekan.

Shokir bir tomoni adirlik, ikkinchi tomoni mahalladan iborat Adirko'chadan yurib borarkan, Rahmatilla bilan bo'lib o'tgan suhbatni esladi. Ahmad domlaki o'z ukasini ayamabdimi, Mahliyodan nima kutish mumkin? Tug'ishganlarning ham goho o'zaro do'stligi yo'q bo'larkan. Ining yaxshimi yo do'sting? Albatta inim yaxshi, agar u do'st bo'lsa!

Shu kungi ochlik, charchoq, dilxastalik Shokirning xotirasiga muhrlanib qoldi. Rahmatilla siymosida o'zi ko'rgan dunyo moli o'tkinchi ekaniga chinakam ishondi.

* * *

Supada yonboshlab yotgan Rahmon amaki Sulton xonasida ma'yus o'tirganini ko'rib, qiziqib uni kuzatdi. Sulton bir dasta qog'ozni titib, nimalarnidir yozib-hisobladi.

Sultonboy? dedi Rahmon amaki yotgan joyidan ovoz berib.

Ha, dada?

Sulton otasi yoniga kelib o'tirdi.

Nimalarni o'qiyapsan, o'g'lim? Sendayam es-xush bormi o'zi?

Bor, dedi Sulton. Nima, meni jinni deb o'ylaganmidingiz?

Deganim yo'g'-u, keyingi chog'larda juda g'alati bo'lib qolding-da. вЪНЪSulton shildir, Sulton pachavavЪНЪ, deb noming chiqdi, o'g'lim.

Nima bilan vaqtimni chog' qilay bo'lmasa? so'radi Sulton.

Rahmon amaki xo'rsinib bebosh bolasiga qaradi. Sulton ota-onasini tez-tez xafa qilar, keyin ularni quchoqlab, kechirim so'rab o'yinga tushar, ichib olsa hatto yig'lashdan ham qaytmasdi. Ba'zan xomush va o'ychan bo'lib qolardi.

Sultonboy? o'smoqchiladi amaki choy xo'plab. Nega o'shanda yo'l to'sadigan chegarachilarga ajratilgan pullarni bermading?

Qanaqasiga ular chegarachi bo'lsin? qovog'ini uydi Sulton. Savdoga borganingizda bilardingiz. Olatayoq ko'targanlar, har qadamda yo'l to'sib, pul talab qilaveradi. Hammasiga pul to'layversam, buyoqqa nima bilan qaytaman deb, qaysarligim tutdi.

Baxilni bog'i ko'karmas, o'g'lim. To'lash kerak edi.

Ortiqcha pul bo'lganida to'lardim, kuyunib tushuntirdi Sulton. Jiyan-larimga qishki botinka, palCHto olay degandim-da. Axir akam beparvoligini bilasiz-ku. Uyimizda bitta вЪНЪKamAZвЪНЪkimiz, bitta вЪНЪJigulivЪНЪkmiz bo'lsa, oborotda qirq million pul aylansa, jiyanlarim eski tufli kiya g'alati-da. Har bir yo'lto'sarga bir dastadan pul beraversam, bozorga so'ppayib kirib borardim. U

yerda pullarni akam jaraqlatib sanab oladi. Yangamni betiga qanday qarayman, deb shu ahvolga tushdim. Yangam bo'lsa, akamni yonini olib, mendan xafa bo'lyapti. Musichaday erlarini men bankrot qilibman.

Ha, o'g'liga achinib uni quchoqlab qo'ydi ota. Bo'lar ish bo'libdi, o'g'lim. Choy quyib beraymi? Choy ichasanmi?

Ichmayman, rahmat, Sulton qo'lidagi qog'ozlarni ko'rsatdi. Mana bunda bizni boshqalarda qolib ketgan hamma haqlarimiz yozilgan. Ozarbayjon, boshqird, o'ris bolalarda haqimiz qolgan. Ruslardan orttirgan VolodCHbka degan oshnamizdayam ancha-muncha pul bor. Mahalliy tanish-bilishlardayam bor. Lekin ulardan pul olish jon olish bilan barobar. Ular ham bizga o'xshab yo'lsiz. Akam kallasi achib hamma pulini Mahliyo bilan uning onasiga oldirib qo'ygan. Hozir ham nima qilayotganini o'zi bilmaydi. Sizni duolaringiz bilan Amerikaga borib olsam, bir-ikki oydayoq hamma qarzdan qutilamiz.

Amerikaga seni kim jo'natadi? xo'rsindi Rahmon amaki.

Bir yaxshi inson, mehri jo'shib Shurik delavoyini esladi Sulton.

Baraka topsin, dedi Rahmon amaki o'sha yaxshi insonni alqab.

Darvoza ochilib, xarobu xasta, ochu nahor, ezilgan kayfiyatda Shokir kirib keldi. U yengil salomlashib, otasining yonida o'tirdida, Sultonga yuzlandi.

Sulton, Bahromdan ikki yuz mingni olganmiding?

Ha, dedi Sulton.

Tezroq o'shani akashga berib qo'y. Qachon olganding o'zi?

Pul yo'q, aka, dedi Sulton botinmayroq.

Nega yo'q? fe'li aynib gezardi Shokir.

Uni men toshkentlik Delavoyga berib yubordim.

Nima?! Shokir irg'ib o'rnidan turdi. Unga nega pul berasan?

U meni Amerikaga yuboradi. Pasportimga viza ochdirib berdi.

Hoy, ahmoq! Eshakmiya yeganmisan?! baqirdi Shokir. U sendaqadan yuztasi qozonini suvga soldirib qo'ygan, eshshak! Nega unga ishonasan? Nega?!

Sodiq akashga nega pul beramiz? hayron bo'ldi Sulton. Akashni hamma boyligi bizni peshona terimiz.

Bunaqa gap savdoda yo'q! siqilib bo'g'ildi Shokir. Hazillashmay pulni o'rniga qo'y.

Pul Delavoyda ketgan dedim-ku!

Qachongacha meni chuv tushirasan! O'ldiraman seni!

Bo'ldi-da, aka! baland keldi Sulton.

Shokir Sultonni quloq-chakkasiga zarb bilan urdi. Sulton akasiga qo'l qaytardi. Bundan Shokirning g'azabi qaynab, uni ayamay savalay ketdi. Rahmon amaki shoshib o'rnidan turdi.

Hoy, bola, to'xta! To'xta! dedi qaltirab.

To'polondan kapalagi uchgan Karima xola, Oyxon va Obida hovliga chopib chiqishdi. Ayollar oraga tushishdan qo'rqdilar.

Rahmon amaki oraga kirib ularni ajratdi. Janjal to'xtadi. Sulton qonli tupugini yutib, alam bilan harsillab so'kindi.

Seni aka deyishniyam istamayman! dedi g'azabdan qaltirab. Sen qancha-qancha pullarni Mahliyoga sarflab yubording. Bizlar bu yerda suvog'i ko'chgan uyda mastava ichib yashadik! Sen bo'lsang, Mahliyo bilan koshonada konCHByak ichib, qazi yeb gashtingni surding! Aqlimni taniganimdan beri xizmatini qilib yugurdim! Evaziga olganim shu bo'ldi! Bor o'sha g'aringni oldiga!

Unga til tekkizma, hayvon! xasmi halolini himoya qildi o'dag'aylab Shokir. Tilingni tiy, bola.

Tiymayman! o'chakishdi Sulton. Seni xotining g'ar! Buni hamma biladi. U Alishergayam, Hamidgayam, mengayam osilgan! Sen lo'xsan, lo'x! Holing qalay endi-a?!

Uningni o'chir! Bu gapingni isboti bormi?!

Bor, xohlagan odamingdan so'ra! ko'zlarini chaqchaytirdi Sulton.

Nogohon Shokirning yorug' dunyosi qorong'i bo'ldi. U Mahliyoni halol emasligini oz-moz bilar, pushaymoni ichida yurardi. Lekin o'z ukasi, hamkor do'stlariga ham suyilgani sha'niga yomon dog' edi. Haqiqat ba'zan og'udek achchiq bo'ladi. Shokir alamini kimdan olishni bilmay, vujudida g'azab to'lib- toshdi. Ko'ziga baqrayib turgan beshafqat ukasi tishidan zahar tomizgan ilon bo'lib ko'rindi. Uni mushtlab, tepkilab ayovsiz ura boshladi. Sulton og'riq zo'ridan baqirib qarshi hujumga o'tdi. Ayollar chinqirig'i, erkaklar ur-sur na'rasi, dupur-dupur, taraqa-turuq tovushlar Sho'rqishloq osmoniga ko'tarildi. Salim va Zohida devor ortidan bo'y cho'zib janjalni tomosha qildilar. Yuz yillar davomida ibodatgoh bo'lgan, Eshondada eshon ibn Zunnur eshon xonadoni bamisoli shaytonlar qarorgohiga aylandi. Rahmon amaki hay-haylab baqirib yugurdi.

Biring o'lib, biring qamalib, qariganimda xor qilasanlarmi?! To'xtat! To'xtat!

Rahmon amaki chopib oraga kirdi. G'aflat bosib, Shokirning daydi mushti cholning mo'ysafid chehrasiga urildi. Chol ko'zi qorayib, supa yoniga yiqilib qoldi. Qulog'i chip bitdi. Karima xolaning javragani elas-elas eshitildi.

Otangni o'ldirib qo'yding, Shokir! Turg'iz otangni! Turg'iz!

Dadam tiriklarmi?! Tiriklarmi?! yig'lab yubordi Obida.

Mungli faryodni eshitgan, sho'rlik ota hushdan ketish niyatidan qaytdi. в Ёнь Bolam homilador, qo'rqib qolsa yaxshi bo'lmaydi, deb o'yladi chol va bir amallab ko'zini ochdi. Voy, bolaginam-a, o'zing ko'r bo'lsang, qiynalib bola tug'ib nima qilarding... Men bolalarimdan nima ko'rdimu sen nima ko'rarding? в Ёк

Shokir va Sulton cholni ko'tarib olib, avaylab supaga yotqizdilar. U bo'ynini cho'zib, qaqshab yig'layotgan Obidaga qaradi.

Tirikman... Obida qizim, qo'rqma Qo'rqma

Ammo u o'rnidan turishga mador topolmay, ko'zlarini yumib yotib qoldi. Ko'z oldini tobora quyuq tuman qoplab, o'zini o'zga bir fazoda ko'rdi. Xuddi tush ko'rayotgandek, otasi olamdan o'tgan kechadagi voqealar ko'z oldidan birma-bir o'ta boshladi.

* * *

Ahvoli og'irlashgan kuni tunda Eshondada eshon, o'z farzandi Rahmonga ko'nglini ochib, nimalarnidir aytgisi keldi. Uni yuz istihola bilan yoniga chaqirtirdi. Shamollab qolgan Shokir shu kecha qattiq isitmalab yotgandi.

O'g'lim, dedi eshon mungli ovozdada. Bizni vaqtu soatimiz bitgan ko'rinadi...

Dada, sizam yuragimni ezmang! jerkib berdi Rahmon. Bir tomonda Shokirtoyni isitmasi tushmayapti. Bu yoqda siz o'laman deb qo'rqitasizmi?

E-e! xijolatga botib qoqsuyak qo'llarini fotihaga ochdi bemor. Ilohim, bolaginamni dardiga shifo bersin. Shokirtoy omon

bo'lsinlar. Bizni yoshimizga yetsinlar. Boy yigit bo'lsinlar. Xalqni boshini silab yursinlar. Diydor qiyomatlik bo'lmasin degandik-da, bolam. Tokchadagi dadamdan qolgan Qur'onni olib, yostig'imiz ostiga qo'yib qo'ysangiz. Dilimizga dalda bo'lib tursin... Rahmon tokchadagi sariq rangli duxoba g'ilofli Qur'on kitobini olib, yostiq ostiga qo'ydi. Eshondada eshon Qur'onni qulog'i bilan o'qimoqchi bo'lgandek yostiqqa qulog'ini bosib jilmaydi.

Bo'ldimi, dada?

Bo'ldi, im qoqdi eshon va qadoq qo'llari bilan o'g'lining qo'llarini asta siladi. Vaqtingiz bo'lsa, kelib biz bilan bir oz dillashib o'tirarsiz, nuridiydam?...

Xo'p-xo'p, dedi Rahmon o'ris. Siz ko'nglingizni to'q qiling, bardamsiz, dada. Qari o'laman deb, yosh ketaman deb qo'rqitaversa, hayotimiz hayot bo'ladimi...

Ha, albatta, albatta... Bizdan dilingiz og'rimasin, o'g'lim...

Bu Eshondada eshonning o'z bolasiga aytgan so'nggi so'zlari edi. Rahmon amaki dog'da qoldi. Yarim tunga borib, buvasining duolari mustajob bo'lib, Shokirtoy isitmasi tushdi. Eshonning esa joni uzildi.

* * *

Kuchli zarbdan ko'z oldi tumanlashgan Rahmon amaki bir amallab ko'zini ochdi. U qaddini rostlab, bir oz vaqt holsizlanib o'tirdi. Keyin xo'rliqi kelib yig'lab yubordi. Ayollar jo'r bo'ldilar. Janjalkash o'g'illar, suvga tushgan mushukday shumtirab, supada o'tirib qolishdi.

Kechiring, xo'jayin, dedi aybdor Shokir boshini egib. Kechiring...

Kechiring, dada, qo'shildi Sulton.

Men sizni emas, Sultonni urmoqchi edim, dedi Shokir.

Sultonni nega urasan? milmillab yig'ladi chol. Axir Sulton jigarimni bir parchasi-ku, bolam?! Uni nega urasan?!

Men xato qildim. Kechiring, dadajon...

Rahmon amaki tobora xo'rliqi kelib, o'kirib yig'ladi.

Men bechora kechirgani qayergayam borardi. Men podshohmasman. Yoki xudomasman, bolam. Kechiradigan toju taxtim yo'q. Aslida hamma xatoni men qilganman! Men! Hammasiga o'zim aybdorman Ko'ksiga musht urdi u. Men nega shunday azoblarga qoldim... Nega hamma bolam sho'rpehona bo'ldi? Nega Obidam ko'r bo'ldi?! Bilasanmi?! Men ota-buvamni ilmiga xiyonat qildim. Bexudo kofirlarga qo'shilib, avliyo otamni ustidan kuldim. Topgan oqibatim mana! Men ahmoq musichaday o'limi oldidan otam dilini og'ritdim. Shokirtoy isitmada yotibdi, sizga nima bor xarxasha qilib dedim. Oxir-oqibat Shokirtoyim mushtini yedim! Hammasiga o'zim aybdorman! O'zim!

Rahmon amaki marhum ota-onasiga aza ochib uzoq yig'ladi. Devordan mo'ralab janjal tomosha qilayotgan Zohida bilan Salim ham yum-yum yig'lashdi. Karima xola ham jo'rlashib, erini boshini silab yupatdi.

Bo'ldi qiling, yig'lamang, dadasi... Bolalarimizdan og'rinmang... Otasini ranjitmagan bola bor ekanmi? Odam Atoniyam bolalari qiynashgan ekan. Sho'ringiz bo'lmasa Sho'rqishloqda tug'ilarmidingiz, dadasi?..

Sakkizinchi bob. Odamgarchilik

Rahmon amakining qizi Naziraga uylangan Oktabr Nug'monov o'ziga Oktabr ibn Partkom deya taxallus qo'ydi, Rahmatli otasi Sodiq partkom kutubxonasiga qamalib olib, eski yozuv mashinkasini ishga soldi va ilmiy risola yozdi. U ichkilikni ko'p ichganidan, hayotiy voqealarni aniq sharhlolmasa-da, ravon tilda ijod qila olardi. Muallif ilmiy risolaga qanday sarlavha qo'yishni bilolmay uzoq o'yladi. Va nihoyat unga вЂњOdamgarchilik qoidalarі вЂќ deb nom berishni ma'qul topdi. U aroq ichmagan kunlari, shirin orzular qanotida uchar, asarini Naziraga ovoz chiqarib o'qib berar, xotini alla eshitgan chaqaloqdek mudrab, xurрак otib uxlab qolar edi.

Shuyam odamgarchilik bo'ldiyu?.. Oktabr xafa bo'lardi, oyna oldiga o'tirib olib, qo'lini qilich qilganча, ovozini baland qo'yib o'qishda davom etardi.

вЂњBiz odamlar, deb yozadi Oktabr ibn Partkom o'z asarida, odamgarchilikni unutib qo'ydik! Hammamiz o'z foydamizni ko'zlab yashamoqdamiz. Aslida bizlar, bir-birimizning baxtimiz uchun kurashib, halolu pok yashashimiz kerak. Begonalar kulfatiga yig'lashimiz kerak. O'z nonimizni birovlarга berib, ulardan pul olmasligimiz kerak. Do'konlarda aroq-vinolarning narxi oshib ketdi. Xo'sh, nega shunday bo'ldi? Bunga kim aybdor? Albatta, biz o'zimiz aybdormiz. Biz o'z foydamizni emas, odamgarchilikni ko'zlab yashaganimizda, narx-navo ko'tarilib ketmagan bo'lardi. Nima uchun nonvoy nonni qimmatlashtirib qo'ydi? Nega qassob go'shtning narxini oshirdi? Haydovchilar nima sababга ko'ra yo'lovchilardan katta haq olishyapti? Chunki ular pulni sevishadi. Bizning barcha kulfatimiz pulга nisbatan muhabbatimizdan kelib chiqmoqda! вЂќ Ushbu mushohadalar bilan tanishgan Shodi piyon iliq so'zlar aytdi.

Qoyil, deb maqtadi u. Odamgarchilikni boplab sharhlabsan.

вЂњBiz o'zaro qanday muomala qilishimiz kerak? bitigini Shodi piyonga o'qiy boshlaydi ibn Partkom. Bir-birimizni вЂњo'rtoq вЂќ deb chaqirishni tashlaylik. Masalan, xotinlar bilan erkaklarning o'rtoqchiligi qanday oqibatга olib keladi? Buni izohlashning o'zi ham siyosiy sharmandalikdir! Amaldor bilan amaldor, chayqovchi bilan chayqovchi oshnachiligini qanday izohlaymiz? Sho'ro davrida bu illati urchib ketib, rahbariyat orasida noloyiq shaxslar juda ko'paydi. вЂњSuya-suyalizm вЂќ avj olib bordi. Natijada tuzum inqirozга uchradi. Biz eskilik sarqitini qoralaymiz va har qanday meshchanlikni yo'qotamiz. Eng ulug' nom вЂњOdam вЂќ degan nom. Shuning uchun bir-birimizга вЂњEy, odam! вЂќ deb murojaat qilsak, maqsadга muvofiq bo'ladi. Bu so'zni eshitgan har bir kishi zurriyodini eslab qoladi va o'zida odamgarchilik fazilatini paydo qilib, jinoiy faoliyatini to'xtatadi. Aks holda u hayvoniy xulqda yashashda davom etaveradi va hech qachon odam bo'lmaydi! вЂќ Oktabr va Shodmon kayflari oshib qolgan chog'larda qoidalar mutolaasidan charchamas, bir-birlariga вЂњodam вЂќ deb murojaat qilardi. Bor-yo'g'i qirq varaqlik risolani, Qur'on oyatlarini tafsirlagandek tafsirlab, baqirib-chaqiravergan oshnalar hamma yemakxonalardan haydalişhdi. Oqibat topgan-tutgan pullariga aroq olib, ko'chada tik turib ichib, uy-uylariga tarqaladigan bo'lishdi.

Barcha daholar mana shunday quvg'inga uchragan, so'z qotadi Oktabr chayqalib. Biz tobora o'sib boryapmiz, Shodi odam.

To'ppa to'g'ri, Oktabr odam! zavqlanib xitob qiladi Shodi piyon. Marks ham, EngelCHs ham bizni oldimizda kopeyka bo'ldi! Qadrdon ulfatlarlar Naziraning tilla uzugini sotib, pulini ichib tugatishdi va yanada mashhur bo'lib ketishdi.

* * *

Bir kuni shahar markazidagi pivoxonada Oktabr og'aynisi Shodmon bilan ko'proq ichib qo'ydi. Shodmon ichkilikdan o'zga narsa haqida o'ylamasdi. Oktabr esa unga nisbatan oliftaroq. Shuning uchun o'zini ustozday tutadi.

Odam nima uchun tug'iladi? deb baqirdi u pivobarni boshiga ko'tarib. Odam bu dunyoni anglash uchun tug'iladi. Sen, Shodi odam, hayotni anglaysanmi?.. Biror marta bu ahmoq kallang bilan вЂњhayot nima o'zi?вЂќ deb o'ylab ko'rganmisan?

Ha, dedi Shodmon. Shuning uchun alkash bo'lib qoldim-da, oshna! Eh, hayot, onangni! Buni men tushunmasam kim tushunardi. Sen parmani tushunasanmi, odam?! u barmog'ini chakkasiga qo'yib parma kabi aylantirdi. Bu hayot parma! Uchi ichingga kirib olsa bas! Aylanaveradi, aylanaveradi, aylanaveradi. Borgan sari ichingga yo'g'on dastasiyam kirib boradi. Sen esa bundan bexabarsan! Bir kuni dahshatli krizis! I, tamom, sen yo'qsan! Hayot shakar bilan boshlanib, tuz bilan tugaydi! Tamom! Kaput! Bu hayotda yashashdan hech qanday naf yo'q!

Yo'q! bosh chayqadi peshonasini stolga urib Shodmon. Foyda yo'q, Oktabr odam! Yuz grammdanam foyda yo'q! Bitta otib olsang hayot seniki. Qolganini onasini...

Ammo, dedi faylasuf Oktabr fikrga tolib yashash kerak. Juda kerak.

O-o-o! dedi Shodmon uni ma'qullab, qo'lini bigiz qilib. Albatta yashash kerak! Ilojimiz yo'q! Yo'q boshqa iloj, Oktabr odam!

Aslida, shartta o'lib ketsangam bo'laveradi! yana faylasufona o'yga cho'mdi Oktabr.

Sekin gapirasanmi? tuturiqsiz Shodmon unga jo'r bo'ldi. O'ylab o'tirmay o'lish kerak. Bu hayotni onasini!.. Hayotda haqiqat yo'q! Bir yoqlama o'ylasa shunday. Lekin, Shodi odam, kekirdi Oktabr. Hayotda haqiqat bor.

PravilCHno! oxirgi aroqni unga sezdirmay, stakanga quyib ichib yubordi Shodmon. Haqiqat bor! Uni biz ko'rmayapmiz, xolos, Oktabr odam.

Oktabr chala chekilgan sigaretini tutashtirib, tutundan achishgan ko'zini qisib, Shodmonga tutun puflab, bo'sh shishani tekshirib ko'rdi.

Men ko'ngil dardiga malham qidirib, hamma davralarga bordim. Otam qizil edi. Uni falsafasidan ko'nglim aynirdi. Men radioni qisqa to'lqini orqali вЂњAmerika ovoziвЂќni tinglab o'sganman. Hamma partiyalarga bordim. Mullalargayam bordim. Ko'nglimni dardiga davo topmadim. Kimga qarama boyishni, rahbar bo'lishni xohlaydi. Oktabr bo'sh shishani silkidi. Hammasi xuddi senga o'xshab o'g'ri! Hammasi vahshiy! Men bu dunyoga bironi o'ldirish yoki bevaqt o'lish uchun emas, yashash uchun kelganman!

Yoki gapim noto'g'rimi?

Istinnaya pravda! yig'ladi Shodmon, o'siq mo'yloviga burnini oqizib. Ha-hamma bir narsaga intiladi. B-bir narsa bo'lsa oz... Ha-hammaga yetmaydi... Kel, bir o'pay seni, odam!

I-i! Oshna, burning oqib ketdi, artib ol, jirkandi Oktabr, ulfatining mo'yloviga qarab va faylasufona o'y surib uh tortdi. Ehhe, seni usting kir, ularni esa ichi kir. Hammangiz jirkanchsiz. Uningizam, buningizam ko'nglimni aynatasiz... Ming la'nat sizlarga!

Men bobom Nug'monovga o'xshab, odamlarni o'limga mahkum qilmayman. Otamdek sovun ko'pigiga o'xshash ma'ruza o'qimayman. Menga bu olamdan hech narsa kerak emas! Men odamgarchilikni targ'ib qilaman!

To'ppa to'g'ri! Bu ishda otangni arvohi senga yordam beradi! deb g'uldirdi yuzini stolga qo'yib mudrayotgan Shodmon.

Yo'q, Olya, dedi kayfi oshgan daho, biz endi boshqa yo'ldan boramiz!

Kim Olya? Og'zingga qarab gapir, Oktabryat! xafa bo'ldi Shodmon.

* * *

Eshonzoda Nazira partkomvachcha Oktabrning xurmacha qiliqlaridan bezor bo'ldi. Ayniqsa uzugining sotib ichib yuborilishi va o'ziga nisbatan вЂњxotin odamвЂќ deb murojaat qilinishini sira kechirolmadi. U oxirgi piyoz va yog'ni, jiz-biz qilib non bilan yeb olgach, o'g'lini, ya'ni eri aytmoqchi, вЂњo'g'il odamвЂќ Jahongirni, qa'ysinglisi вЂњLemaren odamвЂќ Ominaning uyiga olib kelib tashladi. Oktabr o'z farzandini juda sevadi. To'rt yoshli Jahongir ham usiz yasholmaydi. Nazira bo'xchasini qo'ltiqlab, Rahmatilla вЂњDamasвЂќga o'tirib, Sho'rqishloq qaydasan, deb yo'lga tushdi. U ilgari bir oz erkato'y, sarvqomat, kulib turgan jozibador qiz bo'lib, unga Sho'rqishloqdagi ko'p yigitlar oshiq edilar. To'y xabarini eshitib, ba'zilar aroq ichib, mastlik qilib yig'lab-siqtashdi. Bunday adolatsizlikdan g'azablangan yigitlar kuyov Oktabr va uning jo'ralarini do'pposlashga hozirlik ko'rib qo'yishdi. Xayriyatki, Shokir va Sultonning haybati qalqon bo'lib, to'yga kelgan kuyov jo'ralar bir amallab omon-eson o'z uylariga yetib olishdi.

Nazira mashinada borarkan, shularni eslab ko'ziga yosh oldi. Lekin o'g'li Jahongirni eslab, jilmayib yuzi yorishdi.

Siz Oktabr alkashni xotinasiz, a? so'radi oldingi o'rinda o'tirgan yigit. Kecha eringiz ko'chada g'irt mast yurgan ekan. Oyog'ida o'rnamaydi deng. Sizga qiyin bo'ldi-da.

Nega alkash bo'larkanlar? achchiqlandi Nazira. Hecham alkashmaslar. Hozir meni erim katta ilmiy ish yozyaptilar. Boshlari charchaganda, bir oz ichib ulfatchilik qiladilar-da. Sizga og'irligi tushmasin, bo'ptimi?!

Mashinada o'tirganlar orasida, noqulay vaziyat yuzaga kelib, sukunat cho'kdi. Haydovchi xushlamaygina g'iybatchi yigitga qarab tanbeh berdi.

O'ylamay suylamang, uka, dedi u va Naziraga xayrixoh nazar tashladi.

Rahmat, singlim. Niyatingizga yeting. Er yigitni boshidan har turli savdolar o'tib turarkan-da. Ilohim, eringizni ilmiy ishlariga rivoj bersin.

Nazira qishloqqa yetib kelib, uyi yaqinida mashinadan tushib qoldi. Xijolatdan boshi egildi. Qo'lidagi bo'xchasini ko'rib, ko'chada turgan ayollar unga qarashar, boshiga tushgan kulfatni bilgilari kelar, uzoqroq gapga solishga urinardilar. Nazira hech kimga sir bermay, uyiga yetib oldi.

* * *

Rahmon amaki o'sha kungi janjaldan keyin, xafalanib supada yotaveradigan odat chiqardi. Uni yelpib o'tirgan Karima xola, pichirlab qaynonasi o'rgatgan duolarni o'qir, erining dardiga xudodan shifo so'rardi. Obida esa otasining boshini bosib o'tirar, og'ir o'yga cho'mgan edi. Qo'shni hovlidan shang'illab Zohidaning qarq'agani eshitildi. Salim uni haqoratlab baqirdi. Bir narsalar taraqlab ketdi. Devordan gup etib bir tugun tushdi.

Nima?! hamma bir ovozdin xitob qildi.

Bular uyimizdan yo'qolgan narsalar, dedi Obida.

Sen qayerdan bilasan? dedi ishonqiramay Karima xola.

Oyxon shoshilib tugunni yechdi.

Iya! Rost ekan! dedi ajablanib.

Rostdanmi, qizim?.. yalt etib Obidaga qaradi xola.

Rahmon amaki ham supaga keltirilgan tugundagi tovoqlar, paqir, mototsikl chirog'i, o'roq, qosh tergichlarni tomosha qildi.

Sen bo'lsang Oyxonni ayblading, dedi u kampiriga.

Hech-da! Karima xola xijolatga botib Oyxonga qaradi.

Men Oyxonoyim kimligini bilmasmidim? Oyxon, sizga biror marta tuhmat qilganmidim?

Yo'q, noiloj aldadi kelin. O'zimni onamsiz-ku, oyijon...

Karima xola topilgan narsalardan ham ko'ra ko'proq Obidaga termilib qoldi, ko'z o'ngida qizi avliyoga aylandi.

Bu xonadonda o'g'ri yo'q, dedi Obida. Johillar borligi rost.

Bu jaholat qayerdan paydo bo'ldi o'zi hayronman... kiftini qisdi Rahmon amaki.

Bu jaholat sizni jahlingiz, dada.

Nega meni jahlim bo'lsin, qizim?

Axir biz tug'ilganimizda jahl qilishni bilmaganmiz. Hammasini sizdan o'rgandik. Oyim ikkingiz juda ko'p urishardinglar. Yoqub akam, Shokir akam, men yig'lab, sizlarni ajratardik. Esingizdami?

Esimda...

Olim akam sen jahldorsan deydilar, kuldi Obida. Sizni qizingizman-da.

Sen hecham jahldormassan, Karima xola gapni bo'ldi. Sen, qizim, avliyosan. Qaynatamdan senga yuqqan avliyolik bor.

Dadamiz hamma narsani oldindan bilardilar. Bundan ko'ra duo qil, Obida. Ishlarimiz tezroq o'nglanib ketsin.

Xotininga Rahmon amaki jo'r bo'ldi.

Bekor gap, qizim, hecham jahldormassan! Sen farishtani o'zginasisan. Birorta bolam senga o'xshamaydi. Nega o'xshamaydi?

Ularni men mana shunday rasvo qilib o'stirdim. Sen ko'rlar maktabida o'qib, meni zahrimdan omon qolding! Oyingniyam nohaq ayblardim. Hamma ayb meni o'zimdada.

Mendayam ayb yetarli, tan oldi Karima xola. Bundan keyin nolimaymanam, qarq'anmaymanam. Odamlar o'z bolasiga vaqti kelib yukinarkan desalar ishonmasdim. Men bugun Obidamga yukindim.

Yaxshi yoki yomon yashash o'zimizga bog'liq, dedi Obida. Lekin anavi tugunni bugun devordan tashlab qo'yishlarini men oldinroq bilardim.

O'zimizni Zohidaxon-da, a? so'radi Rahmon amaki.

Birovni ayblash gunoh, dedi Obida. Zohida opamiz yaxshi inson.

Kelinglar, dedi Karima xola. Bundan keyin tinch yashaylik. O'lmaganimizga shukur qilaylik. Dadasi, keling, bir duo qiling, bundan keyin hammamiz tinch yashaylik.

Eshonzodalar ixlos bilan qo'l ochib, uzundan uzoq duo o'qishdi. Duo tugamay turib, darvoza taraqlab ochildi va uvvos solib yig'lagancha Nazira kirib keldi. U he yo'q, be yo'q bo'xchasini otib yuborib, supada o'tirdi-da, bolaligidagi kabi lablarini cho'chchaytirib, yig'lashga tushdi. Kap-katta xotin shunday hunar qilsa kimning aqli shoshmaydi. Xonadon ahli kalovlanib qoldi.

Nima balo, dedi tipirchilab Karima xola. Qo'shnilar bu tugunni amal qilib tashlashdimi? Uyimizdagi janjallar bunikiga ko'chib o'tsin deyishgan-da! Ha, xudo bexabarlar! devor yoniga borib bor ovozda qarq'ana ketdi. Iloyo, kim shu xonadonga yomon ko'z bilan qaragan bo'lsa, ko'zi oqib tushsin! Amal qilganlarni amali o'ziga qaytsin! Bu ifloslarni dastidan ko'chib qutulaman shekilli?!

Ha, uzun-qisqa bo'lmay o'lgurlar!

Hoy, muttahaq bola!?! Naziraga baqirdi Rahmon amaki. Bu nima qiliq? To'xtat yig'ingni!

Ha? Ering urdimi?! so'radi Karima xola Naziraga yaqin kelib.

Yo'q! yig'ladi Nazira.

Uyingga qaytib ketasanmi?

Yo'q!

Ha, yergina yutgur! O'z tashvishimiz ozmidi?! Sen nega kelding?!

Bo'lmasa qayga boray? Ochiq mozorga boraymi?!

Boshimga balo bo'lib tug'ilgan ekansan, yashshamagur!

Oyi?

Nima deysan?

Bolam shaharda qoldi. Borib opkelib bering!

Uni opkelib o'ligimga azob tushibdimi? shang'illadi xola. Senlarni dastingdan sabru bardoshim ado bo'ldi!

Olib keling bolamni! baqirdi Nazira.

Itidan bo'lgan qurbonlikka yaramas! Kimga kerak bo'lsa o'sha yugursin!

Chidamasangiz nega tug'dingiz?!

Nazira yana-da balandroq yig'lashga o'tdi. Rahmon amaki asabi buzilib, Naziraga baqira ketdi:

Nega yana qochib kelding, muttahaq?

Uyda yegani non qolmasa nima qilay? Ochimdan o'laymi? O'laymi?!

Karima xola qoni qaynab, choynakdan sovuq choy quyib ichdi. Asabiylashib, o'zini bosolmay, nari-beri yurgancha javrashga tushdi:

Iloyo sevging bilan qo'shmozor bo'lgurlar! O'shanda aytganman-a! Aytganman! Erkak quda siyosatdon ekan shundan ehtiyot bo'laylik deganman! Ha, sevishmay qurib ket! ВЪНЪSho'rqishloqdan ertopar qizlar chiqib qoldi ВЪНЪ, degan gaplarniyam ko'tarib yurdim. Qaynotang nima derdi? partkom No'g'monov iborasini esladi xola. ВЪНЪQo'lni-qo'lga berib, o'rtoq quda, porloq kelajakka boraylik. O'lsak kelajak avlod xotirasida abadiy qolaylik! Avlodlarimiz osmonni egallashadi! ВЪНЪ He, ordona! Shumi osmonni egallagan!?! Bitta xotinini eplab boqolmasa, osmonni qanday egallaydi?! Yaxshiyam qaynatang ertaroq o'lib qoldi, bo'lmasa nevaramni oti Gagarin bo'lardi! Uningni o'chir!

Qornim och! hiqilladi Nazira.

Bor, oshxonaga kirib ul-bul narsa yeb olaqol, dedi Rahmon amaki. Ovqatni supaga olib kelishguncha horib qolmagin yana!

Nazira har gal shu qabilda tomosha ko'rsatib, bir amallab uyga kirib oladi. Shundan keyin uni hech kim urishib haydamaydi. Biror hafta qorni to'yib ovqatlanib, kuchga to'lib yana shaharga qaytadi. U bugun ham har galgidek, alohida taklif kutib o'tirmay, qo'lini

ishqalab oshxonaga kirib ketdi. Shu desangiz, bechora qiz shirin taomni juda yaxshi ko'radi-da. Ayniqsa, unga Oyxonning qo'li xush yoqadi. Ammo u bu safar dasturxonga qo'yilgan ovqat va nonni ko'rib, bir oz hayron bo'ldi.

Bu qanday ovqat, yanga? deb so'radi xontaxta yoniga o'tirib.

Bizam qarzga botib, g'arib bo'lib qoldik, dedi Oyxon. O'zga iloj yo'q, o'rgilay!

Nazira g'amga botib xo'rsindi.

Juvon o'lgur nayrang qilib, akaginamni sindirdi-da.

Rahmon amaki, Karima xola, Oyxon, Obidalar, Nazira qornini to'ydirib olgandan so'ng, uni oraga olib miriqib suhbatlashdilar. Uzoq jahll qilishgani uchun ruhiyat posangisini rostlashdi chog'i, har doimgidan uzoqroq kulishdi. Bolalikdagi xurmacha qiliqlarini eslatib, Karima xola Nazirani mazaxlab o'tirdi. Oktabr bilan Nazira eshonoyimning muhabbatlari haqida gap ochilib ketdi. Karima xola nashtar sanchib hazillashdi:

Ha, sevgini katta siyg'oqlarga chiqargan ekan. Biz kichkina bir odammiz. Nimaniyam tushunardik.

Oyi...! Uff! zarda qilib ming'irladi Nazira.

Yoshi o'n to'rtga chiqqanida ham bu uyqusevar qiz bir-bir b'ishb'ik ko'rsatib qo'yardi. Karima xola, shu qizining kelajagidan qo'rqib, yurak hovuchlab yurardi. Oldingi nashtardan ko'ngli to'lmagan xola, shularni eslab, qizini yana bir marta uzib oldi.

Ha, qiz boqqanni sho'ri qursin. Uyog'ini o'pirib kelarmikinsan, deb qo'rqsam, buyog'idan ko'zingni yoshlab kelding, tirjaydi u.

Qaynota-qaynonangga, ering Oktabrga moslab tuqqan ekanman o'ziyam! O'xshatmasa uchratmas! Ering ilmiy ishlar yozib turibdimi ishqilib? Hukumatdan pul kelay deb qoldimi?

Qarindoshlar qah-qah urib kulishdi.

* * *

Ertasiga hovlida Shokir, Sulton, Nazira va Obida, Oyxon va Karima xola jamlanib qolishdi. Tushga yaqin eshonlar xonadoniga xudoning nazari tegib, hatto Yoqub qonqaynatar ham ahvol olgani keldi. Sulton quvonib Shokirga ko'z qisgach, Yoqubni quchoqlab ko'tarinki ruhda xitob qildi:

Bugundan boshlab bu ulug' kunni har yili hayit sifatida nishonlaymiz!

Ola-a!.. bazo'r irshaydi erinchoq Yoqub.

Yoqub Rahmon amakining katta o'g'li. Gavdasi yumaloq, yuzi sariq va sergo'sht, bilaklari yo'g'on, sertuk, ko'zi sal ko'kka moyil, bir oz jahli tez va bir vaqtning o'zida anchagina beparvo. U shiftga tikilib sukut saqlab, bemalol besh-olti soat bir joyda o'tira oladi. Shunchalar erinchoqki, yuziga ikki pashsha qo'nib hunar ko'rsatsa ham qo'rimay o'tiraveradi. Eshonlar oilasida birgina shu so'zamollik san'atidan benasib qolgan. Mabodo zarurat sezmasa, bemalol bir-ikki hafta gapirmay yuradi. Sho'rqishloq yigitlari bu ahvoliga ajablanib yoqa ushlaydilar. Uylanmasdan avval bir chiroyli yigit edi. Aroq ichib mast bo'lib qolsa, b'ishb'ir o'pay, otam! b'ik deb chollarniyam hol-joniga qo'ymay, ko'chama-ko'cha ortidan quvlab yurardi. Ana shundoq yigit mana bundoq gum bo'ldi-qoldi. Nega bunday bo'lib qolgani sababini Karima xoladan boshqa hech kim bilmaydi. Qiziquvchilar bu haqda undan so'rasalar:

E-e-e!, deydi xola qo'l siltab. Bunga xotini noboproq narsa yedirib qo'rgan!

Yoqub gapni sudrab gapiradi, jahli chiqqan yoki quvonib ketgan chog'da, b'ishb'ola-a-a! b'ik deb xitob qilishdan nariga o'tmaydi. U supada o'tirganda soat o'n edi. Oradan uch soat o'tgunga qadar ikki og'iz so'z aytdi, xolos.

Roppa-rosa tushida hovliga ibn Partkom halloslab kirib keldi.

Salom! Salom! Salom! deb bidirladi u, hammaga yuzlanib. Mehnatkashlar ommasiga alangali salom!

Assalomu alaykumni qudam rahmatli tushirib qo'ygandi, o'g'li bechora haliyam izlab topolmaydi, dedi xushlamasdan Karima xola. Poyonozga qayga boray endi.

So'lim Sho'rqishloqqa gavjum Namangan shahridan alangali salom! hamma bilan birma-bir qo'l olishib so'rashdi Oktabr.

Bilaman, hammangiz ommaviy ravishda mendan ahvol so'ramoqchisiz. Hamma ishlar joyida. Faqat, shu desangiz, bizni malikai Dilorom yo'qolib qoldilar. U kishi mabodo bu yerda emasmilar? Sizlardanam bir hol-ahvol olay, degan maqsadda, quruq bo'lsayam shoshilib kelaverdim. Dasturxonga ovora bo'lmanglar. Quruq keldim, quruq ketaman. Dadajon, bitta zanjigayushiy fotiha bering! Oktabr Rahmon amakining yoniga o'tirib, undan oldin fotiha o'qib qo'yaqoldi. Hay, mayli. Birligimiz yo'qolmasin.

Omin!

Tavba, dedi Rahmon amaki bosh chayqab.

Hamma gap shundaki, dadajon odam, savolni kutmay, axborot beraboshladi kuyov. Men vaziyat taqozosiga ko'ra, vaqtinchaga, besh-olti yildan beri ishlamay turibman.

Ha, besh-olti yildan beri, im qoqdi chol ma'qullab.

Ha, bor-yo'g'i besh-olti yil. Och qolganimiz yo'q, dedi u Oyxon keltirgan nonni o'zi ushatib, bir burdani tishlab chaynalarkan.

Musulmonga nima kerak? Mana shu non kerak. Shu sababdan sho'rolar o'zbeklarga faqat non berishardi, xolos. Nonu iymon deydinglar, to'g'rimi, dadajon? O'zbekka iymon bo'lsa bo'ldi-da. Boshqa narsaning nima hojati bor? Hiq! Hiq! yutgan luqmasi tomog'iga tiqilib, qiynaldi ibn Partkom.

Oyxon, tezroq choy keltiring, dedi Karima xola. Yana non tiqilib, shunday kuyovimdan ayrili-i-i-ib qolmay.

Naziraxon odam ko'rinmaydilar? so'radi Oktabr.

Nazira! chaqirdi Karima xola. Chiq, Oktabrjon keldi, qizim.

Ichkari xonadan Nazira chiqdi. Ostonada eshikka suyangancha, tirmog'ini o'ynab, yerga qarab turaverdi. Oyxon choynakda choy keltirdi. Qishloqcha usulda Oktabrga katta piyolanib to'ldirib choy quyib berdi.

Rahmat, yanga odam, dedi Oktabr piyolani olib va yasama xursandlik bilan Naziraga yuzlanib kuldi. Iya, sizam shu yerdamingiz? Axir biz siz bilan hiyobonda uchrashmoqchi edik-ku!

Qaysi hiyobonda? to'ng'illadi Nazira.

Sevishganlar hiyobonida-da, Oktabr choyni issiq xo'plab qo'yib, yutib yo tuflab yuborolmay rangi bo'zarib ketdi.

Voy, bechora, dedi Oyxon chetga. Och ekan...

Uff! Uff! Uff-u-u! Mehmon og'zini katta ochib, og'zidagi choyni puflab sovutdi, choyni yutib olgach, yengil tortib, yuziga qon yugurdi. Xayriyat, o'tib ketdi...

Nega xayriyat deysiz? yig'lamsiradi Nazira. Men uyingizga qaytib bormayman. Meni olib ketaman deb ovora bo'lmang.

Oktabr g'ayrat bilan non yeb, choy ichishga tutindi.

Unday demang, Naziraxon. Hali hammasi joyiga tushib ketadi. Men hozir katta-katta ilmiy ishlar qilyapman. Keyin juda boyib ketamiz, u atrofdagilardan najot kutib, hammaning ko'ziga birma-bir nazar soldi. O'ziga hamfikir topolmagach, ko'zi ojiz Obidaga yuzlandi. To'g'rimi, Obida opa?

To'g'ri, im qoqdi Obida. Hammasi o'tib ketadi.

Uyda yegani non yo'q, yig'ladi Nazira. Bu kishi bo'lsa, siyosat sotganlari-sotgan. Odamgarchilikka to'g'ri kelmas ekan deb, hamma ishdan bo'shayveradilar. Quruq gap bilan tirikchilik o'tarmidi. Buning ustiga ichganlari-ichgan.

Odamgarchilik masalasi, bugungi kun tartibida turgan eng muhim masala, dedi Oktabr. O'zingiz o'ylab ko'ring. Biz nima uchun kiyim kiyamiz? Chunki, bizlar ongli mavjudotimiz. Odam bo'lganimiz uchun sevamiz, ishlaymiz, uyalamiz, ashula aytib, o'yinga tushamiz, she'rlar o'qiyamiz, suhbatlar quramiz. Ey, odam, agar bir-biringni haqqingni yeb, toshbag'irlik qilib qorin to'ydirsang, ovora bo'lib odamchasiga yashashing shartmi? Uy-joy, kiyim-kechak, bu bosh og'rig'i ro'zg'orni nima hojati bor? Undan ko'ra yalang'och yurib o'rmonda yasha! Birorta maymunga uylanib olib, daraxtma-daraxt sakrab yuraver!

Yana qanaqa maymunga uylanmoqchisiz? achchiqlandi Nazira.

Bizga bittasi yetib ortadi, boshqasiga uylanish niyatimiz yo'q, deb kesatdi Oktabr. Xullas, azizlar, odamgarchilik tuyg'usi hayotda juda muhim. Tushunyapsizmi? Agar bizlar inson bo'lsak, bizlarga pulning nima keragi bor? Undan ko'ra odamgarchilikni o'zini qo'llasak-chi? Masalan, Shokir akam odamgarchilik qilib, hozir menga bir qop un beradi. Uni hisobiga, bir karra odamgarchilik yoziladi. Keyin Yoqub akam o'z mashinasida meni uyimga tashlab keladi. Mashina haqqiga o'z kissasiga bir norma odamgarchilik ishlaydi. Shunda, eng boy odam kim deb so'ralganda, eng ko'p odamgarchilik qilgan odam boy bo'lib chiqadi. Zamonlar o'tib, odamgarchilik bobida millioner boylar paydo bo'ladi. Milliardlar paydo bo'lishiyam mumkinu lekin bu aqlga sig'maydi. Bu haqda ilmiy izlanishlar olib borish lozim.

Xonaki daho yana siyosat boshladi, dedi Nazira kesatib.

Xo'sh, unda chet el bilan qanday aloqa qilamiz? so'radi kulgisi qistab Shokir.

Ularda dollar, tanga, rublCH, manat, griven bo'lsa, tashqi savdo qanday yo'lga o'yiladi?

Mol ayirboshlaymiz, aka odam, uqdirdi Oktabr. Tushunyapsizmi? Biz ulargayam odamgarchilik qilamiz. Ularga tekinga non beramiz, osh beramiz, maishiy xizmat ko'rsatamiz. Evaziga ulardan bir tiyin olmaymiz! Ular o'z qilmishlaridan uyalib, hamma pullarini o'tga tashlab yoqib yuborishadi. Xijolatdan qizarib, lavlagi bo'lib qolishadi! Meni tushunyapsizmi? ВЪНЪ O'zbeklar ana shunday yasharkan! Bizlar sho'rpehona bo'lib, nega bu ahvolda tentirab yuribmiz, ВЪН deb yig'lashadi. Ba'zi ajnabiy siyosatdonlar, bu sharmandalikka chidolmay, o'zlarini o'zlari otib tashlashadi. Hamma millatlar to'g'ri yashashni o'rganish maqsadida, eshigimizga bosh urib keladilar. Boyliklarini bizga tashlab, bu yerdan odamgarchilik olib ketishadi. Davlatimiz boy bo'ladi. Hammamiz pullarimizni o'choqqa qalab yuboramiz.

Ola-a-a! qornini silkillatib kuldi Yoqub. Pula-a? Pu-u-ul! Puldan hech kim kecholmaydi.

Undan ko'ra halol ishlab, halol pul topib, boy bo'linglar, o'g'lim, dedi amaki.

Yo'q, aslo, dada odam! dedi qizishib Oktabr. Pul bor joyda odamgarchilik ado bo'ladi! Bunday yomon ishga qo'l urib bo'lmaydi. Ana! Boylar shaharda to'lib yotibdi. Hammasini qo'sh-qo'sh xotinalari, mashinalari bor. Sasib achigan pullari, chang bosgan oltinlari behisob. Ammo odamgarchilik nolCH! Hayotlari g'urbat! Tunlari o'g'ridan qo'rqib uxlo olmaydi sho'rliklar. Ular sho'ro davridayam pullari sandiqda sasib yotgan chirik boylar edilar. Endi bu kasalliklari yuz barobar kuchayib ketdi. Shuyam boylik bo'ldimi? Mana, men ulardan ko'ra boyroqman, ya'ni odamgarchilik masalasida boyman. Shu boylik menga yetib- ortadi.

Boy bo'lsangiz nega qorningiz och, boy pochcha? kuldi Sulton.

Chunki, hozirgi banklarda, odamgarchilik degan pul birligi muomalaga kiritilmagan, xo'rsindi Oktabr va non chaynashda davom etdi. Bu nonni ichida g'ichirlagan narsa bor ekan. Sizlarga odamgarchiligi yo'q qashshoq savdogar un sotibdi.

Shunisigayam shukur qiling, dedi Nazira. Odamgarchilik deyverasizu uzugimni o'g'irlab, sotib ichib yubordingiz. Shu ishingiz odamgarchilikka to'g'ri keladimi?

Bu arzimas texnik xatoyimni kechiring, parvo qilmay chaynaldi Oktabr. Oshnam Shodmon odam ikkalamiz choyxonada xamir ovqat ichayotgandik. Sizni uzugingizni unga ko'rsatib maqtandim. U Shodmonni qoshig'iga tushib ketdi. Shodmon hamiroshga qo'shib, uzukniyam yutib yubordi. Haligacha ketini poylayman, qani edi chiqa qolsa? Yaqinda do'xtirlar qornini yorib olib berisharmish. Siz aslo uzukdan xavotir olmang. Uzuk judayam ishonchli joyda turibdi.

Obida sharaqlab kulib yubordi.

Bo'ldi, dedi yig'lab Nazira. Hadeb mazax qilavermang. Uzugimni topib bermasangiz siz bilan ortiq yashamayman! Bidingizmi?! Yashamayman!

Oraga sovuq sukunat cho'kdi. Oila a'zolari ham, kuyov ham noqulay ahvolda qoldilar. Obida bir oz achchiqlandi chog'i, peshonasi tirishib, qoshlari chimirilib, lablari titrab, uzun kiprikleri pipiradi.

Nazira, dedi qo'lidagi uzukni yechib. Ma, o'sha uzukni o'rniga menikini olaqol.

O'zing-chi, opa? yugurib borib uzukni olib tomosha qildi Nazira. Shu uzuging judayam chiroyli-da!

Bugundan boshlab uzuk seniki, dedi Obida. Boyagi so'zni esa qaytib og'zingga olma.

Odamiylik harakati dohiysining ishtahasi bo'g'ilib, qo'lidagi nonni dasturxon chetiga qo'ydi. Boshi egilib, uzoq jim qoldi.

Unday qilmang, Obida opa, dedi ming'irlab. Men albatta ishga kirib, o'sha uzukni qaytarib olib beraman. Siz meni odamgarchilikdan chiqarmang. Mana, men birpasda qashshoq bo'lib qoldim. Hammasini siz yutib oldingiz. Uzugingizni qaytarib oling.

Menga uni keragi yo'q, so'qir ko'zlarini yumdi Obida. Men baribir uzuk chiroyidan bahra olmayman. Oltinni misdan hidi orqali ajrataman. Sizlarni ko'zingiz yashnaydi. Siz yaxshi odamsiz, Oktabrjon. Sizni hurmat qilganim uchun berdim. Oshnangiz Shodmonni qornini yormanglar. Bechorani bola-chaqasiga jabr bo'ladi.

Nazira xayoli bo'linib, qo'lidagi uzukka tikildi. Uni har holatga solib tomosha qildi. Obidani quchoqlab, yuzidan o'pib qo'ydi. Karima xola esa peshonasini tirishtirdi. Obida va Olim o'zlariga to'q yashaydilar. Ortiqcha hashamga berilmaydilar. Mehnatsevar Olim ko'p ishlaydi, tuzukkina pul topadi. Ba'zan ish vaqti tugasa ham, dastgohdan turmay ishlayveradi. Ming'irlab qo'shiq aytib, shukur qilib, namoz o'qib, o'tgan ota-buvasiga atab qur'on tilovat qilib, zerikish nima bilmay yashaydi. Karima xola shularni o'ylab, yana ojiz Obida va Olimni ilohiy maqomatda ko'rdi.

Kech kirgunga qadar Oktabr kuyov Sho'rqishloqda mehmon bo'ldi. Sulton uni o'z xonasiga olib kirib, unga yaqin kelajakda qilajak safari haqida maqtanib ko'p gapirdi. U orzu-xayollarga berilib, toshkentlik Shurikni, uning ustozini mama Rozani og'iz ko'pirtirib maqtadi. Suhbatga yakun yasarkan:

Mana shunaqa, pochcha, dedi shirin entikib. Bizam amerikalik bo'lib ketdik. Yaqinda jo'naymiz. Elchixonadan xabar kelishiga qarab turibmiz, xolos.

O, amerikalik o'zbeklar! xitob qildi Oktabr. Vatangado sho'rpehonalar! Ularga achinaman. Afsus, ularni qutqarishga hozircha o'qizmiz. Ularni boylik degan ajdarho yutib yuborgan. Odamgarchilik esa ado bo'lgan! Siz, Sul-ton odam, u yerga borgach, Amerika xalqiga mening nomimdan salom ayting.

Xo'p, dedi Sul-ton va'da berib. Salomingizni albatta yetkazaman. Eh, ser pechcho! Billsangiz edi. Bill Klinton bilan uchrashmoqchimani. Unga aytadigan ko'p gaplar bor. Sho'rqi-shloq mevalarini NCHyu-Yorkda, Vashingtonda sotish kerak.

Ha, siz haqsiz! dedi qaynisidan besh battar xayolparast Oktabr, kamoli ishonch bilan. Ularga qiyin. Bechoralar banan, kakos, ananas, mango-pangolarni yeyverib ichlari shilini-b ado bo'lgan. Bizda esa... ehe-e! Ular bilan yaqindan tanishib olgach, hammasini biz tomonga da'vat qiling! Biz albatta ularni og'ir azobdan xalos etamiz.

Shu payt xonaga Nazira kirib keldi. Uni no'qib imo-ishora qildi. Ikkisi Rahmon amaki hovlisini tezda tark etdi. Nazira, Obida o'z fikridan aynib qolmay turib, tezda qochib qolishning taraddudida edi. Oktabr va Nazira shaharga jo'nashdi. Ko'chada Olapar bilan yonma-yon o'tirgan Sharof, ular bilan iliq salomlashdi. Oktabr Sharof do'kondorni quchoqlab, ikki bor ko'tarib tashladi.

Odamgarchilik qilib, bizni shaharga tashlab qo'y-ing, boja odam.

Benzin yo'q, inim, deb aldadi Sharof.

Eh, do'stim Olapar odam, uni nari surib, itning boshini siladi Oktabr. Xo'jayining katta xatoga yo'l qo'ydi. Bugun u bir pachka odamgarchilikni yutqizdi. Unga achinaman.

To'qqizinchi bob. Qonqaynatar Yoqub

Rahmon amakining katta kelini Dilbar uyda o'tirib, mol-qo'y boqadi. Yoqub bir haftada uch marta mol bozoriga boradi. Mol sotib, o'rniga yangisini olib keladi. Dilbarning jahli chiqsa, jag'i charchaguncha javraydi. Yoqub esa yuz og'iz gapga bir og'iz qaytim bermaydi. Oyxon aytganday, Dilbar anchagina shallaqi, beburd-roq uruqqa mansub. Yoqub uni indamay bo'g'ib o'ldirishga qasd qilgandek, gapirmay ezgani-ezgan. Dilbar u bilan urishib xumordan chiqolmay, tez-tez pastdagi mahallaga tushib, o'z urug'i bilan urishib keladi.

Bir kuni Yoqub mashinasini patillatib bozordan qaytdi. Katta janjalga xumor bo'lgan xotini, yengini shimarib urishishga chog'landi. Dasturxon ustida asabi buzilib, so'roq qila boshladi.

Ola sigirdan qancha foyda qoldi?

Nima ishing bor? Ola-a-a!

Olasigirni bir chelak suti bor edi?

Buniki yo'g'akanmi? g'uldiradi Yoqub.

Ikki kosa ko'k sut berdi, xolos. Kasalga o'xshaydi. Ola sigirdan qancha foyda qoldi?

O'ttiz ming.

O'ttiz ming foydaga ka-a-atta sigirni topshirib keldingizmi?

Ola-a!

Qachon sut-qatiqqa yolchiymiz, dadasi? G'unajinlarni, buzoqlarni olib-sotaver-ing. Sigirga tegmang!

Xo'p! E-e-e!

Yoqub devorga suyangancha o'tirgan joyida uxlab qoldi.

Nima?! achchiqlandi Dilbar. Esingizdami?! Onangiz bizni bitta teshik tog'orani tengi qilmagan. Sul-tonni hasharga aytganimizda kelganmidi, a? Kelganmidi?

Ola-a-a, g'ijindi u. Men senga kelgan dedimmi?

Meni akalarim bo'lsa, bu yerda tunu kun mehnat qilishgan. Loylarga belanishgan.

Pul bergandim-ku.

Voy-voy-voy?! labini burdi Dilbar. O'sha pulga mardikor ishlaydimi? Hamma bergan pulingiz bir bo'lib, to'rtta ustani to'rt kunlik haqi. Ular bir yil ishlagan bu yerda. Ha! Bir yil!

Yo'g'e-e! Ola-a-a! xo'mraydi Yoqub. Xuddi Tolibga o'xshab aldaysan-a-a! Lekin tunda bu so'loqmon er belini uqalab o'tirgan Dilbarga dili yumshab qo'rg'on beradi[3]. U nima desa rozi bo'lib, uyqu aralash ma'qullab g'o'ng'illaydi, tanasi yayrab allalangan chaqaloqdek uyquga ketadi. Bunday g'aroyib gipnoz ta'siridan nafaqat Yoqub, undan zo'rrog'i ham sog' chiqolmagan bo'lardi.

* * *

Karima xola bilan bu qoramag'iz yuzli kelin yig'inlarda bir-birlarining ko'zlariga qaramay ko'rishadilar. Eni va bo'yiga bir qarich ko'rinadigan Dilbar Karima xola qoshida yolg'on tavoze saqlab, xushomad gap qiladi. El ko'ziga o'zini xokisor, mehribon kelin qilib ko'rsatishga urinadi. Axir unda ham qiz, o'g'il bor, ertaga bironing eshigiga supurgi ko'tarib boradi. Kampir esa yo'qotadigan hech narsa yo'q. U duch kelgan joyda kelinini ochiq-oydin gap bilan uzib oladi. Mug'ombir Dilbar el-yurt oldida sir bermay, bu tomoshani hazilga aylantirib hiringlaydi.

Pirmat cholning nabira to'yida, adirko'chalik va qoracho'qqilik mehmonlar bir uyga o'tirishdi. Bir tomonda Karima xola, Oyxon, Nasiba, Zohida, Zahro, ikkinchi tomonda Dilbar va qoracho'qqilik kelinlar joylashdilar. Karima xola oldi-qochdi askiya-payrovlari bilan mehmonlarni uzoq kuldirdi. Dilbar qarzg'a botib holdan toygan g'arib qaynona o'rnida maqtanchoq eshonoyimni ko'rib, tilini tishladi. ВЪНьOtdan tushsayam egardan tushmaydi-ya kampir o'lgur! ВЪК deb o'yladi u.

Sho'rqi-shloqqa xotin o'g'irlyadigan dev kelsa, birinchi Qoracho'qqiga kelarkan, dedi Karima xola qoshini qoqib, bo'yangan kelinlarga sirli tikilib.

Ha-a-a-a!! uni tezlashdi hangomatalab ayollar jo'rlikda.

Nega Karima xola? o'smoqchiladi bir mug'ombir juvon.

Shu desangiz, qoracho'qqilik kelinlarni devdan qizg'onadigan qaynonasi yo'q ekan-da!

Mehmonlar qotib kulishdi. Qoracho'qqi baland adir ustiga joylashgan yangi mahalla bo'lib, u yerdagi hamma oilalar yosh.

Qaynonasidan qochgan kelinlar o'z bilganicha kun kechiradi. Qarisi yo'q mahallaning parisi yo'q deydilar. Dilbarning mahallasi befayz. Bu askiya ma'nosidan qitmir ayollar xolaning Dilbarga mehri yo'qligini anglab qoldilar.

Mehmonlar barobar qo'zg'alishdi. Yoqub eski вЪНьMoskvichъЪК mashinasini patillatib, xotinini olib ketishga keldi. Dilbar hammaning oldida kerilib, orqa o'rindiqqa o'tirdi va qaynonasiga ishora qildi.

Yuring, oyijon, sizniyam tashlab o'tamiz.

Qo'ying, qizim, qo'y-echki qamaydigan moshinaga meni qamamanglar. Ikki qadam yursam uyimga yetaman, dedi xola va Yoqubga nishtarini sanchib oldi. Ha, o'g'lim, senam tuproqdan tashqarida yuribsanmi? Bemahalda yakka-yolg'iz qolib ketma. Ehtiyot bo'l. Dilbarni etagini mahkam ushla. Shundan boshqa kiming bor, bolam?

Chiqmaysizmi moshinaga? Ola-a-a!

Yoqub bu yerdan tezroq ketmasa ishi lanj bo'lishini tushunib, motorga o't berdi. Mashina patillab to'yxonadan uzoqlashdi. Yoqilg'i qamalib qolib, mo'risidan ketma-ket paqqillab ovoz chiqdi. Karima xola esa qo'shnilari Zahro va Zohidani yana kuldirdi.

Ana, bolaginamga zo'r kelib orqasi paqqillab ketdi.

Kasali bor-da, oyijon, deb kuldi texnika sirlaridan xabardor Oyxon.

* * *

Karima xola yangi xabarni eshitib yuragi ezildi. Shokirning do'stlari u bilan orani ochiq qilmoqchi bo'lishibdi. Bu degani, Shokir yana bir million so'mdan ortiqroq qarz to'lashi kerak. Shokir g'amga botib, boshini ko'torolmay yotib qoldi. Xola noiloj katta o'g'li Yoqubni maslahatga chaqirdi. Yoqub mashinasini qaldiratib kelib, darvoza oldida to'xtatdi. U har xil xayolga borib, hadiksirab uyga kirdi.

Ha-a? dedi supada o'tirgan otasi va onasiga qarab. Qalay?

Yoqubning salomi ham, hol so'rashi ham shu bo'ldi. Karima xola uni yoniga o'tqazib olib, bo'lib o'tgan voqealarni bir sidra aytib berdi. Yoqub homuza torta-torta eshitdi. Qulog'iga gap kirmas, ertangi bozorga qaysi molni olib borish haqida o'ylardi.

Meni eshityapsanmi? xomushlanib so'radi onaizor.

Ah? unga diqqatini burdi Yoqub va darrov o'zini o'ngladi. Ha-a-a.

Hovlimizni sotamiz shekilli, o'g'lim.

Nega sotasizlar? Ola-a-a aftini burishtirdi Yoqub.

Bir millionni to'lashga pulimiz yo'q-da, o'g'lim. Hovlini sotmasak bo'lmaydi. Narxi uch million emish. Sendan o'zga sig'inadigan kishimiz qolmadi, dedi xola. Shunga nima deysan?

Nima deyman?

Biror narsa desang-chi? O'zing tug'ilib o'sgan hovli-ku bu!

Ola-a, buni bilib turibman.

Bilib turgan bo'lsang o'ylabroq gapir!

Nima dey?

Pul berib turasanmi bizga?

Bilmasam...

Pullar senikimi? qoni qaynab g'azablendi Karima xola. Uydagi mollaring ikki millionga yetib qolar?

Xotinim biladi-da, oyi, dedi Yoqub uyalmay-netmay.

Sen erkakmisan o'zing?

Shunaqa-yu, bemaslahat ish qilib bo'lmaydi-da.

Xotining unamaydi baribir.

Qaynilarimdan so'ray-chi.

O'zingcha biror narsa desang-chi.

Bir gap aytolmayman dedim-ku! Ola-a-a! g'azablendi Yoqub. Hamma ishni Shokir qildi. Pulni biz to'laymizmi, oyi?

Bu baribir bermaydi, onasi, dedi supada yonboshlab, suhbatni tinglayotgan Rahmon amaki ensasi qotib.

Karima xola barini tushundi.

Hoy, garang! dedi ko'rsatkich barmog'i bilan uning peshonasiga nuqib. Senam odammisan? Shunday qiyin kunlarimda menga kor kelmasang, qachon kor kelasan? Xotining senga axlatini yedirib qo'ymasa shunday bo'lib qolarmiding? Axir qaytarib beramiz olgan pulimizni! Xo'pmi? Loqaq qarzimizni yarmini to'lagin.

Xotinimdan so'rab ko'ray-chi, oyi! Ola-a-a! g'azablanib qichqirdi Yoqub.

Nega menga baqirasan?! balandroq keldi xola. O'g'il bo'lmay har balo bo'lgur! Bizga joning achiydimi yo yo'qmi?

Qachon kelsam janjal! Qachon kelsam meni g'iybatim! Xotiningayam kun bermasdingiz! Shu yerdan ko'chib ketib qutilganman! yo'g'on ovozda cho'zib-cho'zib baqira ketdi Yoqub. Xotinim ikkalamiz o'lib bersak, bolalarimiz yetim bo'lsa, ko'nglingiz o'rniga tushadimi? Shu g'urbatxona hovli esimga tushsa yuragim eziladi! Sotilsa-sotilib ketar!

Pul berasanmi? o'shqirdi Rahmon amaki. Berasanmi, bola?!

Bilmadim dedim-ku!

Bermasang ko'zimdan yo'qol! Bu yerda bo'kirma, itvachcha! qo'l siltadi amaki. Yo'qol uyimdan!

* * *

Yoqub mashinasini chang ko'chalardan haydab borib, adir orasidagi yo'ldan burilib, Qoracho'qqi yo'lga o'tdi.

вЪњSenlar meni, adir ustidagi dashtu biyobonga haydadinglar, deya o'yladi u. Arzimagan yordam berib, hammang chetga chiqib olding. Uy-joy qilaman deb, kechasiyu kunduzi yurtma-yurt, bozorma-bozor izg'idim. O'zimni tiklab olguncha ona sutim og'zimga keldi. Yordamim kerak bo'lganda esingga tushdimmi? Ola-a-a! Men qaynilarimni ko'ziga mo'ltirab, bozor yurishni o'rgandim.

Shularga suyanib uy qurdim. Qaysi biring qarashding? Ko'kragimga oftob tekkanda, topganimni senlarga berib, yana och qorin bilan hansirab yugurib yuraymi? Hech qachon. Shokir buzuqni kasriga hamma ish orqaga ketdi. Hali Sulton valakisalangni uylantirib qo'yish kerak. Ungayam pul berish kerakdir? Olasan-a, olasan... Meni bolalarim kelsa kel demaydi. Hamma mehrini Shokirni bolasiga beradi. Qizlarini bolasi kelsa, erkalatib boshiga ko'taradi. Meni uchta bolamga bo'lsa ko'z qirida qaraydi.

Xotinimni yomon ko'rsang, bolamniyam yomon ko'rsanlarmi? Senlarga nabira-ku. Menga desa o'lib ketmaysanlarmi! Senlarni uying uy emas, jinnixonona. Yana oqsuyakmiz deb kerilganiga o'laymi...вЪќ

Mashina adir ustidagi asfalcht yo'ldan Qoracho'qqi tomon yelib boradi. Baland adirdan yam-yashil Sho'rqishloq kaftdek ko'rinadi. Yoqub xom g'ishtdan bo'lsa-da, bejirim qilib qurilgan, oqlab bir oz jilo berilgan hovlisiga yetib keldi. Ekib qo'ygan ikki yuz tup teragi ikki tom barobar o'sgan. Mashina ovozini eshitib, katta o'g'li Bobur, kichigi Sherzod va kenjatoy Shohista chopqillab ko'chaga chiqdilar. Farzandlar og'ushida Yoqubning dili yayrab ketdi. Qo'shnilar to'planib turishganini ko'rib, ishtonsiz

qizchasini uyga haydadi.

Bor, uyga kir, ishtoningni kiyib chiq, qizim!

Siz bilan boraman, ko'nmadi qizi.

Bobur, ukangni kiyintirib chiq, o'g'lim, katta o'g'liga buyurdi. Nega ishtonsiz yuribdi ukang? Bu ahmoq oying qayerda o'zi, Sherzod?

Mollarga qarayaptilar, dedi Sherzod va ukasini turtdi. Uyga kir!

Yoqub qo'shnilar tomon yurdi. Asli u, bitta Rahmon amaki emas, qoracho'qqiliklarning ham qonini qaynatib turadi. U foyda chiqmaydigan ishga sira bosh qo'shmaydi. Ahror hisobchi hammani to'plab hokimga borishni maslahat soldi. Shu qatorda Yoqubni ham davraga tortdi. Bir to'da qoracho'qqiliklar bir yoqadan bosh chiqarishdi. Yoqub o'zini olib qochdi. U Dilbarning oldidan o'tishi lozim edi.

Yoqubjon, dedi yoshi ellikdan o'tgan oqsoch Ahror. Bu oy bizga umuman suv kelmadi. Men qo'shnilarni to'plab hokim oldiga ketyapman. Sizni o'riklaringiz bargini tashlay boshlabdi. Hadeb o'zingizni go'llikka urmang.

Kim tortyapti, aka, dedi Yoqub.

Erta-indin bodomlar ham bargini tashlab yuboradi. Shu bois hokim bilan bir cho'qishib olaylik. Suvimizni chiqarib bersin.

Nasosni ta'mirlashga haliyam pul o'tkazmabdi.

Ola-a! tashvishlandi Yoqub. O'tgan gal borganimizda Qurbonaliyev xafa bo'ldi, Ahror aka.

Bu yerda oltmish xonadon ekin-tikinidan ayrildi. Daraxtlarimiz qurib qolsa bu jaziramada nafas ololmay qolamiz, dedi kuyinib Ahror. Yoki buni sizga qizig'i yo'qmi? Vaqt ajrating, Yoqubjon. Kemaga tushganni joni bir.

Vaqt qayda deysiz. Men erta bozorga boraman. Mollarni yuvishim kerak. Bozorni bilasiz-ku!

Qonimni qaynatmang, uka, achchiqlandi Ahror. El boshiga ish tushganda madad bo'ling. Juda bo'lmasa yaxshi kuningizda oshingizni yeymiz, uka. Birga borib, sizam bizga dalda bo'lib turing. Yoki past qishloqqa tushib, otangizni uyida yashamoqchimisiz? Bu hovli-joyingiz qurisa qurib ketaversinmi?

Ola-a-a! Hech qayerda tinchlik yo'q, g'uldiradi Yoqub.

Buni past qishloqdagi ota uyi yaqinda sotiladi, dedi qo'shnilaridan biri. Rahmon akam o'zi shu yerga ko'chib chiqsa kerak. A, Yashka? To'g'rimi?

Ola-a! g'azablanib g'iybatchiga o'qraydi Yoqub.

* * *

Qoni hech kimga qo'shilmagan Yoqub bu ishga ham qo'shilmadi. Qoracho'qqiliklar hokim qabuliga o'zlari ketishdi. U eshikdan kirib, bu xabarni aytishi bilanoq:

Kattalar bilan o'ynashmang, dedi qo'lini bigiz qilib Dilbar. Bir kunmas bir kun hokimga ishingiz tushar?

Tushar, dedi tusmollab Yoqub.

Qurbonaliyevni nazaridan qolmang to'xtalib maqsadga ko'chdi Dilbar. Oyingiz nima deydi?

Bir million pul kerak emish.

Nima?! sapchib tushdi Dilbar. Janjalga chaqirishsa bora ko'rmang. Aytganday, hoziroq oyimlarnikiga borib keling. Arzon kunjara kelganmish. Akam bir tonna gaplashib berarmish. Bora qoling.

Bo'пти, yo'lga otlandi Yoqub. Zo'r ish bo'пти-da.

Ha, aytganday, tugun uzatdi Dilbar. Manavi mantilarni oyimga tashlaysiz. Keyin tezroq qaytib keling. Ikkinchi taomni o'zimiz yeymiz. Qorningiz to'qmi?

Qornim och-u, kel mayli, oldin borib kela qolay.

Onangiz tushlik yedirmay jo'natdimi? Meni onam biror marta shunday qilganmidi?

Bo'пти, ko'p vaysama, dedi Yoqub.

U tugunni olib, mashinasini yeldirib yo'lga to'shdi. Yoqub xotini va qaynonasidan mamnun. в Ёњ Birov qadringga yetmasa, birov yetar ekan, deya o'yladi u mashina motorini o'chirib. Ota-onamdan ko'rmagan yaxshilikni shulardan ko'rdim. Dunyoda yaxshi odamlaram bor Ёќ.

Motori o'chirilgan mashina tovush chiqarmay, nishob yo'ldan g'altakarava kabi g'irillab borar, Yoqub qaynonasi haqida o'ylab shirin entikar, rulni boshqarar, burilishlarga yetganda tormoz tepkisini bosib-bosib qo'yardi. U uch kilometrlik yo'l ni doim shunday usulda bosib o'tib, quyida joylashgan Sho'rqishloqqa tushib boradi. Bu nodon o'g'il bir haqiqatni tushunmaydi. Onasi hech qachon pishib turgan ovqatni yedirmay turib, uni yumushga yuborgan emas. Agar Dilbar Yoqubni Karima xola sevgandek sevganida, avval qornini to'ydirib, keyin onasinikiga yuborgan bo'lardi. Lekin Yoqub qorni to'ygach, charchoq va taom ta'sirida oyoq-qo'li bo'shshib uxlab qoladi. Natijada, Dilbar o'z onasiga ilingan taom, aytilgan vaqtida o'z manziliga yetib bormaydi. Dilbar, Yoqubning xulq-atvorini juda puxta o'rgangan, qanday в Ёњ qamchilash Ёќ va в Ёњ xala sanchish Ёќ ni yaxshi biladi. O'ta oqilona uslubda, o'z erini minib olgan bu ayol o'zi ham tinimsiz mehnat qiladi. U o'z oilasini ona asalaridek asraydi. Shu oila uchun kuyib-yonib yashaydi. Xohlaganida zahrini solib, xohlaganida asal tutqazadi. Lekin u o'z qaynonasidan ko'p qarg'ish olmoqda edi. Balki qarigan chog'ida o'zi ham kelinlarini qarg'ab o'tar, axir, bu dunyo qaytar dunyo deydi.

Onangiz, nikohimiz kuni atiga bitta moshina jsh'natgan, xolos, deya tez-tez gina qilib turadi Dilbar. Qarindoshlarimni to'y kuni usti ochiq moshinada olib kelishgan. O'zimgayam shunaqasi xizmat qilgan. Odam xo'rlansa shunchalik xo'rlanar-da!

Ola-a-a! uf tortadi Yoqub. O'shanda bitta sen xo'rlanibsanmi! Menam xo'rlanganman, xotin! Hadeb eslataverma! Uff!..

* * *

Karima xola ginaxonlikda kelini Dilbardan qolishmaydi. Sho'rqishloqqa o'zini qanday tushirib olib kelishganini eslaganda hasratidan tutuni chiqadi. Qoni qaynagan Rahmon amaki nos chekib, baqirib bermaguncha javrayveradi. Karima xola Eshondada eshonning shaharlik muridlaridan birining qizi bo'lib, otasi kambag'al kosib edi. Rahmon va Karimaning to'yi bo'lgan yillarda, Eshondada eshon bazo'r tirikchilik qilardi. U chog'larda kolxoz kattalari qamalib chiqqan ruhoniya ko'maklashishdan hayiqardilar. Eshondada shaharlik kelinni olib kelish uchun yakka ot qo'shiladigan arava hozirladi. Childirmasini ko'tarib, o'z tashabbusi bilan to'yga yetib kelgan Tillaxon ochiq:

Menam boraman, eshon aka, dedi. Rozimisiz yoki uyimga qaytib ketaveraymi?

Endi... deb tomoq qirdi Eshondada eshon bir oz taraddudlanib. Mehmon atoyi xudo. Shu yallaga hojat yo'q edi-yu, ammo o'z

oyog'ingiz bilan kelibsiz, buning ham bir hikmati bordir. Borsangiz boravering.

Yashang, eshon aka! dedi Tillaxon ochiqning satang dugonasi. To'yingizni qizdirib bir duoingizni olaylik.

Yetti pushtingizga yetadigan duo olasiz, Tillaxon opa! deb oraga suqildi Qobil frontchi. Meni xotinim Sanobar bilan Halima yangamam boradilar.

Urro-o-o! xoholadi Tillaxon ochiq. To'ydan keyin otamlasharkanmiz-da, frontavik! Ha-ha-ha!

Yoshi ellikdan o'tgan Tillaxon ochiq, qop-qora, baquvvat, ovozi yo'g'on, bir shisha aroqni ichib, g'o'r-g'o'r kekirib, o'ngu so'lga og'ishmay ketaveradigan erkakshoda ayol edi. Bu qorindor pahlavon xotin, namoz o'qishdan oldin ixlos bilan tahorat qilar, ishtonining lipasidagi tuxumdek nosqovog'ini ham bir bor suvga chayib olib, yana lipasiga qistirar, namozdan keyin kappa-kappa nos chekib, o'z yaqinlariga oxirat azoblaridan pandu nasihat aytib, do'zax azoblari bilan ularni qo'rqitar, ba'zan o'zi ham o'z vahimasidan qo'rqib ketib, do'rillab yig'lab yuborardi. Childirman hamma satanglardan ko'ra qattiqroq chalar, og'zini to'ldirib yo'g'on ovoza ashula aytar, qo'shiq orasida ko'ziga yoqqan yigitlari qizlarga gap sotib, в Ъъvoy, joningdan-ey, falonchi, qani meni yoshligim!в Ъќ deb hayqirib qo'yardi.

Horunboyning qizi Halimabegim, Qobil frontchining xotini Sanobar chevar, Tillaxon ochiq, uning yallachi dugonasi va yana to'rtta kampir, Eshondada eshondan oq fotiha olib, aravaga o'tirib shaharga bordilar. Kamtarona to'yxona mo'jazgina edi.

Mehmonlar to'kin dasturxon atrofida o'tirib, to'yib yeb-ichgach, qaytish taraddudiga tushdilar. Nortoji chinqiroqning aravasiga o'tirgan shaharlik kelin o'kinib yig'ladi. Otasining nochor do'stiga kelin bo'lish peshonasiga yozilgan Karima tengdoshlaridan juda uyaldi. Birorta ham dugonasi yoniga kirib, Sho'rqishloqqa borishni istamadi. Karima ikki qo'shni juvon kuzatuvida, kampirlar va yallachilarga qo'shilib, aravaga o'tirib Sho'rqishloq tomon yo'l oldi. Kampirlar Tillaxon ochiq boshchiligida yor-yor ayta boshladi. Nortoji chinqiroq bir qulog'i chinqoq, baqirib so'zlaydigan to'pori kishi edi. U dala yo'lida arava haydab, to'y va ma'rakalarda jarchilik qilardi. Umri davomida shu hunaridan boshqa biror ishni qoyillatolmadi. Sho'rqishloqdan chetga chiqmagan, o'ng qo'l va chap qo'l qoidalarini tushunmaydigan o'quvsiz aravakash, shahar ko'chalaridan o'tib, Sho'rqishloqqa yetib kelguncha yo'ldagi aravakashlari haydovchilardan ko'p dakki yedi. U katta toshyo'ldan Sho'rqishloq tomonga burilib, paxta dalasini kesib o'tgan tutlar qatori orasidagi yo'ldan borayotganda, g'azabi qaynab til-zabonsiz otni ayamay savaladi.

Cho'h, oqquloqdan qolgan haromi! Ko'zingga qarab yurmaysanmi?! Seni kasringga hammadan so'kish eshitdim!

Elliginchi yillarda bu qari otni Islyam tatarning otasi, mana shu eski aravaga qo'shib, kolxozda go'ng tashigandi. Chinqiroq в Ъъoqquloqv Ъќ deb, Abdulla tatarini nazarda tutardi. Ot jonivor yigirma yoshdan o'tgan bo'lsa-da, hali ham baquvvat edi.

Qarigach ayyorlikka o'tib olgan kuchli ot, bexos urilgan qamchidan joni achib, shataloq otib chopib ketdi. Chinqiroq sho'rlik qari otning bunday kuchi borligini bilmasdi, aravani boshqorolmay qoldi. Tizginni zo'r berib tortgani bilan hurkib ketgan ot, boshini bir tomonga qiyshaytirib, tobora tezlikni oshirib chopaverdi. Aravada yig'lab borayotgan kelinchak sho'rlikning qo'rqanidan dami ichiga tushib, shotiga yopishib kalima o'girdi. Vag'ir-vug'ur gap sotib, childirma chalayotgan kampirlar dod solishdi.

To'xtat harom o'lgurni, chinqoq o'lgu-u-u-ur!! deb baqirdi Tillaxon ochiq. Yergina yutgur, aravadan tushib olay, sochingni bittalab yulama-a-a-an! Ha, onangni ... seni!

Voydu-u-ud! Voydu-u-u-ud! deya dod solishdi yoping'ichli kampirlar. Kim bo-o-r! Aravani to'xtatingla-a-a-ar!

E, baqirmangla-a-a-ar! ulardan ham balandroq chinqirdi aravakash. Otni hurkitmangla-a-a-ar! Otni-i-i-i!

Parvardigor! deya ovozinig boricha nola qildi Tillaxon ochiq. Paranji tashlaganim uchun o'zing kechir! Agar shu balodan eson-omon qutilib olsam, eskicha o'qiyman, otni oyi bo'laman! Nos chekishni tashlayman!

G'ildirak yo'l chetidagi toshga urilib, o'qidan chiqib ketdi. Arava bir tomonga og'ib, kampirlar va kelin yumalab tushdi va to'proqqa belandilar. Arava sal narida to'xtadi. O'rnidan turib, xushi o'ziga kelgan Tillaxon ochiqning fe'li aynidi. Qo'lga ikkita mushtdek tosh olib, ensasini qashlab turgan Nortoji chinqiroq tomon chopdi. Aravakash buni ko'rib ura qochdi.

To'xta, xalq dushmani! deya baqirib uning ortidan tosh uloqtirdi Tillaxon ochiq. Ot savashni senga ko'rsatib qo'yaman, sho'rtumshuq! To'xta-a-a! Ha onaginangni ... seni!

Tasodifmi yoki eshonlarning karomatidanmi, biror kishiga ham shikast yetmadi. Ayollar o'rinlaridan turib, kiyim-boshlarini qoqdilar. Qo'shnilaridan biri kelinchak ustiga yopilgan chodirdagi changni qoqib, bag'riga bosdi.

Sho'rim bo'lmasa Sho'rqishloqqa kelin bo'larmidim, yanga, deya yig'lab yubordi Karima.

Uning holiga achinib, shaharlik qo'shni juvonlar ham yig'ladilar. Horunboyning kenja qizi Halimabegim juda bama'ni ayol edi. Kelinga yaqinlashib uni quchoqladi.

Karimaxon, dedi u ko'zlariga termilib. Aslo bunday demang, o'rgilay. Siz kelin bo'lib borayotgan xonadon avliyolar makoni. Ota-onangiz shu xonadonga yukinib farzandli bo'lishgan. Otangiz bilan eshon akamning do'stliklari oxirat do'stligi. Hozir ro'y bergan hodisa sizga bir umr dars bo'lsinki, sizni aravada borishingizni piru ustozlar ruhlari xohlasmadi. Agar aqlingiz bo'lsa, qaynotangiz bilan qaynonangizni huzurlariga piyoda boring. Katta arkonu davlatga ega bo'lasiz.

Nortoji chinqiroqni quvib yetolmay, erkakchasiga so'kina-so'kina ortga qaytgan Tillaxon ochiq, tuproqqa belangan childirmasini yerdan olib, do'pillatib changini qoqdi. Asabiylashib, ko'ylagining etagini shimardi, lipasidan nosqovog'ini olib, bir chekim nos otdi.

Voy onangni emgur! Ruhoniyni to'yida o'lib ketishimga bir bahya qoldi-ya! Ha, oshsiramay o'lay! Eshon baribir aroq quyib bermaydi!

Boya chekishni tashlagandigiz-ku, ochiq?! qah-qah kuldi Halima begim.

E, o'rtoqjon, qo'l siltadi satang. Joni ko'ziga ko'ringanda odam nimalar demaydi. Bir piyola aroq ichvolganimda nastroyeniya o'rniga kelgan bo'lardi.

Samad polvonga aytaman, bugun sizga aroq quyib beradi! Chaling childirmangizni, o'rtoq! deya buyurdi Horunboyning qizi va Sanobarga yuzlandi. O'ynang sizam, chevar! Akaginamni to'ylarini shu yerdanoq qizdirib boraylik.

Tillaxon ochiq childirmasini chalib kuylab yubordi. Halimabegim va Sanobar chevar o'yinga tushib, kelinni oraga olganicha Sho'rqishloq tomon yurdilar.

O'ninchi bob. Do'stlik

Sho'rqishloq tabiati g'oyat so'lim. Qishloq o'rtasidan janub tomonga quyilab oquvchi soyning suvi juda kam. Qadimgi ajdodlar suvga tashna bo'lib yashaganlar. Endilikda qishloq yaqinida katta va kichik kanallar oqadi. Qishloqda ilgari yuztacha xonadon yashagan, xolos. Hozirda esa pasttekislikda mingdan ortiq, adirliklar ustida uch yuztacha xonadon joylashgan. Bu xonadonlar va ekin yerlari kanaldan tortib chiqariluvchi nasos suv bilan sug'oriladi. Ilgari qishloq markazida bitta maktab, bitta do'kon, bitta

maishiy xizmat ko'rsatish uyi, bitta medpunkt bo'lardi. Qishloq xalqi ro'zg'or tashvishida tuman markaziga qatnab umri o'tardi. Markazdan uzoqda joylashgan barcha qishloqlarda вЂњucharвЂќ yigitlar hojat chiqarish uchun kerakli narsalarni shahardan yetkazib kelishardi. Mana shundaylardan biri Shokir, mayda-chuyda temir-tersaklarni yig'ib kelaverib, Zunnur eshondan qolgan tabarruk hovlini ajoyibxonaga aylantirdi. Bu battol eshonzoda hamma narsani sotardi va sotib olardi.

Bir kuni Rahmon amaki bilan shahar bozorida kezib yurgan Shokir bitta podshipnikni xarid qilib xaltasiga solib oldi.

Bu temirni nima qilasan? deb so'radi amaki tushunmay.

Satimboy traktorchiga pullayman, dedi Shokir.

Seni shunaqa bola bo'lasan, deb o'ylamagandim, achchiqlandi Rahmon amaki. Zunnur eshon o'z avlodidan senchalik foydaxo'r chayqovchi chiqishini bilganida, joynomoziga o't qo'ygan bo'lardi!

Shokir iljayib qo'ya qoldi. U baribir o'z bilganidan qolmasdi. Ertasigayoq podshipnik xabarini eshitgan Satimboy Shokirni izlab keldi. Unga uch barobar ko'p pul to'lab, rahmat ayta-ayta podshipnikni olib ketdi. Shokir yaxshigina mexanik, haydovchi, hunarmand, tijoratchi va chidamli dehqon edi. Qurilishga borsa andavani qo'lga olib, devor suvoqqa tushib ketar, pul unsa loy qorib g'isht quyishdan ham qaytmasdi. Xotini Oyxonning aytishicha, uxlab yotganda ham qo'l barmoqlari qimirlab turarmish. Biror ishni boshlasa, o'zini ham, o'zgalarni ham shoshiltirib qiynab yuboradi. Ilk mustaqillik yillarida u o'z oila a'zolarini jamlab, ikki gektar yerni ijaraga olib dehqonchilik qildi. Ijarachilar orasida katta xirmon ko'tardi. Pullarni esa sarflashga shoshilmadi. Pulga muhtoj bo'lib qolgan kishilarning ishdan chiqqan yengil mashinlarini sotib olib, hovliga sudratib keltirdi. Rahmon amaki bundan norozi bo'lib javrardi:

Nega yurmaydigan moshinalarni olib kelding, jinni?! Qolgan pullar qani?!

Hammagini zapchast olishga sarfladim, dedi Shokir.

Ha, jinni, kallavaram! baqirdi ota sho'rlik. Umrimda bir marta boy bo'luvdim, sovurding! Ha, ablah savdogar! Chuv tushirding meni! Chuv tushirding!

Shokir avvaliga hunar-texnika bilim yurtida o'qib, keyinchalik o'rtog'i qrim-tatar yigiti Firatning ustaxonasida ishlab, mashinalarni ta'mirlashni yaxshigina o'rgangan. U tuzgan reja ham yomon bo'lib chiqmadi. Qishi bilan tinimsiz mehnat qildi. Oradan uch oy o'tgach, sho'rqishloqliklar hayratda qolishdi. Oltita yengil mashinani ta'mirlagach, uddaburon Shokir, ularni viloyat markazidagi katta bozorga olib chiqdi. Bir вЂњJigulivЂќni o'zida qoldirib, beshtasini sotdi. O'rniga bitta вЂњKamAZвЂќ sotib oldi. Alg'ov-dalg'ov davrda kelgan shu omadi tufayli ishi yurishib ketdi. Ukasi Sultonni yoniga olib, mashinasida yuk tashib, mevafurush savdogarlarga xizmat qila boshladi. Oldin qozoqlar yerini kezdi. Keyin sibirliklarga vitamin tashib boyib bordi. Atrofiga birin-ketin savdogarlar, bog'bonlar va dehqonlar to'planishdi. Eshonzodalar to'g'risida tarqalgan boshqa mish-mishlar esa tagsiz gap-so'zlar edi.

* * *

Savdogarlikni orzu qilgan oshna-og'aynilar, tanishu notanish kishilar Shokir ortidan soyadek ergashib yurishardi. Sodiq akash, Alisher va Homidning hangomalarini aytaversangiz tugamaydi. hangoma adog'iga yetmaydi. Ular ilk tanishuv chog'ida Shokir va Sultonni shahar istirohat bog'iga taklif qilishdi. Did bilan tuzatilgan dasturxon atrofida beshta tadbirkor davra qurib o'tirishdi.

Aka, dedi Sulton, nega bular bizni siylashyapti?

Biz bilan birga ishlashmoqchi, ukash, dedi u.

O'zimiz yaxshi ishlayapmiz-ku? Nima qilamiz ortiqcha tashvish orttirib?

Bular qo'shilsa nima bo'пти? Karvon ko'p, rizqi boshqa.

O'zingiz bilasiz, dedi Sulton.

Bir qadahdan aroq ichib, ovqatlanib bo'lishgandan so'ng, savdo uslubi va yo'llari haqida so'z ketdi. Homid, Sodiq va Alisher Rossiya bozoriga mol yuborib ko'rishmagan, dastmoyalari ozligi uchun har narsadan hadiksirab ish yuritardilar.

Eh, Shokirjon, pichoq borib suyakka yetdi, dedi Sodiq akash. Bizam katta-katta pul topmasak bo'lmas ekan. Muruvvatingizni darig' tutmay bizni yetaklang, inim.

Rizqimga sherik qo'shildi deytogandirsiz? kuldi Homid.

Birovni rizqini birov yeyolmaydi, dedi Shokir.

Rahmat, dedi barvasta Alisher qulluq qilib. Yaxshi odam ekansiz.

Sodiqning yoshi qirq beshlarda. U tepakal, qorindor, ingichka ovozli, hasratkash kishi. Xursand o'tirganda ham xo'rsinaveradi.

Jahli esa burnining uchida turadi. Birov bilan muomala qilsa, yetti bukilib, mulozamatni me'yoridan oshirib yuboradi. Yonida turgan kishi ham bu holatdan xijolatga botadi.

Bolalar katta bo'lib qolishdi, dedi u kayfi oshgach, tili ravonlashib. Zamon mana bunday bozor iqtisodiyotiga o'tib ketdi. O'zing uchun o'l yetim, degan zamonga kelib qoldik. Ko'proq ishlab, kamroq yemagan niyatiga yetolmaydi. Biz ko'zimiz ko'r, yo'l ko'rmagan kishilarmiz, uka. Musofirchilikda bizlarni qo'llab turasiz-da.

Mayli, dedi Shokir. Ismoiljon, Nabijon degan haydovchi oshnalarimiz bor, shularni ko'makka chaqiramiz. Sizlarga yuk to'plab beramiz. Harakat qilaveringlar. Bozorga borganda o'zim sotishib qo'yaman. Sizni yoshingiz ulug' ekan, aka. Ellikdan oshganga o'xshaysiz.

Soch etaroq to'kilgan, xolos, kuldi Sodiq. Sizdan bor yo'g'i o'n yosh kattaman. Xijolat qilmay, bemalol og'ir ishlarniyam buyuravering.

Alisher Sultonidan besh-olti yoshlar chamasi katta, qora to'riq yigit. O'rtoqlari kulishib, uni Aleks deb chaqiradilar. Homid esa uyatchan, jussasi kichik, qo'yko'z, mo'ylov qo'ygan, sipo kiyinadigan yoshi o'ttizdan o'tgan yigit. U ko'proq Sultonning ko'nglini olish bilan band bo'ldi.

Qisqasi, dedi u, Shokir akamizni bizga xudo yetkazdi. Eh, Sultonbek, sizni baxtingiz bor ekan. Xudo sizga shunday jahongashta akani ato etibdi. Bizlarga aka nasib qilmagan. Boshimizni u toshdan bu toshga urib yashab kelyapmiz-da, oshna.

Maktabni zo'rg'a tamomlagan qishloqi Sulton pachava, maqtovlardan moydek erib, akasiga g'ururlanib qarab qo'ydi.

* * *

Shokir navbatdagi safarda yangi hamkorlarni qo'shib olib, yana bitta qo'shimcha mashinaga yuk ortib Rossiyaga jo'nadi. Tyumenga meva olib boruvchi shovvozlarda salmoqligina pul ishlab topishardi. Shokirga ergashib, shaharlik hamkorlar qayerdan va qanday usulda meva-chevani arzon olish yo'llarini o'rgandilar. Yangi tanish-bilishlar orttirdilar. Ular halol,

odobli va mehnatkash yigitlar bo'lib, birortalari nojo'ya harakat qilmas, hatto rus yerlarida ham o'zbekcha tavozeni tark etmas edilar. Birinchi galgi safar davomida, Shokir yangi hamkorlarni qo'y suruvini haydagandek oldiga solib haydab yurdi. Sulton yuk to'plash maqsadida qishloqda qolgandi. Shokir uni tashlab ketganiga pushaymon bo'ldi. Bozorga yetib borib, mashinalarni to'xtatib, yuklarni tushirishini tayinlab, o'zi mehmonxonaga ketdi. Mehmonxonada joy va tushlik hozirlatib bozorga qaytib keldi. Yuklar hamon tushirilmagan, yangi hamkorlar esa millati noma'lum mast kimsa bilan qizishib tortishmoqda edilar.

Nima qilyapsizlar? dedi achchiqlanib Shokir. Xaridorlar kelib ketishyapti-ku! Bu alfozda kechiksak yaxshi bo'lmaydi. Ho'l meva bu!

Mana bu odam hech narsani tushunmasdan вЂњyo'qubЎ deb turib oldi! kuyinib javradi Sodiqli akash. Yuklarni pajalista tushiraylik desam, вЂњnet!вЂ deb dedi! Xudoni zorisini qildim. Mana, Alisherjonam yotig'i bilan tushuntirdilar. Homid oraga tushdi! To'g'rimi, Homid?

Juda qaysar bola ekan-da bu, Shokir aka, tasdiqladi Homid.

Ensasi qotgan Shokir bozorda bemaqsad kezib yuruvchi piyonistani ketiga bir tepib haydab yubordi.

Poshyol otsyuda!

Kayf piyonista hiringlab kulib nari ketdi. Hamkorlar angrayib qolishdi.

Nima bo'ldi? so'radi Homid. Tushirishga ruxsat berdimi?

Bu nega ruxsat beradi, uka, achchiqlandi Shokir. Kallanglar joyidami o'zi? Bu bola bozorda ishlamaydi. Tavba, jinniyam odamdan bo'larkan-da. Qutilarni tushiringlar!

* * *

Keyingi safarlarda yuz bergan voqealar bundan ham qiziq. Qozog'iston yo'llarida borayotgan Sodiqli boshchiligidagi вЂњKamAZвЂ mashinasi, Shokirnikidan oldinga o'tib yo'l bosdi. Shokir charchab qolib, mizg'ib olish maqsadida orqa o'rindiqda yotdi.

Kechroq uyg'ot, Sulton, qo'lim zirqirayapti, dedi u.

Mayli, bemalol uxlayvering, aka, rulga o'tirdi Sulton.

Oldinda borayotgan mashinani militsiya olatayog'ini ko'targan fuqoro kiyimidagi yigit to'xtatdi. Uning qo'lida uyali telefon bor edi. U Sodiqli mashinadan tushirib, qo'lini ko'tartirib qo'ydi. Xo'jaqishloqlik haydovchilar Nabijon va Ismoil Sodiqlidan ham sodda edilar. Ular ham Sodiqli akashga taqlidan qo'llarini ko'tarib mashinadan tushdilar. Yo'lto'sar yigit mashina kabinasini tintuv qilib, uch ming dollar solingan charm karmonni topdi.

Buni musodara qilamiz, dedi u rus tilida.

Nimaga? norozilik bildirdi Sodiqli. Bu pul o'rtadagi pul. Bolalar xafa bo'lishadi.

Chevo? tahdidli boqdi yo'lto'sar.

Sodiqli qo'lini tushirib:

Bu pulga biz DSP taxta olmoqchimiz, deya izoh berdi.

Ruki vverx! buyurdi yigit.

Ular qo'llarini ko'tarishdi. Yigit yo'l chetida turgan вЂњJigulivЎ mashinasiga o'tirib jo'nab ketdi. Besh minutlardan so'ng Sulton, boshqarayotgan ikkinchi mashina voqea sodir bo'lgan joyga yetib keldi.

Ha? Nima gap? so'radi Alisher mashinadan tushib.

Nega bunday turibsizlar? ajablandi Sulton.

Haligi, tekshiradigan kishi uch ming dollarni olib ketdi! dedi Sodiqli multirab.

Kim? Nega?! achchiqlandi Sulton.

Shokir uyg'oniboq vaziyatni tushunib yetdi. O'zi rulga o'tirib gazni bosdi. Bir soatlar chamasi quvishib, yo'lto'sar ortidan yetishdi.

вЂњJigulivЎni to'xtatib, yigitni do'pposlab, undan pullarni qaytarib oldi.

Tezroq ketaqolaylik bu yerdan! dedi qo'rquvdan dag'-dag' titrab Sodiqli.

Nega ketarkanmiz?! pulni erinmay sanadi Shokir. Bu ablahdan hali solyarka haqiniyam undirib olamiz.

Sodiqli akashning Shokirga nisbatan ixlosi yana ham oshib ketdi. Hamkorlar hisobli do'st ayrilmas qabilida ish tutib, ba'zan tushlikka sarflangan chiqim ustida ham talashib-tortishardilar. Shokir bunday do'stlikka ajablanib kulib qo'yardi. Sultonning esa g'ashi kelib, bu tirik-tovonlardan tezroq qutilishni istardi. Shokir ko'pchilikning oshi shirin, ishi barakali bo'lishini yaxshi bilardi. Shu bois ularning kamchiliklari va xatolarini tez-da kechirib yuborardi. Ammo zamon charxpalagi chappa aylandi. Shokir yetakchiligidagi savdo ishlari katta zarar bilan yakun topdi. Mana, vaqtu soati bitib, g'alvirni suvdan ko'taradigan payt keldi.

* * *

Sho'rqishloqliklardan pand yegan jabrlanuvchi Sodiqli akash, arzu dod bilan sud mahkamasiga kirib bordi. Yurist uni iliq muomala bilan kutib oldi. Sodiqli akash unga bor hasratini to'kib-soldi.

Pichoqli borib suyakka yetdi, inim, dedi u o'ksinib.

Ha, dedi yurist, pichoqli... pichoqli...

Bu ozmuncha pulmas ammo.

Ha, anchagina, mudradi yurist ma'qullab.

Shuni nima qilish kerak?

Nima qilsangiz ekan-a?

Kim? ajablandi akash kiftini qisib.

Siz-da, dedi u.

Ha-da, shuni aytaman-da, nima qilishni bilolmay qoldim! Zamon ado bo'lgan ekan, inim. Pichoqli borib suyakka...

Sovuqli qurol bu... Buni qo'yib turing, dedi yurist chimirilib. Xo'p, siz u odamga pul beribsiz. Uni hozir qarz to'lashga puli bormi?

Yo'q-da, achchig'landi akash, terlab ketgan yaltiroqli boshini ro'molcha bilan artib.

Xo'sh, siz kreditor bankmisiz? Berayotgan summangizdan naf olayotgan bo'lsangiz, nega davlatga foizini to'lamayapsiz?

Kim? Menmi?

Siz-da.

Axir men unga haqqimni oldirib qo'yganman-ku? Nega birovg'a oldirib qo'ygan pulim uchun davlatga foiz to'lashim kerak?

Demak, siz unga naqd pulni foizga bermagansiz.

Yo'q, birga ishlagandik, unda kattagina haqim qolib ketyapti, tushuntirdi u.

Biz sizlarga o'z huquqingizni tanib oling deb shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yuguraverib, tuflimiz yirtilib ketdi, xafa bo'ldi yurist. Nega unga haqqingizni berasiz? O'rtada shu savdoni tasdiqlovchi shartnoma hujjatlari bormi?

Yo'q, dedi akash.

Demak, Shokir ikkovingiz o'z daromadingizni soliq idoralaridan, bojxona mutasaddilaridan yashirgansizlar. Ikki kishimidinglar?

Yo'q, to'rt kishimiz, og'zidan gulladi Sodiq akash.

Demak, uyushgan jinoyatchilar guruhiga a'zo ekansiz, aniqlik kiritdi yurist.

Yo'q! Nega a'zo bo'larkanman?!

Orangizda shuncha ko'p mablag' aylanarkan, foydangiz falon pul ekan, achchig'landi yurist. Nega bu to'g'rida biz bexabarmiz?

Agar siz davlat bilan hamkorlikda ish olib borganingizda, harom haqqingiz harom qo'llarga o'tib ketmagan bo'lardi. To'rtovingizni batafsil o'rganib, jinoiy javobgarlikka tortish kerak! Olgan foydangiz mamlakat hududida yetishtirilayotgan mahsulot evaziga kelgan. Hamkorlaringiz kim?!

Pichoq Sodiq akashning suyagiga borib yetdi. U yuristga yalinib-yolborib, bir amallab mahkamadan eson-omon chiqib olgach, parvardigorga shukrona keltirdi. Bir oy davomida Zohidani qizg'ongan Salimdek, Shokirda qolib ketgan pullari haqida o'ylayverib, uyqusizlik dardiga chalindi. Bir bahonada ishdan haydalgan sinfdoshi, sobiq huquqshunos Asadilla razborchi huzuriga bordi.

Pichoq borib suyakka yetdi, sinfdosh, dedi u.

Meniyam, dedi yuzi cho'tir Asadilla. Sho'rqishloqqa qachon jo'naymiz?

Ertagayoq!

Ochig'ini ayt, Sodiq, pulni qanchasini menga berasan?

Bu cho'tir mojaroparast huquqshunos, ma'lum va mashhur militsiya polkovnigi, marhum Hakim Ernazarov kenjasi edi.

Qamchisidan qon tomgan Ernazarovning o'g'li xunuklik bobida otasidan ham oshib tushardi.

* * *

Asadilla razborchi qo'mondonligi ostida, haqdor hamkorlar qilichlarini yalang'ochlab, qarzdor Shokir yashovchi Janjalmahallaga bostirib keldilar. Asadillaning shokolad rangli ВЪНЪNeksiyavЪK mashinasi hasrat va haroratdan changgi osmonga chiqqan Adirko'chaga burildi. Mashinada o'tirgan Sodiq, Alisher va Homid hayajon va issiqdan terga botdilar.

Boyvachcha ko'chasining ahvoliga qaranglar, dedi Asadilla oynani berkitib.

Birinchi ko'rishganimizdayoq men buni sezgandim, dedi Sodiq. Ko'rmaganni ko'rgani qursin ekan, sinfdosh. Odam yorug' dunyoga kelgandan so'ng qonun-qoidaga rioya qilib yashashi kerak. O'zidan ketmasligi lozim. To'g'rimi?

To'g'ri-to'g'ri, hamma bir ovozdan ma'qulladi.

Sodiq so'zida davom etdi.

Bu bola o'sha Mahliyosini deb hamma topgan-tutganini boy berdi. Ayshu ishratga berilib ketdi. Savdogarlarning piri kim?

Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomdirlar. Savdo harom-harish ishni yoqtirmaydi.

Albatta, unga jo'r bo'lishdi hamrohlar.

Sodiq akash nogoh o'z gunohlarini ham eslab qoldi shekilli:

O'zing kechir, bilib-bilmay qilgan gunohlarimizni, deb g'uldirab, uni o'chib qoldi.

Shunchalik boy bo'libsan, deya uloqni ilib ketdi Alisher afsuslanib, shu tuproq ko'chani asfalCHt qilib qo'ymaysanmi? Bitta do'kon qurdirib, loqal suv sotsang, bola-chaqangni og'zi qimirlab turadi. El-yurt bundan naf oladi. Xotin olishiga meniyam qarshiligim yo'q. Mayli, qandini ursin! Ammo endi bola-chaqasi ahvoli qanday kechadi? Uyi sotilib ketsa-chi?

Shokir akamga qiyin bo'ldida, achindi ko'ngilchan Homid.

Asadilla mashinani haydab Sharofning eshigi oldidan o'tayotganda, Olapar hujumga chiqib, o'zini berk oynaga urdi va qattiq hurib yubordi. Asadilla cho'chib mashinani chetga olib qochdi. Mashina yo'ldan chalg'ib, o'ng tomoni bilan chuqur ariqqa tushib qoldi.

Obbo! uf tortdi Asadilla. Rasvo bo'ldi-ku...

Oyna yopiq edi. Nega qochasiz, baraka topgur, tergadi Sodiq. Kim aytadi sizni razborchi deb! Hayf sizga, e-e-e, sinfdosh!

Tur yo'qol! eshikni ochib Olaparni so'kdi Asadilla. Egangga o'xshamay o'lgur...

Og'iz yugurugi oshga, til yugurugi boshga deydi sho'rqishloqliklar. Samad polvon va Halima begimning arzanda qizi Zahro do'mboq darvozadan chiqib, bu g'alati mehmonlarni ajablanib tomosha qila boshladi. O'z sha'niga aytilgan haqorat so'zlarni eshitib, asilzodaning qoni qaynadi. Qo'lini beliga tirab, oyoqlarini kerib gezardi. Gavdasi katta, ko'ylaklari keng, bilaklari yo'g'on, ko'zlari kichkina, yuzi katta, qoshi qalin, sochi hurpaygan, oyog'ida erining katta kalishi, ishtonining bir pochasi uzun, biri buklanib qolgan, yoshi ellikdan oshgan bu urishqoq xotinga xudo berdi. Qishloqni boshiga ko'tarib shang'illab, aziz mehmonlarni haqoratlay boshladi.

Chevo-chevo?! Hu ota-buvangni og'ziga varanka qo'yib!..

Kimni?! g'azabga mindi razborchi Ernazarov. Menimi?!

E, bittangga ovora bo'lib o'tiraymi! Hammangni! baqirdi Zahro. Ha, seniyam og'zingga varanka qo'yib!..

Shaharlik nozikta'b mehmonlar Sho'rqishloq zaifasining og'zidan otilib chiqayotgan haqoratlarni eshitib, vujudlari muzlab, qon bosimlari pasayib, mashina o'rindiqlariga qapishib qolishdi. Bir zamonlar sud zalidagi odamlarni og'ziga qaratib, hech kimga gap bermagan, badbashara huquqshunos Asadilla Hakimovich holi ayniqsa tang bo'ldi.

Voy, parvardigor, bu qishloq qanday qishloq?.. ming'irladi u.

Bu yer Sho'rqishloqni Janjalmahallasi! Bidingmi?! tobora avjga chiqdi Zahro. He, eplasang minmaysanmi savilingni! Nega bizni o'rta qo'shasan?! Hu, ko'zingni olib qochmay o'lgur! Hu, qirilib ketgur! Agar hozir erimni chaqirsam, hammang naleva-naprava uchib ketasan! Bizni kimligimizni sen bilib qo'yibsanmi?!

Voy kechiring, opa-a! Bilmay qoldik! G'aflatda qoldik! mazaxlagannamo engashib ta'zim qildi Asadilla va o'z og'ziga urdi. Yana gapirasanmi, dumba chaynagur!

Ha iloyo jaqqinang g'isht parchani chaynasin! Zahroning baribir xumori bosilmadi chog'i, burilib itiga buyurdi. Ol, Olapar, yer yutgurlarni! O!!! Bos!!

Olapar bekasi har baqirganda undan balandroq hurar, xezlanib oldinga chopar, hovliga kirib ketar, yana shoshilinch qaytib

chiqardi. U mana shu hunari bilan Sharofga juda o'xshaydi. Sharof o'z xotini bilan urishganda, g'azablanib Zahroning ustiga bostirib boradi, keyin zarda qilib, uxlash xonasiga kirib, divanga yotib oladi. Ammo o'zini bosolmay xonadan qaytib chiqib, xuddi o'ldirib qo'yadigandek unga tashlanadi. Lekin yengil turtib, yana ortga qaytadi.

Olapar shunday alfozda o'zini zo'rg'a bosib turgandi. Buyruq dalda bo'lib, irillagancha Asadillaga tashlandi. Asadilla eshikni yopib oldi-da, signalni вЂњba-bavЂќlata ketdi. Kuchli ovozdan cho'chib ketgan Olapar, birdan dumini ketiga tiqib, вЂњving-vingвЂќlab hovliga qochib kirdi va boshqa ko'rinmadi. Bo'ribosardan bunday nomardlikni kutmagan ayol, oyoqlarini kergancha quruqqa gerdayib qolaverdi. U obro'si to'kilmasdan burun janjalga chek qo'ydi. Mehmonlar yengil nafas olishdi.

Ketaylik, akalar, dedi Homid bezovta bo'lib. Bu ishimiz xudoga xush kelmadi shekilli.

Oldin chuqurdan chiqib olaylik, dedi Asadilla. Quruqqa kelganga o'xshayman.

Asadilla ko'pdan beri shaharliklar orasidagi вЂњoldi-berdiвЂќlarga qozilik qiladi. Yurist yozib qo'yilgan qonundan chetga chiqolmaydi. U ikki tomonning arziga quloq osishga majbur. Asadilla esa hech qayerda qayd etilmagan ibtidoiy qonunga amal qiladi. Qarzdorning o'lgan-qotganiga ham qaramay, haqdorning yonini olib, haqqini undirib berib, o'zi ham mo'maygina daromadga ega bo'ladi.

AsfalCHt ko'chada to'xtagan mashinadan to'rt kishi tushib, shu tomonga burildi. Asadilla ularni yordamga chaqirdi. Sakkiz kishi birlashib mashinani chuqurdan chiqardilar.

Da'vogarlar Shokirning uyiga kirib bordilar. Ostonada Karima xola bilan gaplashdilar. Obida sal narida tik turib, hamma gapni diqqat bilan tingladi. Homid uni ko'rib yuragi ortga tortdi. Obida bamisoli o'zidan nur sochib turar, suhbatning oqimiga mos ravishda qoshlari chimirilar, uzun kipriklari bir-bir pipirab qo'yardi.

Bolalarim, dedi Karima xola. Biz sizlarning haqqingizni yeb ketmaymiz. Bizga ishoninglar. Ozigina muhlat beringlar. Xudo xayr bersin.

E, xola, dedi Sodiq akash. Pichoq borib suyakka yetdi...

Ilohim hech qachon suyagingizga pichoq qadalmasin, aziz mehmon, dedi Obida qo'ng'iroq ovozda. Allohning borligiga ishonsangiz, bizga ishoning. Men o'zim shu ishni hal qilish niyatidaman. Bu oila mehnatkash oila. O'sha haqingizni sizga halol pullar bilan qaytarib beramiz. Shu mushtipar onamiz hurmatlariga, bir oz sabr qilsangiz, allohim sizni qo'llasin. Biringiz ming, mingingiz tuman bo'lsin.

Da'vogarlar Obidaning qaddi-bastiga mahliyo bo'lib tikilib qoldilar. Ko'r ayol o'ziga qadalgan nomahram ko'zlarini iymon nuri ila sezib, qirmizi lablarini oq ro'moli uchi bilan asta to'sdi. Bu harakatdan ko'zi ochiq g'ofillarning yuraklari tebrandi. Hammalari ko'zlarini yerga tikib, ortga tisarilishdi. Hamrohlar ona-bola bilan xayrlashib mashinaga o'tirdilar. Sukutga tolgan alfozda shaharga tomon jo'nadilar.

Yuragim titrab ketdi-ya, dedi Asadilla. Boyagi homilador ayolning ko'zlari ko'r ekan. Bu Shokirni qarindoshimi?

Ha, dedi Homid. Bu kishi Shokir akamning ko'r singlisi Obida opa bo'ladilar.

Yuzlari nurlig' ekan, a? Obidani sizlab yodga olib, Homidga qayrilib qarab qo'ydi u. Xudoga shukur. Ko'rgizgan kuniga shukur.

O'n birinchi bob. Vijdon

Karima xola Mahliyodan najot so'rab shaharga bordi. Ilgari u bir bor kelib, o'g'lining hashamatli uyini ko'rib ketgandi. U xushlamaygina Mahliyo ortidan shinam xonaga kirdi. Mahliyo uni yaxshigina kutib oldi. Yengiltak ofitsiant xotin oshxonada o'tirgandi. Choy damlayotgan Mahliyoni turtib hiringladi.

Qaynonasiga bir salom! Mahliyoning boshini zo'rlab egib kuldi ofitsiant.

Bo'ldi qil, g'ar, uni surib tashladi Mahliyo va iziga qaytdi.

Xola zal hashamini ko'rib, og'zi ochilib o'tirardi.

Qizim, ovora bo'lmang, dedi u fikrini jamlab. Boshimizga tashvish tushib oldingizga keldim.

Nimayam qila olardik, dedi Mahliyo. Shokir akamni xatosi tufayli shu ishlar yuz berdi-da.

Dushanba kuni haqdorlar uyimizga kelishadi. Siz borishingiz lozim, qizim. Agar yomonlashmay kelishib olsak yaxshi bo'lardi.

Borasizmi?

Yo'q...

Nega? Bizga yordam bermaysizmi, qizim?

Meni bu ishlarga aloqam yo'q.

Unday bo'lsa nega borgingiz kelmayapti?

Bilmasam...

Agar sizni Shokirdan qarzingiz bo'lmasa yoqangizga yopishib olmaymiz.

Bu yerdagi hamma mulk va uy to'la-to'kis meniki. O'g'lingizdan qarzim yo'q.

Axir bu uyni o'g'lim sizni topishdan avval sotib olgandi-ku?

Meni haqim u kishiga o'tib, u kishini uyi menga o'tgan.

Sizni haqingizga Shokir muhtojmasdi-ku?

Savdoni tushunmaysiz, oyijon.

Karima xolaning bu tuprog'i vazmin xonadonda uzoq o'tirgisi kelmadi. U dushanba kuni uchrashishga shartlashib, xayrlashib chiqib ketdi. Ayyor va g'alamis dugonasi yana Mahliyoni mazaxlab, zo'rlab boshini ega boshladi.

Qaynonasiga bir salom! Qaynotasiga bir salom! Lo'x eriga bir salom!

Bo'ldi qil dedim, jinni! o'shqirdi Mahliyo. Xo'sh, o'zing ayt. Meni hujjatlarim joyida. Shokir meni urolmaydi, milisa chaqirishimdan cho'chiydi. Agar borsam ularni qo'lidan nimayam kelardi?

Qaynonasiga bir salom! Qaynotasiga bir salom! unga osilib irg'ishladi yengiltak.

Konchay, dura!

Mahliyo isqirt buzuqlar bilan ishrat qilaverib vijdonidan ayrilgan, gunoh va savobni unutgandi, hozir u qay yo'l bilan bo'lsa-da, Shokirning mulkiga butunlay ega bo'lib olish haqida o'ylar, shu sababli hozir ko'ngliga bachkana o'yin-kulgi sig'masdi.

Shaharlik haqdor da'vogarlar bostirib kelishgan paytda Rahmon amakining yuragi muzladi. вЂњNahotki Zunnur eshon ariq chopib, adir yoqasiga suv chiqarib bino etgan bu tabarruk poyi ostona kimlargadir sotilib ketsa? Kimlar kelib bu dargohga yuginmagan deysiz... O'zbeklar, qirg'izlaru tojiklar, qozoqlaru uyg'urlar, urush paytida haydab kelingan qirimlik tatarlar ham shu dargohda qur'on tilovati va rasululloh hadislarini tinglaganlar. Qancha-qancha darveshlar Zunnur eshonning jamolini ko'rish maqsadida adirlik ustida davra qurib, gulxan yoqib o'tirishardi. Tong otguncha zikr tushib, вЂњillallohвЂќ deb hayqirgan qalandarlar, eshonning tarbiyatu karomatlarini tufayli naqshbandiyaga kirib, mehnat qilish, oila qurishga jazm etishgan, o'zlaridan ko'payib ketishgandi. Eshondada eshon esa toshbag'r va badfe'l sho'rqishloqliklarni odobu ahloqqa chaqirib, ularni baholi qudrat to'g'ri yo'lga solgan. Qimor, buzuqchilik va besharm so'zlardan qaytargan. U o'lgach, o'rniga iymoni butun, ilmi-qol va ilmi-holdan boxabar zukko duogo'y Sho'rqishloqda boshqa tug'ilmadi. Zamona zayli bilan ularning duolari yer yuzini tark etib, qadamjolari ham sotiladigan bo'ldi. Mana otalar yo'lga xiyonatning oqibati! Mana kiygan shapkang, ichgan vinolaring, haqoratu jaholatlarning qaytimi...вЂќ

Rahmon amaki Shokirning savdogar do'stlari haqida o'ylab ajablandi. вЂњBular qanday do'st o'zi? Shuncha yil birga ishlading, birga musofir yurtlarni kezding, parcha nonni bo'lishib yeding, dardu ofatlardan omon o'tib, rizqu nasiba bilan yurtingga qaytding. Oqibating qani? Nahotki odamzot hidlangan go'shtdek shu qadar tez aynib bormoqda? Bu ketishda oxiri inson zoti beoqibat mahluqqa aylanib qoladi-ku!вЂќ

Rahmon amaki mehru oqibat haqida o'ylagani sayin battar ezilardi. Xo'rlikdan ko'ngli chok-chokidan so'kildi. Supada davra qurgan mehmonlarga yer ostidan qarab-qarab qo'yar, janjal ko'tarilib ketishidan qo'rqib, sukut saqlardi. Shunchalar g'azabkor cholning bu qadar mung'ayib qolishini Shokir ham kutmagandi. Sodiq, Alisher, Homid, Asadilla, Olimjon kuyov va mulla Hakimlarning suhbatini tinglab, oshxonadagi dahlizda Obida, Oyxon, Shokirning uchta qizi miq etmay o'tirardilar. Olim qora ko'zoynagini cho'ntagiga soldi. Haqdorlar bu ojiz yigitning so'qir ko'zlariga bir-bir nazar tashlab olishdi.

O'g'illarim, dedi ko'ziga yosh quyilib Rahmon amaki. Agar sizlar pulni to'la deb turib olsalaring biz shu hovlini sotamiz. Bundan o'zga iloj yo'q. Bu hovli menga eshon buvamlardan meros qolgan. Endi holimiz nima kechadi? Quda-anda, elu yurt oldida nima degan odam bo'ldik...

Yig'lamang! asabiylashdi Shokir. Nega yig'laysiz?!

Sen bola meni adoi tamom qilding! ho'ngrab yubordi chol.

Hoy?! dedi Shokir da'vogarlariga yuzlanib. Senlarni o'lar-qolar joying yo'q-ku?! Nega uyimga bostirib kelasalar? Olasanlar-da o'sha pullaringni!

E, Shokir! bo'g'ildi Sodiq akash. Pichoq borib suyakka yetdi. Bizlarni bola-chaqamiz bor. Bolalar katta bo'lib qolishdi. Sarfi o'syapti. Sen indamay shuncha pulimizni yeb ketaversang vijdongga to'g'ri keladimi?

Kim senlarni pulingni yeb ketaman deyapti? Surgutda pulim bor. Ikki ming dollar pulim bokulik bolalarda turibdi. Rossiya rublidan VolodCHkada yuz mingdan oshiqroq pulim bor. Qo'limga kelsin... Oshig'i bilan to'layman!

Ikki yuz ming so'mni menga bermoqchi edingiz, Shokir aka, dedi Alisher.

Bu puldan umid qilmang, cho'rt kesdi Shokir.

Iya! Yaqinda bo'ladi degandingiz-ku, aka?! g'azablendi Alisher.

Uni Sulton Bahromdan olib, toshkentlik Shurik delavoyga berib yuboribdi. U avrab Amerikaga jo'nataman desa ishonibdi.

Iltimos, og'aynilar, ozgina sabr qilib turinglar, deb sigaret tutatdi Shokir.

Shokir! eshondan qolgan tabarruk supani uch bor mushtladi Sodiq. Biz halol haqimizni so'rayapmiz sendan! To'lab qo'y!

Ko'p o'zingdan ketma, aka! sho'rqishloqcha jahlgamindi Shokir. Sen hozir birovni uyida o'tiribsan.

Agar Rahmon akamning buzrukligi bo'lmasa seni hozir urgan bo'lardim! Ha-ha! Kulma! Urub yuboraman! qaltirab terlagan boshini ro'molcha bilan artdi Sodiq. Buni qaranglar!

Qarzdor bechora yuzini chetga burib jilmayib qo'ydi. Shokirning bir qo'lga pay kelolmaydigan Sodiq akash pul achchig'i bois jangga chiqishga ham shay bo'ldi. Bu talvasani chinakamiga qabul qilgan amaki:

Rahmat sizga, o'g'lim, deb ming'irladi. Rahmat.

Menga qarang, Sodiq akash, dedi kulgisi qistab Shokir. Esingizdami, yangi ish boshlagan chog'imizda bitta вЂњMoskvichвЂќ moshinangiz bor edi. Shuncha yildan beri men bilan birga ishlab yomon bo'lmadingiz. Senam, Alisher. Hozirgacha menga ergashib pul topding. Bola-chaqa boqding. Boy bo'lding. Arzimagan ikki yuz ming so'mga meni olmading. Men axir katta qarz uzdim. Uyimdagi televizorniyam sotdim. Minib yurgan mashinalarimdan ayrildim. Senlar meni butunlay ado bo'lganga chiqarib qo'ydingmi? Bir kunmas-bir kun davlatimni qaytarib olarman. Ko'z-ko'zga tushar.

To'g'ri, dedi Alisher. Biz sizdan ko'p manfaat ko'rganmiz. Lekin hisobli do'st ayrilmas. Biz o'z bolalarimiz rizqini sizga berib ketmaymiz. Pulni o'rniga tiklab qo'ying, Shokir aka! Mahliyo o'tirgan dom sizni nomingizdami?

Yo'q dedi Shokir.

E-e! tutoqib ketdi Sodiq. Ish harom bo'lgan ekan. Undan bir chaqayam ololmaysan, Shokir! Nega bunday qilding o'zi, a?! Nima, sen Xudoyorxonmisan? Nega o'sha paytda aqlingni yig'mading? Hoy, deb boshqalarga yuzlandi u. Umringizda fohishaga dollar sochganni ko'rganmisizlar? Bu oliy zot samolyotda Rossiyaga borib kelardilar. Qo'llarida diplomat. Boshlarida charm shlyapa. Ko'zlarida qora ko'zoynak. Cho'ntak to'la pul, qo'llarida gul, TyumenCHdan to'g'ri Mahliyoni oldiga keladilar. Mahliyoni oldidan olifta kiyinib olib, yana TyumenCHga jo'naydilar!

Shokir bir zamonlar ko'ziga tik qarolmagan, doimo sizlab murojaat qilagan Sodiqni taniyolmay qoldi.

Bo'ldi qiling, akash! dedi u supaning chetida o'tirib.

Bu kishi yallo qildilar, qizishdi Sodiq akash. Bizni mollarimiz esa yo'lda chirib ketdi. Shokir boyvachcha domda Mahliyoga mahliyo bo'lib o'tiravardilar. Biz puldan ayrildik. Pul jigardan bino bo'ladi.

Jamoa uni ma'qullab o'tirardi. Vijdonan aytganda Sodiqqa ham qiyin. Uning oilasi katta. Boy kishilar bilan quda-anda bo'lib qoldi. Shokirdan esa qarz emas. Shokir yaxshilik qilgan bo'lsa bu ham qarab turmagan. Ba'zida uncha-muncha mayda pullardan kechib yuborardi. Shokirga o'xshab yallo qilib yashamasdi. Boshqa tomondan yondoshilsa, masalaning mohiyati ochilganda yana savol tug'iladi. Mayli, Shokir yanglishibdi. Bular o'zlari avliyomidilar? Bular kamchilik yo'qmidi? Shokirdan balki bular o'zlari qarzdor bo'lib chiqishar? Qiyomat kuni haq va nohaq taroziga tortilganda nima bo'larkin?

Adirko'chaga yana bir mashina kelib to'xtadi. Mashinadan Karima xola bilan Mahliyo tushdilar. Olapar Sharofning darvozasi

36 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

yonida yotgandi. Notanish haydovchi va Mahliyoni ko'rib qoni qaynab hurdi. Mahliyo atrofga razm solib, ro'molchasi bilan yelpinib, qiya ochiq darvozadan jirkangannamo kayfiyatda hovli ichkarisiga mo'raladi va botinmaygina ilgari yurdi. U changu tuproqdan o'zini ehtiyotlab, tuflisini yerga avaylab bosar, yaltiroq ko'ylagining etagini qo'li bilan bir oz yuqoriga ko'tarib olgandi. Peshonasi va quloqlari ustidan sariqqa bo'yalgan sochlari sharsharaday to'kilib turar, lablari qirmizi rang, qora qoshlari ingichka qilib terilgan, ulama kipriklari qayrilma, oq yuzidagi zahillikni yashirish uchun ikki yonog'iga ham qizil bo'yoq surtgandi. U kirishi bilan hovliga o'tkir atir hidi taraldi. Rahmon amaki unga qarashdan hazar qilib, yuzini kafti bilan to'sdi. Oyxon va uning uchta qizi dahlizda o'tirgandilar, qiziqsinib darchadan qaradilar.

Mana, azizlar! dedi Karima xola. Iloyo mol-dunyoni xarxashalari qursin. Hozir hammasi hal bo'ladi. Mahliyoxon keldilar. Otam rahmatlini so'zlari esingdami, onasi? dedi Rahmon amaki. Och qornim tinch qulog'im, der edilar.

Ha, nimasini aytasiz, uf tortib bir chetga cho'nqaydi xola. Qarigan chog'imizda el-yurtga maymunday tomosha bo'ldik.

Kichik tuman malikasi nomini olgan go'zal supada o'tirgan kishilarga razm soldi. U bu yerda e'tiborga arzirli biror tirik jonni ko'rmadi. Hafsalasi pir bo'lib:

Karoche, dedi saqichini chaynab. Meni nega chaqirdinglar?

Mahliyo, unga yaqinlashdi Shokir. Bular qarzlarni qistab kelishibdi.

Nu i chto? erinibgina so'radi u.

Tak chto, Maxlishka, yordam bermasang bo'lmaydi, ne podvedi.

Qancha? so'radi Mahliyo qoshini chimirib.

Hozircha, to'rt yuz ellik ming kerak, xolos.

Shuncha pulni berganmidingiz menga?

Esla, azizim?! yalinib mo'ltiradi Shokir. Hozir ahvolim chatoq, xotin. Oltinlaringni sotib bo'lsayam meni qo'llab yubor.

Oltinlarim sotilmaydi, erjon! cho'rt kesdi ayol. Oyimning qon bosimlari ko'tarilib turibdi. Meni uyimdan umid qilmang. Uni epaqaga keltirguncha butun topgan-tutganim sarf bo'ldi.

Nimalar deypasan, sterva?! g'azablendi Shokir. Sen qancha pul sarf qilgansan?!

Mana men degan krutoy bolalar orqamdan yugursa, kelib-kelib krahoborga ko'ngil beribman. Umrimda bir marta sevdim, no xato qildim.

Bermaysanmi?! o'z yog'iga o'zi qovurilib bo'g'ildi Shokir.

Daje ne dumayu, gapga yakun yasadi Mahliyo.

Ichkarida o'tirgan Obida tashqariga chiqdi. Hamma burilib, ko'r juvonga qaradi. U uzum ishkomining ustunini qidirib topib suyanib oldi.

Mahliyoxon, dedi asta. Xudodan qo'rqmaysizmi? Siz avval go'daklarni rizqini yeb, otasidan ayirdingiz. Endi esa ularni ko'chada qoldiryapsiz. G'afatdan ko'zingizni oching, vijdongingizni yutmang. Besh kunlik dunyoni deb, abadiy baxtni do'zax oloviga alishtirmang. Iltimos, akamni shu balodan qutqaring. Sizni bir umr duo qilay.

E, bor o'shaqqa, ko'r! g'azablendi chaynalib Mahliyo. Kundoshim gapirmagan gaplarni gapirib, nega ortimdan ayg'oqchilik qilib yuribsan! Akangdan bir tiyin qarzim yo'q!

Agar xudo nasib qilmasa o'zimcha ko'r bo'larmidim, Mahliyoxon, dedi sho'rlik o'kinib. Bu qismat xudo bitgan qismat ekan. Xudodan qo'rqing. Har bir zarra gunohni oxiratda javobi bor.

E, bor-bor! Menga moral o'qima! jerkidi Mahliyo.

Qo'y, Obida, oraga tushdi Shokir. Yuraging siqilib qolmasin, singlim.

Meni yuragim siqilgandan nariga o'tib ketdi, Shokir aka, nola qildi Obida alamdan qaltirab. Oyxonni nimasi yomon edi? Sizni oq yuvib, oq taradi. Ozingizni oz, ko'pingizni ko'p demasdan, hammasiga sabr qildi. Sizni ko'zingiz ochiq edi-ku? Bu xotin to'g'risida biror kishidan yaxshi gap eshitmadim. Agar bizlarni desangiz, shu ayolni talog'ini bering. Davlatingizni xudodan men so'rab beraman, aka.

Ha, gap poylamay o'lgur, ko'rsichqon! javradi Mahliyo olayib.

Ko'rdingizmi, aka, payvasta qoshlarini chimirdi Obida. Yomon og'izdan yaxshi gap chiqmaydi.

Yig'ilganlar farishta bilan shayton o'rtasida borayotgan suhbatdan hangu mang edilar. Mahliyo shu payt janjal ko'tarilishini juda-juda xohlardi. Tashqarida yangi jazmani в ЁньТиков Ёксini taxt qilib turibdi. Agar Shokir urib yuborsa, u yer-bu yeri ko'karsa, jazmanni guvoh qiladi-da, borib kasalxonaga yotib oladi. Mahliyo shu makrni ishga solish maqsadida yana Obidaga hujumga o'tdi.

Menga qara, ko'r, dedi u tahqirli ohangda. Sen meni nega yomon ko'rasan? Seni xudo yaxshi ko'rganda ko'r qilib yaratarmidi? Yana homilador bo'lib olibdilar! Vah-vah! Ko'nglimning ko'chasi!

Olim aka!... Bu haqoratlardan zulmat dunyosi ham vayron bo'lgan ayol erini chorladi.

Obida?! ko'ngli notinch bo'lib, g'azabnok Olim paypaslab supadan tushdi. Obida, men shu yerdaman.

Olim aka, qayerdasiz o'zi?...

Obida gandraklab yayerga borishini bilmay qoldi.

Obidaxon, unga yaqinlashdi Olim, men shu yerdaman, azizim.

Tezroq bu yerdan ketaylik... dedi u va ilk bora ohista qarg'anib qo'ydi. Yaxshiniyam, yomonniyam xudoyimga soldim...

Mahliyo ojiza ayolni yengib chiqqanidan mamnun bo'lib qilpillab qo'ydi. U agar ko'rlar jamiyatidagi biror ojizga, shu qabilda muomala qilganida, ojizlarning ham kim ekanligini bilib olgan bo'lardi. Ammo Olim va Obida boshqa olam kishilari edilar.

Arzimagan bir adashgan kimsani deb, ilohiy nurlarga ko'milgan olamga o't qo'yib bo'larkanmi?

Hoy, haqdorlar, dedi Olim Obidani yetaklab. Obidaxon ikkimiz qarzlarni bugunoq to'laymiz. Hoziroq bu yerdan ketinglar. Bu xonadonni tinch qo'yinglar! Tinch qo'yinglar!

Ko'rlar yetaklashib, hovlidan chiqib ketdilar. Bu vaziyat hammani esankiratdi. Mahliyo bu yerda to'plangan kishilarning aksariyatini tanirdi. Bularning orasida o'tirgan ko'rimsiz, yuzlari cho'tir, sochlari siyrak, notanish razborchi Asadillaga esa mensimaygina qarab qo'ydi. Asadilla Mahliyoga tikilib o'z nafratini bosolmadi.

Voy-bo'y... yomon ekansan-ku, dedi bosh chayqab.

Tur yo'qol, urod! Senga nima? unga ko'zlarini olaytirdi Mahliyo.

Shungayam gapirasanmi, dumba chaynagur... deb o'z og'ziga urdi Asadilla va xomushlanib qoldi.

Otasi Hakim Ernazarovga tortgan cho'tir Asadilla, bolalikdan o'z yuzini o'zi yomon ko'rar, urod, ya'ni, badbashara degan so'zni

sira hazm qilolmasdi. Karima xola esa ishning bu tomonga burilib ketganini ko'rib yuragi ezildi. Olimning uy olish uchun yig'ib qo'ygan puli bor edi. Ular hamon yotoqxonada turadilar. Yangi uy ularga suv bilan havoday zarur. Shu bois onaizor:

Jon, bolam... dedi behayo keliniga boshini egib. Bu ko'rlarni uyga to'plagan ozgina puli bor, xolos. Shularga achinmaysizmi? Qizim hozir og'iroyoq, yaqinda ko'zi yoriydi. Yotoqxonada chaqaloq bilan qiynalib qolishadi. Rahmingiz kelsin...

Meniyam oyim kasallar, dedi Mahliyo. Bizga kimni rahmi keladi?

Iloyo onangiz tuzalib qolsinlar... Sizam baxtli bo'ling, uvali-juvali bo'ling. Onangiz ikkingiz aslo kam bo'lmanglar. Ozgina yordam bersangiz bo'ldi...

Ko'p vaqillamang, kampir! jerkidi Mahliyo. Bir tiyinam bermayman!

Shunaqami! gezardi Karima xola. Undog' bo'lsa! Iloyo seni tuqqan g'ar onang aslo o'nnganmasin. Dardi bedavoga yo'liqsin! O'lsa go'riga ko'ndalang tushsin! Senam bir umr balo-qazoga duch bo'lg'in! Aslo unib-o'smagin! Allohu akbar!

Tfu! Tfu! qarg'ish yopishgan ko'ylaklarini qoqdi Mahliyo. Iloyo o'zing o'lib qol! Qarg'ishing yoqangga yopishsin!

Shokir bir sapchib Mahliyoning oldiga bordi.

Tilingni tiy, mahluq! Mahluq! deb baqirdi.

Ha, urasanmi?! Ur!Ur! uni tezladi g'amgin malika. Urolmaysan, so'tak!

Uch taloq qo'ydim seni! baqirdi Shokir o'zini bosolmay. Yo'qol bu yerdan! Yo'qol!

Nu i chto uch taloq?! PadumayeshCHB! dedi ayol. ViditCHB vas ne xochyu!

Mahliyo do'qillab hovlidan chiqib ketdi. Karima xola supadagilarga yuzlandi.

Qani, bolalarim, sizlaram ketinglar! Haqingizni olasiz. Bundan keyin sizlarniyam ko'rmay o'taylik.

Hoy, xola! dedi Sodiq qizishib. Pichoq borib suyakka yetdi!

Hu suyaging bilan qurib ket! Unday bo'lsa omin! Iloyo senlarniyam! duoi ba'd qilish maqsadida fotihaga qo'l ochdi eshonning kelini.

Bo'ldi qarg'amang, xola, sapchib o'rnidan turdi Asadilla. Mana, ketyapmiz!

Hammasi uzun-qisqa bo'lib g'uldirashib hovliga chiqishdi. Darvoza oldida turgan вЂњТиковЂќ va вЂњNeksiyavЂќ mashinalari birin-ketin jo'nab ketdi. Olapar hamon o'z postida sergak edi, tamoyilga binoan, mehmonlarni asfalCHt ko'chagacha vovullab kuzatib bordi.

Oyxon bilan uch qizi bir qatorga tizilib olib yig'lashayotgandi. Fe'li aynigan Shokir ularga do'q urdi.

Bo'ldi qillaring!

Bizdan xafa bo'lmang, hiqilladi Oyxon. Xursandchilikdan yig'layapmiz...

Nega xursand bo'lasan? xo'rsindi Shokir. Biz qashshoq bo'lib qoldik, xotin!

Mahliyodan qutildik-ku, bundanam qutulib ketarmiz. Qornimiz to'yib, kunimiz o'tsa bo'ldi-da, avjga chiqib yig'ladi u.

Bunday kino qo'yib, meni yuragimni ezma! baqirdi Shokir. Undan ko'ra meni qarg'a! Senlarni shuncha qiynadim!

O'zingizam qiynalab ketdingiz-da, dadasi. Men sizni nega qarg'ay... Axir bosh egamsiz. Qo'lingizdan non yeb, tuz ichganman.

Shokir bu so'zlarni eshitgandan so'ng ko'ngli buzilib, o'zini tutolmay ko'zlari yoshlandi. U oldin arzimas boylikni yo'qotib, keyin yangi bir boylikni topgan kishiday ajib bir hayajonda qizlarini birma-bir bag'riga bosdi.

Meni kechiringlar, bolalarim, dedi ularning qo'lchalarini o'pib. Men yanglishdim. Qattiq yanglishdim... Sizlarga xamirosh ichirib, o'zim kayfu safo qildim. Bitta iflos maxluqni qazi-qartaga boqdim. Oltinga burkadim. Sizlarni xonavayron qildim. Ko'r singlimga yordam berishning o'rniga, uni uysiz-joysiz qildim! Xato qildim!

Rahmon amaki o'g'lining boshiga tushgan ko'rgiliklarga chidolmay, ko'ngli to'liqib yig'ladi. Erta tongdan beri sukut saqlab, ko'zlarini yumib supada o'tirgan mulla Hakim og'ir xo'rsinib dedi:

Ha, o'g'lim, Shokirjon, sen ismingga mos ish qilmading. Bundan keyin ko'zingni ochib yasha. Xudodan yorug' yuz bilan rizq so'ra, bolam. Xudo mushkulingni oson qilsin... Mulla Hakim jigarbandi Rahmon amakini quchoqlab xo'rsindi. Yig'lamang, eshonim.

Yuragimni ezmang. Shu bolalarga yetkazganiga, shu azoblarga duchor etganiga rozi bo'ling. O'zingizga ayon, men g'arib bu yorug' dunyodan tirnoqqa zor bo'lib o'tdim. Qani edi shunday mojarolar menikidayam bo'lsa... Yo'q... Buni xudoyi taolo menga nasib

qilmadi. Hayot degani shu ekan-da, do'st. Ko'rsatgan kuniga shukur deng.

Shukur, aka, shukur, xo'rsindi Rahmon amaki ko'zyoshlarini artib.

Shaharlik hamkorlar Olim bergan manzilga borib o'z haqlarini ko'r qoridan undirib olishdi. Bu chora-tadbir qaysidir jihatdan to'g'ri bo'lsa-da, sho'rqishloqcha vijdonga xilof edi. Mulla Hakim shu masalada g'azablanib o'yladi: вЂњInsof bo'lmasa iymonning ne hojati bor...вЂќ

* * *

Sho'rqishloq aholisi g'azablanganda, xursand bo'lganda, ajablanganda, qo'rqqanda, xijolat bo'lganda, qo'yingchi har qanday holatda, turli-tuman ohanglarda ishlatadigani вЂњIy-ya-ya!вЂќ degan xitob juda o'ziga xosdir.

Iya-a-a!/? deb hayratlanadi Zohida. Kechagina qorlar erib, bahor keluvdi. Bir pasda yana kuz keldimi? Iy-ya-a-a-a!/?

Iy-ya-a-a! achchiqlanadi Zahro eri Sharofni turtib. Qachongacha ish qilmay uyda o'tiraverasiz!/?

Sho'rqishloqcha bu xitob jahl chiqqanda sal qisqaroq talaffuz qilinadi.

Iyah?! g'azablanadi Sharof do'kondor g'ijjini. Meni tinch qo'yasanmi yo yo'qmi!/?

Erkaklar ko'p o'rinda bu unli xitobni eslamaslikka urinadilar. Xijolatli ahvollarda faqat вЂњIvЂќning o'zi qisqa shaklda ishlatiladi. Jon og'riganda, yig'laganda, birovni qo'rqitish maqsadida вЂњIvЂќ tovushi ayanchli cho'ziq ohangda izhor etiladi.

Salim kaptarvoz Murod oqsochni velosipedda kelib urib yuboradi.

I! Kechirasiz! deb uzr so'raydi velosipedidan sakrab tushib.

Murod oqsoch hakillab, inqillab oyog'ini ishqalaydi.

I-i-i-i! Oyog'imni ado qilding! I-i-i! deb Salimga olayadi va aybdor bo'lmish velosiped g'ildiragiga bir tepadi.

Jahl chiqqanda вЂњIyah!вЂќ xitobi juda baland va qisqa tarzda talaffuz qilinadi.

Iyah?! Men ataylab qilmadim-ku?! kechirimini qaytarib olib g'azablanadi Salim.

Shokirning inqirozga uchragani haqida turli mish-mishlar yurardi. Mardikor bozoriga qatnayotganini eshitib, g'iybatchilar ilhomlanib ketishdi.

Shokirni o'ziniyam qul qilib sotishganmish!

Iyya-a-a!

U o'la-o'lguncha qora non yeb, loyxandaqda ishlarkan!
Iyya-a-a-a!
Shokirni buyragi bilan qora talog'ini qirqib olib pullashgan deydilar.
Voy! Iyya-a-a-a!

G'animlar ko'chada mashinalarini tez haydab, Shokirning yuziga loy sachratib o'tib ketadilar. Shokir xayoli parishon bo'lib anchagina mung'ayib qoladi.

Sulton esa adirdagi kaftdek yerdan oltin unadigandek, qora terga botib ishlagani-ishlagan. U hozir g'alati hunarlarini kamaytirgan, lekin hamon yengil xayollar surib, toshkentlik delavoyini xotirlar, uni va yonidagi mama Rozani kutib, umid saqlab yashardi. Bunday вЂњБўнurlivЂќ kishilar yolg'on gapirishmaydi. Ular albatta so'zlarining ustidan chiqadilar. Shularni o'ylagan Sulton kaftdek yerga rangona bo'lib mehnat qiladi. Hosildan ham, delavoydan ham nom-nishon yo'q. Shokir ukasini yo'qlab adirdagi shudgorga chiqdi. Kapada o'tirgan Sulton akasining qo'lini olib salomlashdi. Ikkovi kapada o'tirib choy ichdilar.

Nega uyga bormading? so'radi Shokir. Iyah, biz senga nima qildik? Sabzini sug'ordim, dedi sigaret chekib Sulton. Delavoy Shurikdan xabar yo'qmi, aka? U ko'pchilikni aldab ketibdi. Senga o'xshab pul berib chuv tushganlar juda ko'p ekan. Ba'zilardan ming dollargacha olgan emish. Ko'p o'zingni chetga tortaverma, ukash, dedi Shokir uning yelkasiga qoqib. Uyga boraqol. Iyah?! xijolat bo'lib akasiga qaradi Sulton. Men shunday qilib ikki yuz ming so'mni urdirib yubordimmi? Opamdan xabar bormi?

Senga shuni aytgani keldim, dedi Shokir. Obidani og'rig'i tutib qolibdi. Mardikor bozoriga borgandim. O'sha yerda Olimjonni ko'rib qoldim.

Yana boryapsizmi, aka? achindi Sulton. Bormang o'sha yerga... Tirikchilikka pul topib kelyapman-da, ukash, dedi Shokir. Uyda un tugab qolibdi. Ro'zg'orga bir oz nafim tegyapti. Shokir ukasiga mehrlil termulib o'tirdi. U uylanolmagani, mana bunday ahvolga tushganiga o'zini aybdor sezib afsuslandi. Uni yelkasidan quchib bag'riga bosdi.

Mardikor bozorida ketmon va andavasini ko'tarib, suvoqchilar safida mijoz kutib o'tirgan Shokir, sharaqlagan tanish kulgu tovushini eshitib, piyodalar yo'lagi tomon nazar tashladi. Mahliyo va ofitsiant xotin mardikorlar yaqinidan o'tib borishayotgandi. Ular Shokirni tanib qolib, qadamlarini tezlatishdi. Mahliyo anchagina o'zgaribdi. Sochlarini oq-sariq rangga bo'yab, kalta qilib qirqib olibdi. Qo'lida uyali telefon, bo'ynida qo'sh-qo'sh oltin zanjir, kiyimlari toza charmdan, hatto sumkasining o'zi ham falon pul.

Shokir yerga ko'z tikib, u bilan kechirgan kunlarini yodga oldi. Mahliyo yumshoq divanda u bilan yotar, qirmizi olmani tishlab, o'z palaponiga suv bergan qushdek, og'zida unga bir bo'lak yedirib, ikkinchi tishlamni o'zi chaynab yutar va o'z muhabbatini ta'riflab lof urardi.

Men sizni osmonchalik sevaman. Siz-chi? Men sizdan ayrilsam albatta o'laman. Siz-chi? A, Shokir aka? Mana endi oshig'u beqaror g'amgin malika hashamdor hayotda, osmonchalik sevilgan boyvachcha esa mardikor bozorida. Ikkovlari ajralib o'lib qolishmadi. Qaytanga ikkoviga вЂњБўo'!вЂќ deydigan odam yo'q. O'sha kuni Shokir, bir shaharlik savdogarning uyida qora terga botib ishladi. Savdogar qotmadan kelgan, tishlari yirik, afti burishgan tajang kishi edi. Shokir unga вЂњБўozg'in savdogarвЂќ deb nom berdi.

Siz ustamisiz? deb loyxandaq atrofida aylandi u. Yo'q, dedi Shokir loy qorib. Ammo bunaqa ishga usta bo'lish shartmas. Tashvishlanmang, aka. Ko'ngildagiday qilib bitkazib beraman.

Afsus! tishini taqillatdi ozg'in savdogar. Agar o'sha yerdayoq shuni aytganingizda boshqa odamni olib kelgan bo'lardim. Loyni nega buncha ko'p qilyapsiz?

O'zim boplab suvab beraman, xo'jayin, gapni qisqa qildi Shokir. Ozg'in savdogar kun bo'yi tergayverib tinkasini quritdi. Shokir xayolga tolib, o'tmishni eslab ishga unnadi. U o'shanda Rossiyaga yuk yig'ayotgan edi. Xo'jaqishloqning meva saralovchi qizlari qutiga sasigan olmani qo'shib yuborishibdi. Shokir ularni achchiqlanib tergadi. Uchta yollanma ishchi qiz yig'lab yubordi. Biri oppoq, nozik, ta'sirchan ekan. U shunday ma'yus qaradiki, nigohidagi dardni ko'rib boyvachcha seskanib ketdi. Shokir uning sovuqdan ko'kargan lablari, ma'yus nigohini eslagani sayin pushaymon bo'lib, hovli devorini suvay boshladi. вЂњБўO'sha nozik qiz qaysidir sobiq amaldor yoki boy kishini bolasi edi chog'i, deb o'yladi u. Sen o'sha sovuq kunda cho'ntagingdan qo'lingni chiqarmay, sho'rlik qizlarni tepasiga borib, manavi odamday sayrayvergan eding. Boylik, mansab muhim narsa emas ekan. Nozik qiz qachonlardir to'kin muhitda yashagan, zamona zayli bilan nochorlik tufayli arzimagan pulga yollanib ishlashga majbur bo'lgan. Xudoning borligi haq ekan... Falakning gardishi aylanib, o'sha ma'suma qizning qismati mana bugun o'z boshingga keldi. Qaytar dunyo deganlari shu bo'ladiвЂќ.

Ozg'in savdogar devordagi chiziqlarni ko'rib asabiylasha boshladi. Shokirning xayoli bo'linib unga savolomuz qarab qo'ydi va devor suvashda davom etdi.

Hoy, uka! achchiqlanib uni tergadi ozg'in savdogar. Bu nima?! Bunisi-chi?!

Hozirgina gazcho'p tortdim, aka.

Nima cho'p? tishlarini taqillatdi u.

Gazcho'p. Keyin andavalayman. Shunda bu chiziqlar yo'qoladi, tushuntirdi Shokir.

Ozg'in savdogar shomga yaqin javobini berdi. Kechki ovqatni qizg'andi, ish haqidani chegirib qoldi-da, ko'chaga chiqarib qo'ydi. Shokir haliga qadar bunday sovuq yuzli odamga duchor bo'lmagan edi.

U Sho'rqishloqqa och-nahor yetib keldi. Xufton chog'ida bir kosa mastava ichib, sovuqdan dirdirab to'shakka o'ranib uxlashga chog'landi.

Bundan keyin loyxandaqqa tushmang, havo so'vib qoldi, dadasi, dedi Oyxon achinib.

Xo'p... dedi u tishlari taqirlab.

Uning tanasiga issiq xush yoqib, ko'zlarini uyqu chulg'adi. Tasavvurida tishi taqillaydigan ozg'in savdogar jonlandi. вЂњБўBuncha yuragi tor noinsof odam ekan-a. Qanday qilib shunga ro'para bo'la qoldim? deb o'yladi va nogoh Mahliyoni esladi. Bu mahluqlar

yoningdan o'tib qo'ysayam omad qo'ldan ketarkan-a! Ey, parvardigor, yana davlatimni qaytib bersang begona ayolni yaqinigayam yo'lamayman... Shu go'daklarim rahmini yegin ilohim. E, xudo, ketgan davlatimni qaytarib bersang, har kuni savob ish qilaman. Pul berishsayam buzuqlarga yaqin bormayman... Ming marta tavba qildim... O'zing kechir... Ming marta tavba qildim...**ВЪК** Bankrot boyvachcha g'uldirab, bir muddat shu alfozda tavba qilib yotdi va qattiq uxlab qoldi. Uning mehnatdan ezilgan vujudi ham tong otguncha xudoga tavba qildi. Oyxon yarim tunda uyqusi qochib, qulog'iga paxta tiqib yana to'shakka o'raldi. **ВЪНЪ**Bu er jonivorming ketib qolganiyam bir balo, qaytib kelganiyam, deya o'yladi u. Xurrak tortishini ko'ring! Traktorga o'xshab tarillaydiya. Iy-ya-a-a-a!**ВЪК**

O'n ikkinchi bob. Pahlavon o'g'il

Obidaning matonatiga tug'ruqxona bosh vrachi hayron qoldi. U shovqin ko'tarmay, tinchgina ko'z yoridi. Ojiza ayol pahlavon o'g'il tug'di, doktorlar va ayollardan xijolat chekib, o'zini yashirib uyalib qimtindi. Hamma chora-tadbir yaxshi kechdi. Faqat... chaqaloq Umidjon ko'zini ochavermasdi.

Buyam ko'rmikin? so'radi doya tug'ruqxona mudirasidan.

Hayronman. Nega ko'zini ochmaydi bu? kiftini qisdi u.

Kam yig'layapti.

Mana shu hol doyalarni o'yga toldirdi. Shifokorlar **ВЪНЪ**bu bola ko'rv**ВЪК** deb qaror chiqarib, biror chora qo'llashga botinmadilar. Ko'z ochmayotganini ro'kach qilib, Obidaga bolani bermadilar. Sun'iy ravishda oziqlantirib turdilar. Obida xudo va do'xtirlardan najot kutib, ko'ksiga to'lgan oppoq sutni sog'ib tashlar, o'zidan nafratlanar va uzundan-uzun o'y surardi. **ВЪНЪ**Mening bolam ko'rmikin yo ko'rmasmikim, xudoyim? dedi u dil to'rida nola qilib. Agar bu dunyoni ko'rmasa uning tug'ilishidan nima foyda? Ko'rlarning dunyoga kelishidan qanday maqsading bor? Birovlarga o'rnak qilish uchun, bir begunoh bandangni shunchalar xoru zor qilib, ko'r yaratasanmi, xudoyim? Bizlar odamlar oyog'i ostida paypaslanib yurganimiz ozmi? Nega zurriyodimga ko'z ato etmayapsan? Nega, mehribonim?..**ВЪК**

Qarindoshlar Obidani Sho'rqishloqqa olib ketdilar. Umidjonga esa shifokorlar ruhsat berishmadi. Karima xola qizini xo'rda ichib, to'shakda yotishga majburladi. U ko'ngli notinchligi bois onasiga quloq solmadi. Ba'zan yupun kiyimda hovliga chiqib aylanib yurar, o'g'lini va uning ko'rish-ko'rmasligini o'ylab ezilardi. Obida chilla urfiga ham amal qilmadi.

Agar ayol kishi yozda tug'sayam qalin chopon kiyadi. Xo'rda ichadi dedi Karima xola. Bu qiz meni boshimga bitgan tashvish bo'ldi. Aytganga ko'nmaydi.

Yangicha xotin-da bu, kulimsiradi Rahmon amaki.

Siz shu bolalarni yonini olaverib buzingiz! deb urishdi xola.

Hadeb mendan ko'raverma! dedi tutaqib Rahmon amaki. Zamon boshqa-da, xotin.

Chaqaloq ko'zini ochmagani qariyalarning ham dillari xufton edi. Xonadonga uchinchi ko'r yetishmay turuvdi o'zi...

* * *

Olim va Obida Sho'rqishloqdagi supali uyda mungli suhbat qurdilar.

Tushimda Umidjonni ko'zlari ochilganmish, dedi Obida.

Ilohim tushingiz o'ngidan kelsin, Obidaxon, unga dalda berdi Olim.

Meni, xudoyimdan yagona tilagim, farzandim dunyoni ko'rsin, xo'rsidi ayol. Shu go'dak ko'z ochib dunyoni ko'rsa, xudoyimni davlati kamayib qolmaydi-ku!

Shukur qiling, Obidaxon... uni bag'riga bosdi Olim.

Shukur, shukur, dedi onaizor. Dunyoni o'g'limiz ko'rsalar, dunyoga besabab kelib-ketmagan bo'lardim. Dunyoni qarg'ab o'tmagan bo'lardim, pirim...

Astag'furulloh, dedi Olim. Har qanday ahvolda ham dunyoni qarg'amang..

Yo'q! dedi onaizor. Xudoyim meni loaqa shundan noumid qilmasin! Istamayman! Umidjon men kabi paypaslab xoru zor bo'lishlarini sira istamayman! Istamayman!

U homiladorlik chog'ida ne-ne azoblarni boshdan kechirmadi! **ВЪНЪ**O'zi ko'r bo'lsa, ikkiqat bo'lib olganiga o'laymi!**ВЪК** degan tahqirlarni ham ko'p eshitdi. Bir kuni so'qir notavon, shahar ko'chalarida hojatxona ilinjida, notanish kishilardan yordam so'rab birov hovliga kirdi. U hojatxonadan chiqib tahorat oldi. Hovlida qariroq kampir yashardi.

Sizga nima azob edi-ya, bolaginam, dedi achinib. Bolani nima keragi bor? Hozirgi bolalar ota-onasini boshiga yetyapti.

Dunyoda mehru vafo qolgani yo'q. Ha, tortgan azoblarindan seni...

Obida kampir bilan xayrlashib, rahmat aytib chiqib ketdi. Uning so'zlariga parvo qilmadi. **ВЪНЪ** Yo'q, dedi u tishini tishiga bosib.

Men albatta bu bolamni tug'aman. Uni ko'zlari ochiq bo'ladi. Armonlarim bitadi, orzularim ushaladi. Men undan dunyo qandayligini so'rab bilib olaman. Men bu dunyoga kelib o'zimni, ota-onamni, birodarlarimni, sevgan yorimni ko'rolmadim. O'z tuqqan farzandimniyam ko'rolmayman... Shuncha jafosiga yarasha bitta vafosini mendan darig' tutmas... Loaqa tuqqan bolam bu dunyoni ko'rar... **ВЪК**

* * *

Xuddi shu chog'larda Umidjonni tug'ruq palatasidan davolash bo'limiga o'tkazdilar. Bosh hakim va tug'ruqxona mudirasi chaqaloq tepasida uzoq suhbatlashdilar.

Bola ko'zini hali ochmadimi?

Ha, dedi mudira.

Ota-onasi tug'ma ko'r, a?

Ha. Aytishlaricha ular yorug'likni umuman ko'rmaydilar.

Ularni aqlu xushlari joyidami?

Risoladagiday kishilar.

Bolakayni quvvati qanday? chaqaloqni yaqindan kuzatdi hakim.

Sun'iy oziqlantiryapmiz. Quvvati yaxshi.

Onasini emdimi?

Onasini hali emmagan.

Tug'ilishda bo'g'ilish-netish bo'lmadimi?

Yo'q. Qaytanga juda muvoffaqiyatli tug'riq bo'ldi.

Kuchli yorug'likka reaksiyasi qanday?

Yorug'lik tomonga burilib olyapti.

Bolakay ko'radi. Albatta ko'radi, dedi bosh hakim. Bu psixologik deffekt. Ko'z ochib olamga qarash funksiyasi ota-onasini kayfiyatida yo'q. Shu sabab chaqaloq olamga ko'z ochib qarash zarurligini bilolmayapti. Kuchga to'lgach ko'zi ochiladi. Vaqt hammasini hal qiladi.

Bosh hakim Umidjonni qoldirib, boshqa bemorlar bilan alahsib, o'z kundalik nazoratini boshladi. U yangi tayinlangan. Uni hamma har turli qabul qiladi. Shu qabildagi olimona suhbatlar o'tkazib, bo'limdan-bo'limga sayohat qilib yuradi. Bemorlar bilan so'rashadi. Ularning bosh tomonida bir oz o'tiradi. Keyin bo'lim boshlig'iga qarab:

Bu kishini albatta davolash kerak, deydi tagdor ohangda.

Bemorlar uni ko'rishganda ona qo'ynida yotgan go'dakdek yayrab ketishadi. Bosh hakim ko'ngil ovlashga juda usta. Ammo, o'zi aytmoqchi, hammani barobar rozi qilib bo'lmaydi. Noshukur odamlar uni g'iybat qiladilar.

Do'xtirlar hozir faqat gap bilan davolashadi. Qolgan hamma narsa bemorni yonidan. Xayriyatki, ignani o'zlari sanchishadi.

Bosh hakim goho shifokorlik kasbini himoya qilib, ta'sirchan va'z o'qiydi. Uni tinglagan kishining yuragi ezilib, ko'zlariga yosh qalqiydi.

Hamma muxbirlar g'iybatchi, deydi u kuyinib. Faqat muallimlar, professorlar, vrachlar yoki mullalarni yomonlab yozadilar.

Qiziqchi masxarabozlaram shularni mazaxlaydilar. Poraxo'r vrachlar bilan muallimlar в Ёњ Otalar so'ziv Ёќ ko'rsatuvida, bir ming bir yuz marta qoralangan. Gazetalardayam ahvol shu. Kimsan falonchi hakim poraxo'r ekan. Kimsan falon muallim pora olibdi!

Lekin ular soliqchilar boshlig'i, tuman hokimi, shirkat raisi, prokuror yoki tergovchilarni yozisholmaydi. Nega? Chunki, ular qasdlashib qolishsa qamab qo'yishadi, ishdan bo'shatishadi. Yoki biror narsa undirgani borishsa, muxbir sho'rliklarni ko'chaga qoq-quruq haydashadi. Meni esa qo'limda na amal bor, na pul bor. Mana shu qo'llarim bilan oshxonada osh yeyman, ishxonada esa bemor axlatini ushlayman. Iyah?! Qani axir adolat?! Bemor tuzalib chiqib ketguncha, yuragimni hovuchlab o'tiraman. U ketgach, ertasiga o'rniga yangisi kelib yotadi. Yurak hovuchlash yana davom etadi. Bemor tuzalib ketsa xudodan ko'rishadi. O'lib qolsa mendan ko'rishadi. Hatto meni sho'rqishloqlik muttahamlar kelib, bir marta do'pposlab urishgan. Sho'rqishloqdagi Janjalmahallani bilasizlarmi?

Bilamiz! Bilamiz! deb bosh irg'ishadi bemorlar.

Eshonko'chaning pastidagi mahalla-da! deydi kimdir.

Ha eshonko'chasi bilan basar topsin! xafa bo'ladi bosh hakim. Iyah?! Meniyam bitta nonga qornim to'yadi. Ajal axir xudodan keladi. Insonni o'limdan olib qolish mumkin bo'lganida, men o'z otajonimni tuproqqa topshirib yig'lab o'tirarmidim? Odamlar mediklarni qadriga yetishmaydi. Ro'zg'ori tang bo'lsa, kobra xotini gizillab, o'xlovni hozirlab tursa, yuragi titrayotgan bu sho'rlik, qanday qilib aqlini yig'sin, qanday qilib bemorni davolay olsin? Iyah?!

Shunaqami?! Voy iyya-a-a?! deb ko'zyoshlarini artadilar tushakda yotgan bemorlar, sho'rpehona vrachlarga achinib. Bu dunyoda hammaqayam qiyin ekan-da.

* * *

Rahmon amakining hovlisida esa er-xotin ojizlar hamon farzandlarini kutadilar. Supada o'tirgan Olim Obidani choponiga o'rab, yoniga o'tqazdi.

Xafa bo'lmasangiz sizga bir sirimni aytaman, dedi Olim.

Qanday sir? so'radi Obida.

Sizga aytmay yurgan kattagina bir sirim bor edi.

Ana xolos, dedi Obida. Aytin, pirim, eshitaylik.

Bu voqeaga o'n yil bo'ldi. To'lqin tog'am bilan Sarvarxon yangam otamni mulkini sotib, pulini tillaga aylantirishgandi.

Uylanishimdan bir yil avval tillani qo'limga tutqazishgandi. Hozir o'sha narsalar bir joyga yashirilgan holda turibdi. U juda katta boylik.

Boyvachcha bilan yashabmanu bexabar ekanman-da? dedi Obida. Nega buni menga aytmagansiz?

Bunga hojat sezmadim.

Tillalarni qayerda saqladingiz?

Sutbuloq ona mozoridagi sada kavagiga tashlab yuborganman.

Nega unday qildingiz?

Men o'sha boyliklardan nafratlanaman, dedi Olim. Shu boyliklarni deb, ota-onam erta kunda xazon bo'lishdi. To'lqin tog'am esa ular ko'zingizni davolash uchun bir umr pul yig'ishgan, ilojsiz ekanini eshitib pushaymon chekishgan deydilar. Bir tush eshitildi menga.

Qanday tush eshitdingiz? so'radi Obida.

Bir salobatli ovoz в Ёњ boyliklarni muhtojlarga berib, itni duosini ol, shunda o'zingga kerakli narsani olasanв Ёќ, dedi. O'zimga kerakli narsa deb u nimani nazarda tutdi deb uzoq o'yladim. U menimcha o'g'limizni ko'zlarini nazarda tutdi. Agar o'z o'rnida turgan bo'lsa, yashirilgan boylikni Shokir akamga bermoqchiman. Bugun itdan duo olamiz. O'shanda men o'zimga kerakli narsaga erishaman.

Qanday qilib?

Itni to'ydirib qo'ysangiz duo qiladi. Hazrati Bahovuddin avliyolik yo'lida itdan duo olganlar.

Ular shu kuni tunda bir idishga pishirilgan go'sht solib, yetaklashib Sharof magazinichining darvozasi oldiga keldilar. Olapar ikki o'jizni tanidi. Olim qo'lidagi taomni maysa ustiga ag'dardi. Sal nari ketdilar. Olapar vaqti chog' bo'lib, o'ljaga tashlandi. Miriqib xudoyi oshini ura ketdi. Olim va Obida yo'l chetidagi ariq labida o'tirdilar. Olapar ochlik azobidan qutilib, kuchga to'lib o'ynoqlay boshladi.

Ey, xudoning maxlug'i, dedi Olim. Ehsanimizni yeb, bolamizni duo qilgin.

Ko'rlar yana katta darvozadan o'z uylariga kirib ketishdi. Olaparning vujudi yayradi. U shataloq otib o'ynab, Sho'rqishloqni boshiga ko'tarib vovullab, adir ustiga chopib chiqdi. Qishloq qabristoni shu adir ustida edi. Indamaslar mamalakati oralab Olapar qanot yozib uchdi. Uzoq qirlarda bo'ri uvilladi. Buni eshitgan qishloq itlari junbushga kelib hura boshladilar. Olapar ko'krak kerib

hammadan oshirib o'zgacha kuch va g'ayrat ila hurdi. Rahmon amakining darvozasiga mamnun qarab, ikki o'jizni yodga oldi. Ha, niyatingga yetgurlar. Bugungi kun juda yaxshi kun bo'ldi-da!

* * *

O'n birinchi kuni tushga yaqin chaqaloqning rangu tusi o'zgardi. Bosh hakim qiziqib yana tepasiga keldi. Karima xola va Oyxon shu yerda edilar. Tashqarida Rahmon amaki, Shokir, Sulton ilhaq bo'lib kutib turardilar.

Ko'zini ochsayu ochmasa olib ketaveramiz, do'xtir, dedi xola. Ota-onasini yuragi ezilib ketdi.

Mayli, dedi bosh hakim. Lekin noumid bo'lmang.

Ular engashgan chog'larida Umidjon charaqlatib ko'zlarini ochdi. Atrofnı xuddi katta odamlarday kuzatdi. Bosh hakimga tikildi.

Iyya?! E, xudo! dedi bosh hakim shoshib. Bu bola meni ko'zimga qaradi!

Ko'zini ochdi! shodlanib xitob qildi Karima xola.

Yo'q! ajablendi bosh hakim. Kakim obrazom, yangi ko'z ochgan chaqaloq meni ko'zimga qarayapti? FenomenalCHno!

UnikalCHno!

Xudoga shukur! dedi quvonib Karima xola. Xudoga shukur!

Da-da! bosh irg'adi bosh hakim. Menam xuddi shuni aytmoqchi edim!

* * *

Rahmon amaki va oilasi shahardan xushvaqt qaytishdi. Hammadan avval boshqa yengil mashinada Sulton pachava yetib keldi. Eshikdan kira solib supada o'tirgan opasi va pochchasiga xushxabar yetkazdi. U sigaretning bo'sh qutisini mikrofon qilib, xuddi abjir suxandonlardek javray ketdi:

Hello! Xonimlar va janoblar! Shaxsan o'zim va qishloq ahli nomidan sizlarni qutlayman! Mister Umidjon kelyaptilar! U kishi qadamlariga qo'yilar so'yilsin! Karnay-surnaylar chalinsin! Tuman hokimi chaqirilsin! U eshik-peshiklarni supurib tursin! Janobni ko'ngillari juda nozik! Janoblar! Nega xursand emassiz?!

Ko'zlari-chi? dedi Olim. Ko'zlarini ochdilarmi?

O, mister fazer! uni quchoqladi Sulton. Umidjon bosh vrachni ko'ziga tikilib vЪЪseni ishdan haydayman! Yaxshi ishlamas ekansan!vЪќ dedilar. Bosh vrach esa hayratdan yoqa ushladi. vЪЪUmidjon meni ko'zimga qaradilarvЪќ dedi hayratlanib! Xullas, men Bill Klintonga xabar berishim kerak. U ham beshikto'yida qatnashadi.

Sulton!? orziqib chaqirdi ukasini Obida. Ko'zi ko'ryaptimi?! Shuni ayt!

Umidjon soppa-sog' ekan, mem! U ko'ryapti! tantanali qichqirdi Sulton.

Allohga shukur! xitob qildi Olim qah-qah urib kulib. Obidaxon, eshitdingizmi?!

Alhamdulillah! to'lqinlanib jilmaydi Obida. Noumid qo'ymading Allohim!

Men o'z ko'zim bilan ko'rdim, leydi end jentelCHmen! sayray ketdi Sulton. Ular hozir yetib kelishadi. Tayyor bo'lib turing.

Quvonchdan missis Karlson bilan mister Robinzonlar yig'ladilar. SinCHbor Shukura bilan sinCHbora Ayxen ham yig'lashdi.

Umidjonni ko'zi ochiq ekan. Menam yig'lamoqchi edimu sigaretim tugab qolgandi. Pechcho-o Aleks, aqalli sigaretga pul bering, bo'm-bo'sh qutini ko'tarib yuribman.

Sigaretni kecha olib kelganman, dedi Olim. Ichkari uydagi shkafda turibdi.

Suyunchisiga birorta vЪЪmo'ysafidvЪќ qo'yarsiz? uni quchoqladi Sulton. O, bir oz erisangiz-chi, pechcho-o-o!

Xo'p, keyin gaplashamiz, im qoqdi Olim.

Sulton uyga sigaret olish uchun kirib ketdi. Hovlida Olim bilan Obida yolg'iz qoldi. Ularni ajib bir hayajon, xursandchilik qamrab oldi. Olim chuqur-chuqur nafas olar, yuzida turli imo-ishoralar zohir bo'lar, o'zicha jilmayib qo'yar, birovdan uyalgandek boshini egar, turib-turib ikki qoshi barobar uchar, tez-tez qo'llarini bir-biriga ishqalab silkinib qo'yardi. Obidaning yuzida esa negadir so'niq bir ifoda paydo bo'ldi.

Pirim, chaqirdi Obida.

Labbay, Obidaxon, qo'llarini ishqalab qars urdi Olim.

Bir gap aytsam ko'nglingizga og'ir kelmaydimi?

Bugun siz uchun hamma narsaga tayyorman! dedi masrur ota.

Balki sizam taqdirga tan berarsiz?

Nima demoqchisiz o'zi? hushyor tortdi Olim.

Umidjonni ko'zlari ochiq ekan, dedi Obida. Ikkimizni esa ko'zimiz ko'rmaydi. Biz qanday qilib ko'zi ochiq bolani boqamiz?

Umidjon bir to'da so'qirlarni nursiz ko'ziga termulib o'sadilarmi?

Axir?... Nima demoqchisiz o'zi?! dedi Olim yuragi ezilib.

O'g'lingizdan keching, otasi, taklif qildi zolima ayol.

Axir?... Bu qanday zulm?! qaltirab qo'llarini havoda yoydi sho'rlik ota. Biz-chi?

Biz ham xursand bo'lib yashayveramiz, dedi u jilmayib.

Olimning yuzidagi barcha imo-ishoralar to'xtab, faqat pastki labidagi sezilar-sezilmas titroqgina saqlanib qoldi. Ko'z ko'ngil oynasi deydilar. Ko'zlari so'qir sho'rpehona Olimjonning ko'nglidan nimalar o'tganini hech kim bilolmadi.

Rahmon amaki oilasi yangi mehmon bilan Sho'rqishloqqa yetib keldi. Hovli shodiyona qiy-chuvga to'ldi. Ojizlarning o'zlarini tutishlari Karima xolani o'ylantirdi. Bularga nima bo'ldi o'zi? Nega bolasiga talpinmayapti?

U Umidjonni ko'tarib olgan:

Qayerdaman deb hayron bo'lyapsizmi? Aynanay sizdan? deb tilini yarimta qilib chaqaloqqa so'z qotardi.

Qizim, o'g'lingni qo'lingga ol! xitob qildi Rahmon amaki. Ko'zlari seni qidiraverib tolib ketdi bolamni. Qo'lingga olaqol, onasi.

Ko'zlaridan o'rgilay, pichirladi so'qir ayol yuzini chetga burib.

Umlari uzoq bo'lsin, dedi titroq ovozdā Olim.

Sizlarga nima bo'ldi? so'radi tashvishlanib Karima xola. Umidjonni ko'zi ochiq ekan. U ko'ryapti. Obida, kel, ko'tar bolangni!

Oyi, dedi Obida. Akamni o'g'li yo'q. Biz Umidjonni akamga berishga qaror qildik. Qo'limizni qaytarmanglar.

Oraga og'ir sukunat cho'kdi. Chaqaloq bu sukunatdan qo'rqdimi yoki onasidan ayrilganini sezdimi, chirqirab yig'lab yubordi.

Yuragimni ezma! achchiqlandi Karima xola. Xudoga shukur qilib, bolangni qo'lingga ol! Uni emiz! Bolangga mehning shumi?

Mehrim borligidan shu qarorga keldim, oyijon... xo'rsindi mahzuna ona.

42 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

Meni qorong'i bag'rimda bu azizga nima bor ekan? Ko'ksimdagi sut emas, zardob... Kulib turganim bilan ko'ksimni butun joyi yo'q... Umidjon sizlarni bag'ringizda yayrab yashasin. Karima xola ho'ngrab yig'ladi. Oila a'zolari unga jo'r bo'ldilar. Sulton mo'ltirab: Eh, Diana xonim... dedi sigaret tutashtirib. Oh, jiznCH!

Mana, hech bo'lmasa bag'ringlarga bosanglar uni... dedi Karima xola chaqaloqni Obidaga uzatib. Sho'rginang qursin seni, qizim-a... Sho'rginang qursin...

Obida chaqaloqni qo'lga olib, uzoq hidladi, barmog'i bilan yuzchasini paypaslab olgach, quvondi. Chaqaloq yig'lashdan to'xtadi. Assalomu alaykum, Umidjon. Oh, qaniydi shu yuzlaringizni so'qir onangiz ko'ra olsa... dedi u. Iloyo azizu mukarram bo'ling. Biz so'qirlardan dilingiz og'rimasin.

Bir ozdan keyin Obida bolani eriga uzatdi. Olim uni qo'lga olib, avaylab yuziga yuzini yaqinlashtirib hidlab ko'rdi. Oh-oh! Umringiz uzoq bo'lsin, o'g'lim, dedi u hamon titrayotgan labini chaqaloq yuziga tekkizib. Sizni rosa sog'inib kutgandik. Mana, niyatimizga yetdik, Umidjon. Sizam niyatingizga yeting!..

Obida Umidjonni o'z qo'li bilan Oyxonga topshirdi. Ojizlar shu kuniyoq Sho'rqishloqni tark etib, ma'yus qiyofada shaharga jo'nab ketishdi.

Iy-ya-a-a! ajablanib sho'rqishloqchasiga xitob qildi Karima xola.

O'n uchinchi bob. ВЪНЬУmidвЪк firmasi

Shokir va Sulton adirdagi sabzini o'toqdan chiqarishdi. Hovliga qaytib kelib mastava ichish uchun supaga o'tirganlarida, hassasi bilan darvozani taraqlatib, paypaslab Olim kirib keldi. Qaynilar pochchaning hurmatiga oyoqqa turdilar. Tashqarida mashina kutib turibdi, dedi Olim. Bir joyga borib kelish kerak. Zarur ish chiqib qoldi. Bir piyola choy iching, dedi Shokir. Mastava tayyor. Shopimi chaqiraylik, deya jo'r bo'ldi Sulton. Umidjonni bir ko'tarib qo'ying, Olimjon pechcho. Umidjonni ko'tarishga vaqt boru choy ichishga vaqt yo'q. Mastava ichishga-chi? ezmalandi Sulton. Astag'furulloh, bosh chayqadi Olim. Choy ichishga vaqti yo'q odam, mastava ichishga qayerdan vaqt topsin? Olim Oyxon olib chiqqan chaqaloqni bag'riga bosib o'pib qo'ydi. So'ng uni qaytarib berdi. Dadaga salom berdingmi? chaqaloqni erkalatdi Shokir. Ular mashinada yo'lga tushdilar. Sutbuloq ona mozoriga borishdi. Shokir hamon nima gapligini tushunmas, Sultonga kaftini qisib qarab qo'yardi. Olim esa o'z xazinasini bor yoki yo'qligini hozircha aniq bilmagani uchun, podadan oldin chang chiqarmay jim borardi. Nihoyat mozorga yetdilar. U sadaga yaqinlashdi. Hassasini sada kovagiga urib, yigitlik chog'larini esladi. Tog'asi To'lqinboy vijdonli kishi edi. U bir hovuch oltin taqinchoqlarni qora xaltaga solib, ko'rlar maktabiga keldi. Olimjon, dedi tog'a jiyaning boshini silab. Otangizdan ko'p narsa qolgandi. Siz qishloqqa qaytishni rad etdingiz. Men ba'zi mulkinglarni sotdim. Otangizdan qolgan hovlingiz o'z nomingizda. Unga qarab turarman. Ammo mana bu boylikni yashirib qo'ying. Biror kuni kamingizga yarab qolar. Olim bu boylik ota-onasining ochiq ko'zini ko'r qilganini bilardi. Ularni sog'inib borgan chog'larda, ota-onasi faqat pul sanash bilan ovora bo'lardi. U oltinlarni To'lqin tog'aga in'om qildi. Lekin tog'a rad etdi. Olim Sutbuloq ona haqidagi afsonani eshitgandan so'ng, kuchli ta'sirlanib, shu oltinlarni niyoz qilib, daraxt kovagiga tashlab yubordi. Lekin boyliklar hozirga qadar o'z o'rnida turibdimi yo yo'qmi? Bu unga qorong'i edi. Tavakkal, dedi Olim. Shu kovak tubini tekshiringlar. Nega? ajablandi Shokir. Ha, pochcha, nima gap o'zi? so'radi Sulton. Shu yerga ilgari bir narsam tushib ketgandi... dedi Olim. Shokir qo'lini kovakka tiqib tugunni topishga urindi. Keyin Sulton kovakka qo'l tiqib ko'rdi. Kovak tubi juda chuqur edi. Sulton sada ustiga chiqib kovak ichiga mo'raladi. Tubi yo'qqa o'xshaydi, dedi u. Bu daraxtni kesmaguncha narsangizni olib bo'lmaydi. Bir ilojini qilinglar, deb buyurdi Olim. Sulton mozorda kuymayib yurgan Orif shayxga uchrab, qattiq sim va fonar topib keldi. Urina-urina nihoyat daraxt kovagidan qora tugunchani chiqarib oldi. Ular mashinaga o'tirib ortga qaytishdi. Uyga yetib kelishgach, tugundagi qimmatbaho buyumlarni yozib tekshirdilar. Shokir va Sulton hangu mang bo'lishdi. Ana bo'lmasa! dedi Shokir xomcho't qilib. Bu oltinlar besh million so'mlik chiqsa kerak. Siz bu narsalarni bahosini bilmas ekansiz, iljaydi Olim. Shuncha boyligingiz bo'la turib nega ishlayapsiz, pochcha? qiziqdi Sulton. Bundan menga nima foyda? kiftini qisdi Olim. Sizlarga shuni tuhfa qilaman. Umidjon baxtli bo'lishlari kerak. Oramizda bo'lib o'tgan bu hodisani faqat uchovimiz bilaylik. Yo'q, keskin bosh chayqadi Shokir. Men buni olmayman. Ochimdan o'lsamam olmayman. Buni sizgamas, Umidjonga berdim. Siz ilgari shu oilani boqqansiz. Yana o'sha ishni davom ettiring. Agar tekinga olishni istamasangiz qarzga oling. Men qachongacha o'z jigarimning qonini ichaman? dedi Sultonga qarab Shokir. Sen tushuntir pochchangga! Siz kimni qonini ichyapsiz, aka?... o'zini soqit qildi Sulton. Nima, ishlashdan chiqib qoldingizmi? so'radi Olim. Yo'q, dedi Shokir. Sho'rqishloqlikni ish bilan qochirib bo'lmaydi. Faqat o'z xatolarimdan o'zim charchadim, Olimjon. Xo'sh, nima bo'пти! dedi topag'on Sulton. Umidjon tufayli shunday imkoniyatga ega bo'ldik. Kelinglar, ВЪНЬУmidвЪк firmasini ochaylik. Yana qadimgiday oldi-sotdi bilan mashg'ul bo'lamiz. Bizga axir bu masalada hech kim bas kelolmaydi. Aytishga oson, dedi Shokir. Yana noldan boshlash kerak. Nu i chto?! dedi ko'tarinki ruhda Sulton. Hozir xalqqa davlat yer-suv beryapti. Yer sotib olamiz. Savdoni rivojlantirib, bo'rdoqichilik bilan shug'ullanamiz. Yerdan chiqqan hosilni sotib, yem-xashakni molga yediramiz. Og'izdagi oshmas bu, dedi Shokir. Nega qo'rqasiz, aka? Ilgari mard edingiz-ku? Yoki Mahliyo... a?

Hadeb mendan kulaverma, pachava!! baqirdi Shokir va darrov o'zini bosib oldi. Sultonboy, haziling juda qo'pol-da.

* * *

Dafina xazina ancha salmoqli chiqdi. Shokir va Sulton yana faollashib, yuk tashuvchi mashinalarni yollab, qadimgiday bog' mahsulotlarini Barnaulga olib borib sota boshladilar. Olimning iltimosiga ko'ra, sir maxfiy qoldi. Rahmon amaki hech narsani tushunolmasdi. Barnauldan qaytib kelgan ikki o'g'ilni og'ir tayoq bilan qarshiladi. Karima xola oraga tushib, ularni ajratmoqchi bo'ldi. Lekin cholning avzoyini ko'rib, o'zini chetga tortdi. Rahmon amaki tayoq bilan Shokirni ko'proq urdi. Shokir uyatni bir chetga surib, allaqachon ko'chaga qochib chiqib olgan olifta Sulton ortidan lo'killab qochdi.

E, xudo! zorlandi Shokir ko'chadagi kishilardan xijolat bo'lib. Qachongacha meni boshimda nohaq kaltak sinaveradi? Men nima gunoh qila qolgandim o'zi?!

Rahmon amaki ularni tuproq ko'chada quvib urdi. Olapar ham vovullab ko'rди, lekin cholning avzoyini ko'rib, в Ёњobbo bu mendanam yomonga o'xshaydi, в Ёќ deb hovlisiga kirib berkindi. Adirko'chalariklar to'dalashib ko'chaga chiqdilar. Tepalikdagi choyxona ayvonida o'tirgan choyxo'rlar ham chopqillashib, tekin tomosha ko'rishga yetib kelishdi. Salimning kaptarlari g'ala-g'ovurdan hurkib, parillab osmonga ko'tarildi.

Shu el-yurtни oldida ayt, ikkalang! baqirdi Rahmon amaki. Men senlarni harom yedirib katta qilganmidim?!

Yo'q!! e'tirof etishdi o'g'illar.

Yana qayerdan pul topding, tug'ilmay o'lgurlar?! Nima, biror kishini so'ydingmi yo biror omborni o'mardingmi?! Menga ayt!

Kimni puli bu pullar?!

O'zimizniki! dedi Sulton. Mister Robinzon! Shimimni yirtdingiz!

Salim esa ko'chada chopib gah-gahlab yugurar, Adirko'cha ustida davra yasab uchib, dorchodaga qaytmayotgan kaptarlarini chaqirardi. U alami ichiga sig'may Rahmon amakiga tashlandi.

Agar kaptarlarim qaytmasa to'laysiz, aka! dedi harsillab. Sizni dastingizdan hammasi hurkib uchib ketdi. Bularni hali dorchodaga to'liq o'rgatmagandim.

To'rt so'mlik kaptaringni menga pesh qilma! g'azabini sochdi amaki.

E, aka! qizishdi Salim kaptarboz. Bular hammasi uzun paypoqli kaptarlar. Bitta bo'rdoqi qo'yga alishganman! Bir hafta oldin shahardan olib chiqdim!

Nima-nima?! Bu gapni eshitgan Zohida Salimning yoqasidan olib baqira ketdi. Hali bularni pulga olganmidingiz?! Menga bekorga olganman dedingiz-ku? Uyda bir chaksa un yo'q. Bu bo'lsa qo'yni o'g'ri urdi deb, meni aldab, puliga kaptar olib kelibdi.

Hoy, musulmonlar, shungayam nasihat qilasizlarmi yo yo'qmi?! O'lar bo'lsam o'lib bo'ldim-ku!

Ana, Rahmon aka! zorlanib javradi Salim. Kasringizga qolib sirim ochildi. Qachon aqlingiz kiradi? Ko'chani boshingizga ko'tarib janjal qilaverasizmi? Tarbiya bormi?! Bu Adirko'cha tinchiydimi yo yo'qmi?!

Hamma uy-uyiga tarqalib, ko'cha suv quygandek tinchlandi. Darvozasi oldida miriqib janjal tomosha qilgan Zahro Olaparni erkalab boshini siladi.

Qo'rqma, azizim, qo'rqma, dedi tilini chuchuk qilib. Bu jinnilardan cho'chidingmi? Ketdi. Hammasi ketdi. Qo'rqma.

Uningni o'chir! baqirdi Sharof do'kondor darvozadan bosh boqib. Shu mehringni menga bersang saxar kasal bo'lmasdim!

Prostitute degan kasal bo'lmasdim! Hammasi seni kasringga bo'ldi! Hozir Olaparingni otib tashlayman!

Iy-ya-a-a! Oldin meni ot, zolim! Keyin Olaparni ot! dedi u do'rillab va itiga qayrildi. Qo'rqma, pochchang seni otolmaydi. U tovuqni so'yolmaydi-yu, seni otarmidi... Pochchang naleva-naprava ado bo'lgan.

* * *

Oktabr oyining ayozidan ba'zi daraxtlar sarg'aya boshladi. Umidjon belanchakda oyoqlarini o'ynab, atrofga quloq solib, qiqirlab kuladi. Qayerdadir o'zini sog'inib yashayotgan ikki so'qir borligini esa bilmaydi. Belanchak tebranganda ko'z o'ngidagi olam ucha boshlaydi. Umidjon xohlab-xohlamay ko'zlarini yumilib uyuga ketadi. U o'zi kirib borayotgan zulmatda tanho qolishdan qo'rqib, ko'zlarini ochadi. O'z atrofida bir necha bexavotir quvnoq chehralarni ko'rib, xotirjam uxlab qoladi. U goho tush ko'radi, goho ko'zi yumuq o'y suradi. в ЁњBu odamlar nega bemavrid kulaveradilar, yig'layveradilar, baqiraveradilar? Nega osmon qorong'i bo'ladi? Nega yorug' bo'ladi? Nega meni hamma o'paveradi? Nega meni ko'tarishaveradi? Men kimman o'zi? Bu yer qanday joy o'zi? в Ёќ

* * *

Shokirning qadimgi mijozlari, mish-mishlar yolg'onligiga ishonch hosil qildilar. Unga nasiyaga mahsulot bera boshlashdi. Savdo ishlari avj olgan aka-ukalar sarmoyasi oy sayin ko'payib bordi. Rahmon eshon xonadoni yana mehmonlarga gavjumlashdi. Hayot iziga tushib asliga qaytdi. Dasturxon nonu oshga to'ldi. Yo'qolgan yoru do'st, qavmu qarindoshlar qayta topishdilar. Mana, har doimgiday o'z vaqtida Oktabr ibn Partkom bitta bo'sh qop ko'tarib kirib keladi.

Salom! Salom! dedi bidirlab. Hamma odam do'stlarga salom! Sizga Sho'rqishloq go'zali Naziraxonim odamdan alangali salom! U kishi odamgarchilik qilib, bir qop un berib yuborishingizni so'radilar. Men besh-olti yildan beri vaqtinchaga ishlamay turibman. Ishga kirganimdan so'ng qarzlrimizni albatta to'layman. To'ldirib soling, dadajon odam! Unning uvoli bor. U yer-bu yerda qolib ketsa sichqonlarga yem bo'ladi. Uvol qilmang.

Naziraning elchisi bir qop bug'doyga ega bo'ladi. U hatto allaqaysi taniqli zot nomini o'rtaga qo'yib, ajabtovur duo o'qiydi. Ish bitgach, xayrlashish ham esidan chiqib, shoshilinch juftak rostlaydi. Bir kundan so'ng Nasiba va Malik keladilar. Bir juftgina qo'ziga pul yetmayotganini aytib, qarz so'raydilar. Shokir bu pul qaytmasligini bilib, ikkilanib taysallaydi. Karima xola Shokirga ko'zini olaytiradi. Shokir noiloj so'ralgan pulni sanab beradi. Nasiba eri Malikni ergashtirib, og'zi qulog'ida uyiga jo'naydi.

Ehtiyot bo'ling qurtlardan, deb kesatadi Shokir. Qurtlar yomon-da, Nasibaxon.

Hovotir olmang, aka, deydi kesatiqni tushunmay Nasiba. Do'xtirlar hamma qurtlarni olib bo'lishdi. Kelasi safar reysdan kelganingizda yana berib turasiz-a?

Ha-a-a! chiyillaydi Sulton. Pliz, mem! Yana qancha kerak?!

Oradan hech qancha vaqt o'tmay Yoqub va Dilbar kirib keladilar.

Ha-a? deb hol so'raydi Yoqub har doimgiday beg'amlik bilan. Qalaysizlar?

This is not registered version of TotalDocConverter

✦ Xarili ustunlarga ko'ndalang o'rnatiluvchi tayanch yog'och.

✦ Operatsiya demoqchi, sheva.

✦ Qo'rg'on beradi yengiladi.